

IN VOLUME #1
ISSUE#2,
JUNE 2023



JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN

- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics
- Agriculture
- Psychological Sciences
- Medical Sciences

OJS / PKP
ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER





**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE”
MCHJ**

JOURNAL OF SCIENCE RESEARCH

**VOLUME 1, ISSUE 2,
2023. JUNE**

Tel: +998930901912 Web sayt: <http://universalpublishings.com> Email: sabirovj75@gmail.com

« **Journal of science-innovative research in Uzbekistan** »
ilmiy-uslubiy jurnali: 30.06.2023 yil.

Ushbu to‘plamda « **Journal of science-innovative research in Uzbekistan** » ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-soni 2-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o’g’li Urganch davlat Universiteti talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Matchanov Otabek Jumanazarovich Urganch Davlat Universiteti, Geodeziya, Kartografiya, Geografiya kafedrası Dotsenti. Yònalish - Tabiiy Geografiya

Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna, Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Samandarov Ergash Iskandarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo`jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Egamov Baxtiyor Nurmetovich, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Rajabov Alibek Xushnodbekovich, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası, iqtisodiyot fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Amanov Allabergan Kutlimuratovich, Urganch davlat unversiteti Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası o`qituvchisi.

Babajanova Sanabar Yuldashbayevna, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası, qishloq xo`jalik fanlari bo`yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.

Masharipov Adamboy Atanazarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası dotsenti.

Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna, Urganch davlat universiteti geografiya fani o`qituvchisi.

Raximova Anamoy, Qo`shko`pir tumani 25-son umumta`lim maktabi Manaviy ma`rifiy ishlar direktori o`rinbosari. Geografiya fani o`qituvchisi

Ismoilova Himoyat Matnazarovna, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismayilova Intizar, Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo`jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Xamroyev Muxtor Ozodovich, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Razakova Rayxan Saylaubekovna Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori, PhD.

Sporalilar (sporozoa) tipi

Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yoʻnalishi
1-bosqich 103-guruh talabasi*

Annotatsiya: Bu tezisdan Sporolilar (sporozoa) tipi va sinflariga qisqacha maʼlumot keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Sporolilar, sporozoa, gregarinina, coccidiomorpha, eugregarinida, coccidiida, haemosporidia, piroplasmida.

Abstract: This thesis provides a brief overview of the types and classes of sporolae (*Sporozoa*)

Key words: Spores, sporozoa, gregarinina, coccidiomorpha, eugregarinida, coccidiida, haemosporidia, piroplasmida.

Bu tipga 4000 dan ortiq turlar mansub boʻlib, ularning deyarli hammasi hayvonlar va odam organizmida parazitlik qiladi va biror kasallik keltirib chiqaradi. Tip gregarinalar (*Gregarinina*) va koksidiyalar (*Coccidiomorpha*) sinflariga ajratiladi. Parazit hayot kechirishi natijasida ularning tanasi maʼlum darajada soddalaşgan, himoya poʻstiga oʻralgan boʻladi. Koʻpchilik sporolilar hayotining maʼlum davrida spora hosil qilish xususiyatiga ega. Spora hayvonni tashqi muhitning noqulay sharoitidan saqlaydi. Ularning harakatlanish organoidlari, qisqaruvchi va ovqat hazm qilish vakuolalari rivojlanmagan. Hamma sporolilar murakkab rivojlanish sikliga ega boʻladi. Hayot siklida jinsiz, jinsiy va sporogoniya jarayonlari almashib turadi. Jinsiz koʻpayishi hujayraning koʻp marta boʻlinishi (shizogoniya) dan iborat.

Jinsiy koʻpayish koʻpchilik sporolilarda ikki xil tipdagi gametalar (anizogametalar) ning kopulyatsiyasidan iborat. Faqat gregarinalar bir xil tipdagi gametalar (izogametalar) hosil qiladi. Zigotasi odatda qalin poʻst bilan oʻralgan boʻlib, *oosista* deyiladi. Oosista ichida *sporogoniya* natijasida *sporozoitlar* hosil boʻladi. Birqancha sporolilarda sporozoitlar ham qattiq qobiq hosil boʻladi. Sporozoitlar hosil boʻlishi bilan parazitning rivojlanish sikli tugallanadi. Sporolilar zigotasining dastlabki boʻlinishi meyozi yoʻli bilan boradi. Bu jihatdan ular foraminiferalar va barcha xivchinlilar singari zigota davrida reduksiyaga uchragan gaploid xromosomal organizmlar hisoblanadi.

Gregarinalar (*Gregarinina*) sinfiga qisqacha taʼrif. Gregarinalar 500-1000 turni oʻz ichiga oladi. Hamma gregarinalar umurtqasiz hayvonlarda parazitlik qiladi. Asosiy koʻpchilik turlari boʻgʻimoyoqlilar, asosan hasharotlarning ichagida yashaydi. Ayrim vakillari halqali chuvalchanglar, ignaterililar va qobiqlilarda ham uchraydi. Gregarinalarni

hayvonlarning tana bo'shlig'i, jinsiy organlari va boshqa organlarida uchratish mumkin. Gregarinalarning jinsiy ko'payishi o'ziga xos bo'lib, boshqa sporalilardan farq qiladi.

Ular orasida bo'g'imoyoqlilarning ichagida yashovchi haqiqiy gregarinalar (Eugregarinida) turkumi vakillari eng murakkab tuzilgan.

Gregarinalar xilma-xil shaklda; kattaligi 10 mkm dan 16 mm gacha bo'ladi. Tana shakli va kattaligi ularning qaysi organda parazitlik qilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Gregarinalarning tanasi tashqi tomondan mustahkam pellicula qobiq bilan qoplangan.

Jinssiz ko'payish faqat kam sonli arxegregarinalar hamda neogregarinalar turkumlari vakillarida kuzatilgan. Asosiy ko'pchilik gregarinalar, xususan haqiqiy gregarinalar turkumi vakillari faqat jinsiy yo'l bilan boradi.

Koksidiyasimonlar (*Coccidiomorpha*) sinfiga qisqacha ta'rif. Koksidiyasimonlar sinfi juda xilma-xil tuzilgan 2400 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Har xil halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar va umurtqali hayvonlarda parazitlik qiladi. Koksidiyasimonlar hujayra ichida parazitlik qilishi bilan gregarinalardan farq qiladi. Ko'pchilik turlarining hayot sikli jinssiz va jinsiy ko'payish hamda sporogoniyaning qonuniy gallanishi orqali boradi. Xo'jayin almashtirmasdan rivojlanadigan turlarida sporogoniya tashqi muhitda boradi. Xo'jayin almashtirib rivojlanadigan turlarida esa sporogoniya va jinssiz ko'payish boshqa-boshqa xo'jayinlar organizmida rivojlanadi.

Koksidiyasimonlarning bir qancha turlari uy hayvonlari, parrandalar va baliqlarga katta ziyon yetkazadi. Ular orasida bitta turi odamda parazitlik qiladi. Quyida koksidiyasimonlarning eng muhim turkumlari keltiriladi.

1-Turkum: Koksidiyalar (*Coccidiida*)

2-Turkum: Qon sporalilar (*Haemosporidia*)

3-Turkum: Piroplazmidlar (*Piroplasmida*)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurtqasizlar zoologiyasi – O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova (2006) 53-54-56-57-63-67-betlar.
2. Zoologiya – Dj.Urchinov (1996) 12-bet.
3. Zoologiya – Ochil Mavlonov (2010) 38-bet.
4. Zoologiya – S.Dadayev, O.Mavlonov (2008) 14-bet.
5. Parazitologiya – S.Dadayev (2006) 28-bet.



ЎЗБЕК ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА МОМО ОБРАЗИНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ

Нарзуллаева Дилфуза Саитовна,
Бухоро муҳандислик-технология институти
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти (PhD)

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек халқ достонларида момо образининг талқин қилиниши ҳақида маълумотлар келтирилган

Калит сўзлар: анимистик ва шомонистик, момо (кампир) образи,

Момо ўзбек мифологиясидаги асосий образлардан бири бўлиб, ўзида қадимги инсонларнинг руҳларга ишонч-эътиқодини, анимистик ва шомонистик тасаввур-тушунчаларини бадиий намоён этади.

Момолар ҳақидаги қарашлар илдизи исломгача шаклланган диний-мифологик тушунчалар, аниқроғи, анимистик ва шомонистик тушунчаларга бориб тақалади. Ўзбеклар орасида момо культига ишончни ўзида ифода этувчи бир қатор маросимлар, ирим-сиримлар ҳозиргача сақланиб келмоқда. Момо култи тушунчаси Ўрта Осиё халқлари мифологиясида “аёл ҳомий руҳ” тимсолини ифода этади. Халқнинг тасаввурича, момолар руҳи аёлларга, уларнинг фаолиятида, шуғулланадиган касб-корларида, табобат, бола туғиш ва уни тарбиялаб-ўстириш ишларида ҳамиша ёру мададкор бўлади. Одатда, қалтис вазиятларда ва мушкул ишларнинг ечимида, бахтсизлик, касаллик юз берган ҳолатларда аёллар момо культига сиғиниб, ундан мадад сўрайдилар. Шу сиғиниш вазияти муайян ташкилий-амалий тадбир кўринишида кечади.

Момо ўзбек мифологиясидаги асосий образлардан бири бўлиб, ўзида қадимги инсонларнинг руҳларга нисбатан ишонч-эътиқодини, анимистик тасаввур-тушунчаларини бадиий намоён этади. Момо култи билан боғлиқ эътиқодий қарашларни ўзида ифода этувчи момо образи халқ асотирларида, афсона ва эртақларида, достонларда алоҳида ўрин тутди. Момо образи ўзбек фольклори намуналарида халқнинг дуалистик қарашлари асосида баъзан ижобий, баъзан салбий характерда гавдалантирилади. Момо култи билан боғлиқ эътиқодий қарашлар мифлардан маросимларга, сўнгра халқ бадиий тафаккурининг сарчашмалари бўлмиш афсона, эртақ ва достонларга кўчганлиги сезилади.

Момо (кампир) образи ўзбек халқ достонларида кўпинча ёвуз қиёфада гавдалантирилиши кузатилади. Бунга “Алпомиш” достонидаги маккор Сурхайл кампир, “Рустамхон” достонидаги хийлагар мастон кампир образларини мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Айтайлик, “Алпомиш” достонида маккор Сурхайл кампирнинг хийласи туфайли бош қаҳрамон Ҳакимбек етти йиллик бандиликка

гирифтор қилинса, “Рустамхон” достонидаги мастон кампир асар қахрамонлари бошига кўп кулфатларни солади. Рустамнинг онаси Ҳуройимга унинг кундошлари таклифига учиб, тухмат ёғдиради. У Ҳуройимга қаратилган тухмат хатини худди эртақлардаги жодугар янглиғ тилсимли учар ёғоч отда Султонхон хузурига етказиб беради. Хатни ўқиган Султонхон жаҳлга миниб, Ҳуройимни ўлимга буюради. Бу ҳолат достонда шундай келтирилган: “Ёғочдан қилди отни, қоғоздан қилди қанотни, пўлатдан қилди мурватни, энди кампир қилиб турибди ғайратни”¹.

Достонда мастон кампирнинг ёғоч отда учиши мотиви бежиз келтирилмаяпти. Чунки от култи шомонлик билан ҳам боғлиқ бўлиб, туркий шомонлар ҳассаси от рамзини ифодалаган².

Исми Момагул бўлган бу мастон шундай тавсифланади: “Оқтош вилоятинда дафтари мастондан уч юз олтмиш мастон бор эди. Уч юз олтмиш мастоннинг бошлиғини Момагул мастон дер эди. Мазгили шаҳардан ташқари бир ғорда эди. Ғорда ётар эди, хурракни баланд тортар эди, ботмон носвойни тўрт бўлиб отар эди, юриш-туриши одамларга хатар эди, не эр йигитларни икки пулга сотар эди, яхшилиқни уч пулга олмай, қаерда ёмонлик бўлса излаб етар эди. Қандай одам кўрса, бу кампирдан ҳазар қилиб, узоққа кетар эди; ёмонлик излаб борган одамнинг иши шу мастондан битар эди”³.

Салбий персонаж – Момагул мастон тингловчига сажъ кўмагида яна шундай таништирилади: “Момасининг афти-жасадини кўрди, шундай: манглайлари чўтдай, кўзлари ўтдай, жағининг гўшти қочган, ён ёғидан тарлон очган, яхшилиқдан мудом қочган”⁴.

Момагул мастон бир қисим тупроқни олиб, дам солиб, Рустамнинг кўзига отганида, Рустамнинг кўзи ҳеч ерни кўрмай, чиппа битиб, кўр бўлиб қолади.

Достонда мастон кампирнинг тилсим ёғоч учар оти кўмагида Султонхон хузурига етиб бориб, унга тухмат битилган хатни етказиши, хатни ўқиган Султонхон жаҳлга миниб, Ҳуройимни ўлимга буюриши достоннинг тугуни сифатида кўринади.

Мастон ўзини Ҳуройим кўринишига солиб, Рустамни кутиб олади. Рустам мастонни онаси деб ўйлайди. У мастон макрига алданиб, икки кўзидан ажралади. Уни икки тозиси очиқ гўрга яшириб боқади. Очиқ гўрдан Рустамни Қизил дев қутқаради. У мастонни ҳам ўлдиради⁵.

¹ Рустамхон. Алпомиш. Рустамхон. Жаҳон болалар адабиёти кутубхонаси. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.362.

² Манжигеев И.А. Бурятские шаманистические и дошаманистические термины. – М.: Наука, 1978. – С.58; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.228.

³ Рустамхон. Алпомиш. Ўша манба.. – Б.356.

⁴ Рустамхон. Алпомиш. Жаҳон болалар адабиёти кутубхонаси. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985– Б.356-457.

⁵ Рустамхон. Алпомиш. Ўша манба. – 405-б.

Бу работда Қизил дев деган дев зиндонда эди. Кампир Қизил девнинг зиндонини бориб айланади. Зиндонда ётган Қизил дев унга қарайди. Девнинг кўзига зиндоннинг бошида бир сурхайил гардан, писта даҳан, жуда бир замбар бел сағрили бинойи келинчак кўринади. Дев кўриб: – Жўра, йўлдошинг бўлайин, тортиб ол! – дейди. “Гўзал аёл” индамайди. – Ини-оғайни бўлайин, тортиб ол! – дейди яна дев. Кампир бу сўзга ҳам қулоқ солмайди. – Эса эринг бўлайин, тортиб ол! – дейди тагин дев. Кампир бир арқонни солиб, Қизил девни зиндондан тортиб олади ва унга дейди: – Энди гап шу: менинг бир ўғлим бор, бойлаб, созлаб қўйибман. Шунини ўлдирмасанг, икковимизни ўйнаб-қулдирмас, бу дунёда даврон сурдирмас⁶.

Гап нимадалигини пайқаган дев тўқсон ботмон чўяндан бўлган калтаги билан кампирни қўйиб юборади. Кампир тариқдай тирқираб кетади.

Эрам боғидаги етти оғайни девларнинг бири бўлган бу дев – Қизил дев эди. У мастон кампирни ўлдириб, Рустам билан дўст тутинади ва кейин ўз манзилига жўнаб кетади. Қизил девнинг ёрдами билан Рустамхон ҳам банддан, ҳам мастон кампирдан қутулади.

Достонда мастон кампир тилида қарғиш ҳам ишлатилган. Чунки бу унинг табиатига мос келади:

Ёлғиз ташлаб менга солдинг ўтингни,
Кўкка соғдим билсанг бу оқ сутимни⁷.

Бу қарғишни айёр мастон кампир Рустам кўзига Хуройим бўлиб кўринганда айтади.

“Мирза Эдиге ботир” достонида парининг болани тўққиз йўлнинг бирлашган ерида бойнинг қўлига осмондан ташлаб юбориши, бой эса болани бир кампирга топшириб, ўзи жаҳонгашталиққа юз буриши, Нурадиннинг отасини излаб келганда бир кампирга учраб, унинг бошига тушган муаммони ечиши, достон охирида кампир тақдири билан алоқадор бўлган Нурадиннинг баҳсли масалани адолатли ҳал қилиши эпизоди берилган⁸.

“Жорхун мастон” достонида⁹ Гўрўғли шажараси вакилларининг сафарга отланиши, сафарга ёвуз руҳларга (мастонларга) дуч келиб, улар билан курашда бемисл қахрамонликлар намоиш этиши, бир муддат тутқунликка гирифтор бўлиши, яъни рамзий ўликлик ҳолатига тушиши, сўнгра яна ҳомий кучлар кўмагида тутқунликдан қутилиши акс эттирилган. Д.Ўраева фикрича, ушбу достонда шу

⁶ Рустамхон. Алпомиш. Ўша манба. – Б.425.

⁷ Рустамхон. Алпомиш. Ўша манба. – Б.422.

⁸ БахадYROVA С. “Китаби дедем Қорқит”, “Қоблан”, “Едиге” ҳам ҳозирги адабият ҳаққинда ойлари. – Нокис: “Қарақалпақстан”, 1992. – Б.52.

⁹ Жорхун мастон. // Нурали. Достонлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Т.: Ф. Ғулом нашриёти, 1989. – Б.105.



холоатлар структурал жихатдан шомонлик маросим билан айнан бир хил уйғунликда тасвирланган¹⁰.

Достонда Жорхун мастон Ғани деган муллаваччани тош кўринишига айлантириб, ўзи унинг кўринишига кириб олади. У бошлиқ қирқ мастон эса ғозлар қиёфасига эврилади. Нурали билан ғозлар ва гўзал қизлар кўринишига эврилган мастонлар ўртасида жанг кечади. Нурали гўзал қизлар қиёфасидаги мастонларни танитай, улар қўлидан тилсимланган сувни ичиб, эс-хушидан айрилиб, бандиликка учрайди. Буни отаси Авазхон тушида кўриб, Соқи синчи билан Нуралини қутқаради.

Қизиғи шундаки, достонда Жорхун мастон Семурғ кўринишига ҳам киради.

Умуман айтганда, момолар образи ўзбек халқ эпик жанрларида муҳим ўрин эгаллайди ва ўзига хос бадий вазифаларда талқин қилиб келинади. Момо култи билан боғлиқ эътиқодий қарашларни ўзида ифода этувчи момо образи достонларида алоҳида ўрин тутаяди. Халқнинг дуалистик қарашлари асосида момо образи ўзбек фольклори намуналарида турлича бадий талқин қилинганлиги кузатилади. Момо култи билан боғлиқ эътиқодий қарашлар мифлардан маросимларга, сўнгра халқ бадий тафаккурининг сарчашмалари бўлмиш афсона, эртақ ва достонларга кўчганлиги сезилади. Бу қарашларнинг барчаси фольклор намуналарида муайян бадий образ ва эпик мотив даражасида ўз аксини топганлиги эътиборлидир.

¹⁰ Ўраева Д. “Жорхун Мастон” достонида архаик эпос ва маросим уйғунлиги // Қодир бахши абадияти. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши: Қарши ДУ, 2012. – Б.47-50.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Karmakdoshlar oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)

Mahammadjonova Sevara Fayzulla qizi
Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi

Andijon Davlat Pedagogika insitituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti bialogiya
yo`nalishi 1-bosqich 103-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi „Qizil kitobi”ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan Karmakdoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qizil kitob, Karmakdoshlar oilasi, endemik turlar, kamyoblik darajasi, sistematika.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the Karmakdosh family included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the Red Book of the Republic of Uzbekistan.

Key word: Red Book, Carmakdosh family, endemic species, degree of rarity, systematics.

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный анализ семейства Кармакдош, включенного в 4-е издание (2009 г.) и 6-е издание (2019 г.) Красной книги Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Красная книга, семейство Кармакдош, эндемичные виды, степень редкости, систематика.

Atrof – tabiiy muhitni, uning tarkibiy qismlari bo‘lmish o‘simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Insoniyat tabiatdan foydalanar ekan, asrlar davomida shakllangan tabiiy lanshaftlarini o‘z- gartirmoqda. Natijada, bir qator o‘simliklar va hayvon turlari kamayib yoki yo‘qo- lib bormoqda. Ularni muhofaza qilish maqsadida xalqaro va mahalliy“Qizil kitob” lar ta’sis etilgan[1]. O‘zbekiston Respublikasi hududida hozirda 4500 ga yaqin o‘simliklar mavjud. Ular orasida jiddiy muxofazaga muxtoj ko‘plab kamyob endemik va relik turlar bor. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo‘lib, O‘zbekiston florasing 10-12% ini tashkil etadi [1]. O‘zbekiston Respublikasida “ Qizil kitob” ilk bor 1984-yilda ta’sis etilgan bo‘lib,

unga 163 ta tur kiritilgan. Mazkur “Qizil Kitob”da nabotot olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad – jamoatchilik, mutaxassislar va davlat idoralari e‘tiborini tabiat muhofazasi masalalariga jalb etish va turlar genofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat [1]. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyobligiga ko‘ra o‘simliklar 4ta ajratiladi.

- 1.Yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin,
- 2.Yo‘qolish arafasida turgan.
- 3.Kamyob.
- 4.Son jihatdan kamayib borayotgan turlarga tavsiflanadi.

2009-yil „Qizil kitobi” ganazar tashlasak, 324ta tur mavjud bo‘lib, Karmakdoshlar oilasi vakillarining 5 ta turi kiritilgan. Bunda: *Anna kirpio`ti*, *Ekaterina kirpio`ti*, *Margarita kirpio`ti*, *Nurota kirpio`ti*, *Tuxumoyoq ildizbosh(sefalorizum)* mavjud. Ushbu turlarda yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar (maqomi 0) mavjud emas, yo‘qolish arafasida turgan turlar(maqomi 1) -1ta, kamyob turlar (maqomi 2)- 4 ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar(maqomi 3) mavjud emas [2].

**O‘zbekiston Respublikasi „Qizil kitobi” ning 2009-yildagi nashri bo‘yicha
Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida ma‘lumot
1-jadval**

T/r	Tur nomi	Kamyoblik darajasi	Hayotiy shakli	Tarqalish mintaqasi	Tarqalish soni	Madaniy lashtirish
1.	Anna kirpio`ti.	2.	Yarim buta.	Surxandaryo viloyati; Xisor tizmasi To`polon daryosi xavzasida.	Ko`p emas to`p-to`p bo`lib uchraydi.	Malumot yo`q
2.	Ekaterina kirpio`ti.	2.	Yarim buta.	Toshkent viloyati chotqol tizmasining chimyon tog`ida.	To`plari bir-birida ancha uzoqdajoyl ashgan tik yonbag`irl ardagina	O`zbekiston Respublikasi FA botanika bog`ida 1962-

					saqlanib qolgan.	yildan beri muvaffaqiyatli o`stirilmogda.
3.	Margarita kirpio`ti.	2.	Buta.	Toshkent viloyati; Qurama tizmasida oxangaron daryosining chap tomonidatarqalgan.	Butun areali bo`ylab yakka yakka xolda o`sadi.	O`zbekiston Respublikasi FA botanika bog`ida 1963-yildan beri muvaffaqiyatli o`stirilmogda
4.	Nurota kirpio`ti.	2.	Yarim buta.	Navoiy viloyati, Nurota tizmasida tarqalgan.	Kam uchraydi kichik-kichik tuplar hosil qiladi.	Malumot yo`q.
5.	Tuxumoyoq ildizbosh <i>sefalorizum</i>	1.	Ko`p yillik o`t.	Kelif-Sherobot tepaliklarida tarqalgan.	13tup o`simlik borligi aniqlangan	Malumot yo`q.

„Qizil kitob”ning 2019-yil nashrida 314 ta o`simlik turi kiritilgan bo`lib, undan 6 ta tur (*Anna kirpio`ti*, *Ekaterina kirpio`ti*, *Margarita kirpio`ti*, *Nurota kirpio`ti*, *Deyarli sulisimon kirpio`t*, *Tuxumoyoq ildizbosh*) Karmakdoshlar oilasiga mansub turlar hisoblanadi. Ushbu turlarda yo`qolgan yoki yo`qolgan bo`lishi mumkin turlar (maqomi 0) mavjud emas, yo`qolish arafasida turgan turlar(maqomi 1) mavjud emas , kamyob turlar (maqomi 2) 6 ta , son jihatdan kamayib borayotgan turlar (maqomi 3) mavjud emas (3).



**O`zbekiston Respublikasi „Qizil kitob“ining 2019-yildagi nashri bo`yicha
Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida malumot.**

2-jadval

T/r	Tur nomi.	Kam y oblik dara jasi.	Hayot shakli.	Tarqalish mintaqasi.	Tarqalish soni.	Madaniy lashtirish
1.	Anna kirpio`ti.	2.	Yarim buta.	Surxandaryo viloyati; Xisor tizmasi To`polon daryosi xavzasida.	Kam sonly populyasiyasi tabiatda juda oz uchraydi.	Malumot yo`q.
2.	Ekaterina kirpio`ti.	2.	Yarim buta	Toshkent viloyati chotqol tizmasining chimyon tog`ida.	Aniqlanmagan.	O`zbekiston Respublikas i ФА botanika bog`ida 1962-yildan beri muvaffaqiya tli o`stirilmoqd a.
3.	Margarita kirpio`ti.	2.	Buta	Toshkent viloyati; Qurama tizmasida Oxangaron daryosining chap tomonidatarqalgan.	Butun areal bo`ylab sanoqli darajada o`sadi va juda kam uchraydi.	O`zbekiston Respublikas i ФА botanika bog`ida 1963-yildan beri muvaffaqiya tli o`stirilmoqd a



4.	Nurota kirpi o`ti.	2.	Yarim buta.	Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari Nurota tizmasida tarqalgan.	Kam uchraydi. Kichik populyasiyalar (20-3-tadan 100-200 tupgacha) xosil qiladi.	Malumot yo`q.
5.	Tuxumoyoq ildizbosh, <i>Sefalorizum</i>	2.	Ko`p yillik o`t.	Surxandaryo viloyati, Kelif-Sherobod tepaliklarida tarqalgan. Turkmanistonda xam uchraydi.	2009-yili 13 tup o`simlik borligi aniqlangan.	Malumot yo`q.
6.	Deyarli sulisimon kirpi o`t.	2.	Yarim buta.	Samarqand va Navoiy viloyatlari Nurota tizmasining markaziy qismida tarqalgan.	Tabiatda kichik maydonda tarqalgan. Yakka holda bazan kichik to`p bo`lib uchraydi.	Malumot yo`q.

Ushbu 6 tur o`simliklarning hayotiy shakillarini tahlil qilganimizda 4ta yarim buta, 1ta buta va ko`p yillik o`t ekanligi ma`lum. Ularning tarqalish soni o`rganilmagan. Bu o`simliklarning yo`qolib ketishiga chorva mollarining ko`plab boqilishi tufayli tufayli oyoqosti qilinmoqda, natijada urug`idan unib hiqqan nihollar tabiatda juda kam uchraydi. Shunga qaramasdan muhofaza qilish choralari ishlab chiqilmagan. Karmakdoshlar oilasi vakillari, asosan Samarqand, Toshkent, Navoiy, Surxandaryo tog` tizmalarida to`p hosil qiladi. Ushbu oila vakillari kamyob o`simliklar hisoblanadi.

Xulosa, 2009-2019-yillar „Qizil kitob“ inisolishtirib chiqar ekanmiz, bularda Karmakdoshlar oilasining 5- vakili *Tuxumoyoq ildizboshning* maqomi 2009-yil, „Qizil kitob“da „1“ maqomini tashkil qilsa, 2019-yil „Qizil kitob“da esa „2“ maqomni egallab bir pog`ona ko`tarilganini ko`rsatmoqda. Bundan tashqari 2009-yil „Qizil kitob“da 5ta tur, 2019-yil „Qizil kitob“da 6 ta tur kiritilgan. Demak ushbu Karmakdoshlar oilasi vakillarining yana bir turi „Qizil kitob“ga kiritilib yanada muhofazaga muhtoj ekanligini namoyon qilmoqda(2).



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi „Qizil kitobi“ 1-jild.-toshkent :ENK. 2009-yil(355b)
2. O`zbekiston Respublikasi „Qizil kitobi“ 1-jild.-toshkent:ENK.2019-yil (364b)
3. O`. Pratorov M.Nabiyev O`zbekiston yuksak o`simliklarining zamonaviy tizimi. Toshkent:o`qituvchi, 2007-yil 64 bet.
4. Флора Узбекистана т.2-Ташкент :Ан УзССР 1953ю 279стр.

SONLARGA DOIR TURLI MASALALAR

Shermatova O'g'iljon, Xorazm viloyati
Urganch shahri UrDU akademik
litseyi matematika fani o'qituvchisi
Telefon:+998993488309
e-mail:shermatovaugiljon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sonlar nazariyasiga doir murakkabroq bo'lgan masalalarning qulay yechish usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: isbot, natural son, qisqarmas kasr, butun son, to'la kvadrat, tub son.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan sonlar nazariyasiga doir masalalar darslik va qo'llanmalarda kam uchraydi. Bunday ko'rinishdagi misollar asosan Matematikadan olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rayotganlar uchun qo'l keladi. Biz bu masalalarning qisqaroq va qulayroq yechish usullarini keltirib o'tamiz. Biz o'rganayotgan masalalarning yechish usullari bizning shaxsiy tajribamizga asoslangan holda kelib chiqqan bo'lib avvalgi usullardan osonroq va tushunish hamda tushuntirish uchun qulayroq bo'lib, qonuniyat topishga asoslangan. O'ylaymizki bizning bu maqolamizdan o'zingizga kerakli bo'lgan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lasiz degan umiddamiz.

1. Ixtiyoriy natural son n da $\frac{2n+1}{2n(n+1)}$ kasr qisqarmas ekanligini isbotlang.

Yechish: Berilgan kasrga teskari kasr qisqarmas ekanini ko'rsatsak yetarli.

$$\frac{2n(n+1)}{2n+1} = n + \frac{n}{2n+1} = n + \frac{1}{2} \cdot \frac{2n}{2n+1}$$

$2n$ va $2n+1$ lar ketma-ket kelgan sonlar bo'lgani uchun $\frac{2n}{2n+1}$ kasr qisqarmas kasr

bo'ladi. Demak $\frac{2n(n+1)}{2n+1}$ kasr ham qisqarmas kasr bo'lar ekan.

2. n ning ixtiyoriy qiymatida $n^3 + 3n^2 + 5n + 3$ ifodaning 3 ga bo'linishini isbotlang.

Yechish: Oldin berilgan ifodani ko'paytuvchilarga jaratamiz:

$$\begin{aligned} n^3 + 3n^2 + 5n + 3 &= n^3 + n^2 + 2n^2 + 2n + 3n + 3 = \\ &= n^2(n+1) + 2n(n+1) + 3(n+1) = (n+1)(n^2 + 2n + 3) = \end{aligned}$$



$$= (n + 1)(n(n + 2) + 3) = n(n + 1)(n + 2) + 3(n + 1)$$

Uchta ketma-ket kelgan sonlar ko'paytmasi 3 karrali. Demak $n(n + 1)(n + 2)$ ko'paytma 3 ga karrali. Qo'shiluvchilarning har biri 3 ga karrali bo'lgani uchun yig'indi ham 3 ga karrali bo'ladi.

3. n ning qanday natural qiymatlarida $n^2 + 3$ soni $n + 3$ ga bo'linadi.

Yechish: Agar ikkita ifoda aynan bir-xil songa karrali bo'lsa, ularning ayirmasi ham, yig'indisi ham o'sha songa karrali ekanidan $n^2 + 3 + n + 3 = n^2 + n + 6$ va $n^2 + 3 - n - 3 = n^2 - n$ lar $n + 3$ ga karrali ekani kelib chiqadi. Demak $n^2 + n + 6$ va $n^2 - n$ larning ayirmasi ham $n + 3$ ga karrali bo'ladi.

$$n^2 + n + 6 - n^2 + n = 2n + 6 = 2(n + 3)$$

Oxirgi tenglikdan ko'rinadiki berilgan ifodalarning hammasini $n + 3$ ga bo'lganda, bo'linma 2 chiqar ekan. Uholda quyidagi tenglamani yechamiz:

$$n^2 + 3 = 2(n + 3)$$

$$n^2 - 2n - 3 = 0$$

$$(n + 1)(n - 3) = 0$$

Ko'paytma nolga teng bo'lishi uchun kamida bitta ko'paytuvchi nolga teng bo'lishi kerak. Demak $n = 3$ va $n = -1$ bo'ladi $n = -1$ ni olmaymiz chunki u natural son emas. Demak izlangan javob $n = 3$.

4. Ixtiyoriy natural n uchun $4n + 2$ ifod abiror sonning kvadrati bo'lmashligini isbotlang.

Yechish: Ixtiyoriy natural sonning kvadratini 4 ga bo'lganda 0, 1, 3 qoldiqlar qoladi. Demak $4n + 2$ ifoda hech qachon biror sonning kvadrati bo'la olmaydi.

5. Ixtiyoriy natural son uchun $7n^2 + 1$ ifodani 3 ga bo'linmasligini isbotlang.

Yechish: Ixtiyoriy natural sonni $n = 3m$, $n = 3m + 1$ va $n = 3m + 2$ ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bizga berilgan ifoda bularning hech birida 3 ga bo'linmaydi

6. Agar p tub son bo'lsa, $8p^2 + 1$ ham tub bo'ladigan barcha tub sonlarni toping.

Yechish: 3 dan tashqari har qanday tub sonni 3 ga bo'lsak 1 yoki 2 qoldiq qoladi. 3 ga bo'lganda 1 yoki 2 qoldiq qoladigan har qanday sonni $8p^2 + 1$ ifodaga qo'ysak 3 ga karrali murakkab son hosil bo'ladi. Demak tub sonlardan faqat 3 ning o'zi qoldi va u masala shartini qaoatlantiradi.

7. $\frac{n(n - 5)}{2}$ kasr ixtiyoriy $n > 5, n \in \square$ da natural son ekanini isbotlang.

Yechish: Ikki holni qaraymiz:

1-hol n toq son bo'lsin. U holda $n - 5$ juft son bo'ladi. Demak $n(n - 5)$ ko'paytma

ham juft. Juft son 2 gakkarrali bo'lgani uchun $\frac{n(n - 5)}{2}$ ning natural ekani kelib chiqadi



2-hol n juft son bo'lsin. U holda $n(n - 5)$ ko'paytma juft bo'ladi va $\frac{n(n - 5)}{2}$ ning natural ekani kelib chiqadi.

Mustaqil yechish uchun:

1. Ixtiyoriy natural n uchun $\frac{n^3}{6} + \frac{n^2}{2} + \frac{n}{3}$ kasr natural son ekanini isbotlang

2. n ning qanday natural qiymatlarida $\frac{2n^2 - 3n + 2}{2n - 1}$ kasr butun son bo'ladi?

3. Natural n sonda $n^4 + 2n^3 + 2n^2 + 2n + 1$ ifoda to'la kvadrat bo'la olmasligini isbotlang.

4. Ixtiyoriy natural son n da $\frac{10^{2n-2} + 2}{3} + \frac{10^{3n-3} + 2^3}{3^2}$ ifoda butun songa teng bo'lishini isbotlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. .Ayupov Sh.,Rihsiyev B.,Quchqorov O. “Matematika olimpiadalari masalari” 1,2qismlar.T.:Fan,2004
2. Bahodir Kamolov,Ne'matjon Kamalov.Matematikadan bilimlar bellashuvi va olimpiada masalalari. “Quvanchbek-Mashhura” MCHJ nashriyoti,2018y
3. Abdiyev.uz web sayti materiallari.

“USTOZ MAQOMI TOG’LARDAN ULUG’” SHIORI OSTIDA TAYYORLAGAN PEDAGOGIK QOBILIYATI

**Andijon viloyati Oltinkoʻl tumani 2 -sonli umumiy oʻrta taʼlim
maktabining informatika fani oʻqituvchisi Umarqulova Nilufar**

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ustoz maqomi togʻlardan ulugʻ” shiori ostida tayyorlagan pedagogik qobiliyati va ustozlarning oʻziga boʻlgan ishonchi hamda oʻz ishiga masuliyatli boʻlishi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kaʼlit soʻzlar: pedagog, ustoz, taʼlim, tarbiya, metod, koʻnikma, malaka, qobilyat,

Davlat taʼlim standartlarining bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi oʻqituvchiga kasbiy faoliyatini sezilarli oʻzgartiruvchi va yangi mazmun bilan toʻldiruvchi talablarni qoʻymoqda. Chunki mazkur standartlar kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslangan boʻlib, ular oʻquvchilarda shunchaki bilim, koʻnikma, malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz taʼlim olishga, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga layoqatli shaxsni tarkib toptirishga yoʻnaltirilganligi ilan farq qiladi. Bu oʻz navbatida oʻqituvchi kasbiy masʼuliyatining oshishi va jamiyatdagi oʻrning oʻzgarishini bildiradi. Yaʼni pedagoglarni taʼlim jarayonidagi jadal oʻzgarishlarga tez moslashish, oʻta faollik, doimiy oʻzini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga tayyorlik, oʻqitishning zamonaviy yondashuvlari, texnologiyalaridan xabardorlik hamda faoliyatida samarali qoʻllay olish sifatlariga ega boʻlishi. Shuning uchun ham oʻqituvchi faqatgina oʻquv dasturlari, darsni tashkil qilish, baholash bilan cheklanmasdan, oʻquvchilarning ichki salohiyatini rivojlantirishi, ularni qiziqtirishi, ergashtira olishi va doimo – bir qadam oldindan yurishi lozim. Malaka oshirish kurslari davomidagi kuzatishlar pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, oʻzaro taʼsir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari hamda koʻp ikkilanishlarini koʻrsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, malaka oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, oʻzlarini namoyon qilish, pedagogik gʻoyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda taʼlim xizmatlarini koʻrsatuvchi qaysi subyektlarga murojaat qilishlarini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki salohiyatidan foydalanish, Oʻz-oʻzini motivlashtirish, Oʻz-oʻzini ragʻbatlantirish, Oʻz-oʻzini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir koʻnikma va malakalarini takomillashtirish, muxtasar aytganda, kasbiy rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilishga qulay sharoitlar yaratishga asosiy eʼtiborni

qaratish zarur. Ya'ni – Bir tarafdin pedagog doimiy o'sib borishi, o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lishi, ikkinchi tarafdin, jamiyat tomonidan uning doimiy o'qishi va rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim. Demak, pedagoglar kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuv modeliga shunday sharoit yaratilishining pedagogik kafolati sifatida qaralishi mumkin. Ilmiy-metodik kuzatuv maqsadi, strategiyalarini belgilashda quyidagi yo'nalishlarda axborotlarni to'plash va tahlil qilish jarayonni tashkillashtirishning maqbulligi hamda natijadorligini ta'minlaydi:

- *pedagogning kasbiy rivojlanishiga davlat va jamiyat buyurtmasi*: pedagoglar kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan davlat talablari, ta'limsubyektlariga qo'yiladigan vazifalar tez o'zgarishining obyektiv sabablari, ijtimoiy-pedagogik omillari, jamiyatdagi o'zgarishlar, tegishli muassasalarning ehtiyojlari, jamoat tashkilotlari, mutaxassislar, o'quvchilar va ota-onalarining taklif hamda tavsiyalari;
- *pedagogning kasbiy ehtiyojlari*: kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, ehtiyojlari, muammolari, qiyinchiliklarini anglash, aniqlash, korreksiyalash, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat muhitida o'zining o'rnini tushunishi, kompetentligini oshirishga yo'naltirilgan shaxsiy-istiqbolli dasturini mustaqil shakllantirishi, o'zini namoyon qilish, ilg'or tajribalarini ommalashtirish;
- *pedagoglar va o'quvchilar bilan o'tkaziladigan turli monitoring natijalari*: maktab metodik birlashmasi faoliyati yakunlari, pedagoglar attestasiyasi, malaka toifalarini belgilash, pedagogik hamda metodik kengash xulosalari, malaka oshirishdan keyingi faoliyatni o'rganish, turli tanlovlar, ta'lim sifati monitoringi, o'quvchilar yakuniy attestasiyasi, bilimlar bellashuvi natijalari va boshqalar.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. O'qituvchining kasbiy ehtiyoji bu - uning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining o'rnini tushunishi, kompetentligini oshirishga yo'naltirilgan shaxsiy istiqbolli dasturini mustaqil shakllantirishi, o'zini namoyon qilishiga bo'lgan zaruriyatidir, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish istagi, potensial imkoniyatlarini anglashga urinish hamdir. O'qituvchi o'zidagi mavjud ehtiyojlarni qanchalik tez tashxislasa hamda ularni tan olsa, shunchalik kam kasbiy qiyinchiliklarga uchraydi. Tez o'zidagi qobiliyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Kasbiy qiyinchiliklar deganda, maktab o'qituvchisining muayyan vaziyatlarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar yechimini aniq taqdim etishdagi va samarali ta'minlay oladigan hamda maqsadga yo'naltirilgan kasbiy harakatni bajarishdagi qiyinchiliklari tushuniladi. o'z-o'zini tarbiya – odamni o'zini o'zi takomillashtirish. Kasbiy o'zini o'zitarbiyalash va o'zini o'zi tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismi o'z-o'zini ta'limi, biz o'z-o'zini tarbiyalash, biz universal tajriba, uslubiy bilimlarni, uslubiy bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun o'qituvchining maqsadli, xususan, ma'rifiy madaniy

faoliyatini tushunamiz Pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun o‘zo-o‘zini hisoblash uchta yo‘nalish bo‘yicha professional ravishda muhim fazilatlarni rivojlantirish bo‘yicha ongli ishlarni o‘z ichiga oladi: Pedagogik faoliyat o‘qituvchilarining o‘ziga xos noyob xususiyatlarini moslashtirish; Kasbiy kompetentsiyada doimiy o‘shish; Doimiy ravishda ijtimoiy-axloqiy va boshqa shaxsning shaxsiy xususiyatlarini doimiy rivojlantirish. Kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash, boshqa harakatlar singari, faoliyat manbalari va faoliyat manbalari juda murakkab tizimiga ega. O‘z-o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiruvchi tashqi omillar:

- ***pedagogik jamoa,***
- ***maktab rahbariyati uslubi va***
- ***bo‘sh vaqt omili.***

O‘z-o‘zini hisoblash:

1) O‘z-o‘zini bilish o‘z-o‘zini tarbiyalash maqsadlarini to‘g‘ri kiritish uchun, siz o‘zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni bilishingiz kerak, ya‘ni o‘zingizni bilishingiz kerak. O‘z-o‘zini bilishning eng muhim usullaridan biri bu sizning tajribangiz, ham ijobiy va salbiy tomoni. O‘zingizni bilishning yana bir usuli - boshqalar bilan taqqoslash;

2) O‘z-o‘zini dasturlash;

3) O‘zini – o‘zi harakatlantirish. Usul maqsadga erishish uchun yo‘ldir. O‘z-o‘zini tarbiya usullari – o‘zini takomillashtirish usullari. Ularning boshidan ko‘rib chiqaylik. **O‘z-o‘zini shakllantirish usullari:**

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash. Bunga ilmiy-texnik adabiyotlarni o‘qish, maxsus ma‘ruzalar, ko‘rgazmalar, muzeylar, doiralar va amaliy muammolarni hal qilish, amaliy muammolarni hal qilish, turli kasbli odamlar bilan aloqa qilish, kitoblar va televizion dasturlar bilan tanishish orqali amalga oshirish orqali amalga oshirish mumkin.
2. O‘z-o‘zini tejash kuchli aqliy ishlarni talab qiladi. Uning maqsadi ma‘lum xulqatvor, ishning to‘g‘riligi yoki, aksincha, xatti-harakatning yolg‘onligi, harakatning xiyonati ekanligini isbotlash.
3. O‘z-o‘ziga yondashuv – bu maxsus sharoitda eng muvaffaqiyatli ishdir. Biror kishi buni amalga oshirish, o‘zining tanqidi, ammo harakatni boshlash, unga birinchi qadamni qo‘yish.

4. Atrofdagining harakatlari va o‘quvchilarining xatti-harakatlari va harakatlarini ko‘rish va ijodiy dizayni sifatida kuzatish, tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

5. O‘z-o‘ziga bosim.

6. O‘z-o‘zini bilish.

7. Boshqarish va o‘zini-o‘zi baholash.

Bularga turli xil yopilishi, o‘zini kamaytirish, mushaklarning yengilligi (yengillik), maqsadli o‘zini baholashning usullari va usullari tufayli maxsus og‘zaki formulalar mavjud.

O‘z-o‘zini dasturlash usullari:

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha dasturlarni o‘rganish.

2. O‘zingizning dasturingizni tuzing.

Rag‘batlantirish usullari:

1. O‘z-o‘zini boshqarish.

2. O‘z-o‘zidan foydalanish muddati.

3. O‘z-o‘zini tanqid qilish.

***Professional o‘zini takomillashtirish** – ongli, kasbiy kompetensiya darajasini oshirish va ijtimoiy talablar, kasbiy faoliyat va uning rivojlanish dasturiga muvofiq katta fazilatlarni rivojlantirish jarayoni.*

O‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish.

Bugun o‘zgarish davridir va, birinchi navbatda, bu o‘zgarishlar maktab hayotiga, o‘quv jarayoniga bo‘lgan talablarning oshishiga bog‘liq. Agar ilgari ta‘lim uzoq vaqt davomida berilgan bo‘lsa va insonning biron-bir sohada yoki faoliyat sohasidagi uzluksiz kasbiy faoliyatini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, endi biz doimiy ravishda yangilanishni o‘z ichiga olgan tubdan yangi ta‘lim tizimini shakllantirish haqida gaplashmoqdamiz. Bundan tashqari, bunday ta‘limning asosiy xususiyati nafaqat bilim va texnologiyalarni uzatish, balki ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi bu shaxsning kasbga kirishishning murakkab va ko‘p qirrali jarayoni bo‘lib, u o‘qituvchining shaxsiyatining yetakchi roli bilan shaxsiy va faoliyat tarkibiy qismlariga hissa qo‘shishi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchining kasbiy mahorat modeli o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari (maqsadlari, mazmuni, vositalari, obykti, natijasi va boshqalar), o‘zingizning kasbiy faoliyat subyekti sifatidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi kerak.

U,shuningdek, professional tajriba va ijodiy tarkibiy qismni o‘z ichiga olishi kerak. O‘qituvchining eng xilma-xil xatti-harakatlarining birikmasi bo‘lgan pedagogik faoliyatning funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy va pedagogik mahorat, ko‘p jihatdan o‘qituvchining individual psixologik xususiyatlarini ochib beradi va uning kasbiy mahoratidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Ibragimov. Pedagogning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllantirish texnologiyasi Monografiya T: Fan texnologiya nashiryoti.

“O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “Orol tabiiy geografik o‘lkasi” mavzusini o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish.

**UrDU akademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi
Atabayeva Mavjuda Rustamovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “Orol tabiiy geografik o‘lkasi” mavzusini o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursini o‘zlashtirishda klaster metodining ahamiyati haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, klaster, metodika, pedagogika, geografiya, tabiiy geografiya, pedagogic texnologiya

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganini, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlash va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta‘lim mazmuniga talabchanligi, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishda va ongini yanada rivojlantirishda, ta‘lim tizimidagi barcha yangiliklardan barobar bo‘lib borishi kerakligini asosiy motif bo‘lib xizmat qiladi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talabi har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ishga bolaning bog‘chada ilk saboqlarini olayotgan paytdan boshlab e‘tibor qaratish lozim. Uzluksiz ta‘lim tizimining oldiga qo‘yilgan talablaridan biri- ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma‘naviyatli, kasb-hunarli, Ona-Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat va jamiyat oldida o‘z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik – psixologik tushunchalar, interfaol metodlari ta‘lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanilib borilishi, ta‘lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yuboradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissiyor” bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. U o‘z o‘quvchi-talabalarining fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik hissiyotlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullarida foydalangan holda darsni tashkil etish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Interfaol metodlar ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarflamaydi, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o’quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko’nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, o’quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash o’qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o’qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo’lgan ayrim pedagogik vositalar: ta’kidlovchi savollar bunda o’quvchining bergan savoliga qarab uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.

Dars mashg’ulotlari interfaol o’qitish usullaridan, o’yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutqiy tovush madaniyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi. Interfaol o’qitish usullarida bolalar o’quv jarayonining markaziy figurasi bo’lib, bunda uquv jarayoni bolalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O’qitish usullarini o’zaro bog’lab mashg’ulot o’tilsa bolalar tomonidan uni o’zlashtirish samarali bo’ladi.

Darslik matnidagi bilim- ko’nikmalarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishda esa klaster metodi juda qulay hisoblanadi. “O’zbekiston tabiiy geografiyasi”ning “Orol tabiiy geografik o’lkasi” mavzusida klaster merodini qo’llashning afzalliklari bilan tanishib chiqsak.

Mavzu: *Orol tabiiy geografik o’lkasi*

Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O’tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga Orol tabiiy geografik rayonining geografik o’rni, yer yuzasi va geologik tuzilishi haqida ma’lumot berish

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat tuyg’usini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish, nutq madaniyatini o’stirish, o’z-o’zini boshqarishga yo’naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Ta’lim beruvchi, interfaol.

Dars o’tish metodi: Klaster metodi, interfaol.

Dars jihozi: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 7-sinf darsligi, atlas, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,




Texnik jixozlar: Kompyuter, multimedia, slaydlar.

I. Tashkiliy qism. 1. O'qituvchining kirish so'zi. Davomatni aniqlash.


O'quvchilarni darsga hozirlash

II. O'tgan mavzuni so'rab baholash. Uyga berilgan klaster topshiriqlarni tekshirish..

III. Yangi mavzu bayoni.





1-Rasm. Orol tabiiy o'lkasi klasterini davom qildiring.



2-Rasm. Orol tabiiy o'lkasi klasterini davom qildiring.




3-Rasm. Orol tabiiy o'lkasini o'rgangan olimlar klasterini davom qildiring.



4-Rasm. Orol tabiiy o'lkasi tabiati klasterini davom qildiring.





5-Rasm.Orol tabiiy o'lkasi iqlimi klasterini davom qildingir.

V.Mavzuni mustahkamlash: “Klaster usuli asosida

Savol va topshiriqlar

1. Orol haqida dastlabki ma'lumotlar qachon va qaysi olimlar asarlarida keltirilgan va Orol qanday nomlar bilan atalgan? Klasterga joylashtiring.
2. Orol dengizi “qozon” i (tubi) qanday yo'l bilan paydo bo'lgan va u birinchi marta qachon suv bilan to'lgan?Yillar klasterini tuzing.
3. Orol dengizi suv sathining pasayishiga sabab bo'lgan omillarni aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. -Navoiy., 2003. - 108 b.
2. Vahobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: TDPU, 2013.
4. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: YAngi asr avlodi, 2006.

Al-Xorazmiy va Beruniyning didaktik g'oyalari

UrDU akademik litseyi o'qituvchilari

Atabayeva M, Shermetova O' ,Qilichev F

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq allomalarining, jumladan Al-Xorazmiy va Beruniy ijodida didaktik g'oyalar, olimlarning ilm-fanning rivojiga qo'shgan hissalarini haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Didaktika, algebra, al-jabr, yer, pedagogika, milliy g'oya, qadriyat, milliylik, sharq allomalari

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umum insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos tomonlar bo'lsa ham, umum insoniy qadriyatlarning bir qismidir. Shu bilan birga, unutmazligimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat binosi uchun birinchi g'aldagi milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi g'aldagi vazifadir. VII—XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlandi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin orta boshladi. XV - XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumi, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga etkazildi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida yirik madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Tarixdan ma'lumki, dastlab Amudaryoning asosiy tarmog'i O'zboy Kaspiy dengiziga quyilgan. Uning o'ng qirg'og'i Turon, chap qirg'og'i Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldin ahmoniylik soq va masog'ut qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqealar soq va massagetlar tomonidan yaratilgan eposlarda o'z ifodasini topgan. Polienning «Harbiy hiylalar» asarida keltirilgan rivoyatlarda Shiroq obrazi vatanparvarlik va qahramonlik timsoli sifatida hal-hanuz yoshlamni tarbiyalab keladi. Yoki Gerodotning «Tarix» kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori To'marisga uylanish bahonasida Eron shohi Kirning Turon o'lkasiga uyushtirgan hujumi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga egadir. Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'zo'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar. ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farqinsonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita tarqalishiga turtki bolgan.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-



uslubiyotchi ohm sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o‘z davrigacha bo‘lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar - Bobil, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o‘rgandi va o‘zi ulardan farq etuvchi yangi kashfiyotlar yaratdi. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. «Al-kitob al-muxtasar fi-hisob aljabr va1 muqobala» asarida («aljabr va muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni echish yo‘llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo‘lim kiritiladi; ikkinchi, geometrik qism - algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi. Induksiya yo‘li bilan umumiy echish usullarini hal etadi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni echadi. «Aljabr va-1 muqobala» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Muhammad al-Xorazmiy o‘sha paytlari amalda uchraydigan barcha chiziqli va kvadrat tenglamalarni jamlab, hozirgi matematik simvol orqali beriladigan quyidagi olti tipga keltirdi: $a x^2 + b$, $x a x^2 + c$, $b x^2 + c$ (1), $x^2 - b x + c$, $c + b x$, $x^* + b x - c$. Mutafakkir ushbu tenglamalarni echish uchun al-jabp va «al-muqobala» («tiklash» va «qiyoslash») amallarini kiritdi. Bu amallarning mohiyati tenglama hadlarining ishorasini o‘zgartirgan holda ularni bir tomondan ikkinchi tomonga o‘tkazish va yig‘ishdan iboratdir. «Al-jabp» keyinchalik matematika fanining alohida bo‘limiga aylandi va «algebra» deb ataladigan boldi. Mazkur amallar yordamida har qanday tenglamani qonunlik shakliga, ya’ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin echiladi. Bu usul fan olamida muhim ahamiyatga ega edi. Shu asar tufayli «Al Xorazmiy» nomi lotincha transkripsiyada «Algoritmi» shaklini oldi, keyin «Algoritmus» va, nihoyat, hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi «algoritm» («algorifm») ga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini ham berdi. Meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish hamda mol taqsim etish uchun zarur bo‘lgan hisoblarni ta’lif etdi. Muhammad al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bolgan qo‘shish, ayirish, bo‘lish hamda ko‘paytirish qoidalarini yaratgan; turli «jins»dagi sonlarni ko‘paytirish algoritmini ham bergan. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko‘paytirish uchun, avvalo, bir xil shaklga keltirish, ya’ni sekund yoki minutga aylantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatgan. 827 -yilda Xorazmiy rahbarligida er kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida er meridianining bir gradusi o‘lchab chiqildi. Bag'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli. Unda sinus, tangenslarning o‘zgarish qonuniyati ko‘rsatiladi.

Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to‘g‘risida ham asarlari bo‘hb, «Tarix kitobi» («Kitob at-tarix») xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va



-1 muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: «Ulardan biri o'zidan avvalgilarga qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va I-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turhcha ishlarda kishilar uchun zarurdir

Qomusiy olim **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy** 362- yil 3-zulhijjada (milodiy 973-yil 4-sentabr) Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi. Boshlang'ich ta'limni olgach, o'sha davrda fanmadaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi. Beruniy Xorazm tili bilan birga, arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon ibroniy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, falsafa, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, filologiyadan ham chuqur bilim oladi. Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Mineralogiya» asarini yaratadi. 1017-1018-yillari yana taxt va hokimiyat uchun kurash boshlanib, Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xurosonda Mahmud G'aznaviy (998-1030) hukmronligi o'rnatilib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud G'aznaviy davlatiga tobe bo'ladi. Ma'mun akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham G'aznaga olib ketiladi va u yerda ijodini davom ettiradi. Beruniy bu yerda «Xorazmning mashhur kishilari», «Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash» asarini yaratdi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlar natijalari ham bayon qilingan. Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushunchalar, ma'lumotlar bergan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga yurishlarining birida Beruniy ham hamroh bo'lib boradi. U sanskritni bilganligi uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu mehnatlari natijasida 1030-yil o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Hindiston» asarini yaratadi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sino kabi inson kamolotida har uchalarini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga etishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi,

deydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm ta'lim va ta'limning yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga ega. Olim axloqlilikning belgilarini sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, ohjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi. Beruniy Sharq Renessansi davri qomusiy olimlaridan bin sifatida nom qozondi. Mashhur sharqshunos olim J. Sarton jahon fani tarixida XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Uni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholadi. Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g'amho'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi. Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E. To'raqulov va S. Rahimov «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etganlar. Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo'lib etishishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar (REFERENCES):

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O‘zbekiston» 1997.
2. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir”. T.: O‘zbekiston, 2007.
3. A.K. Munavvar. Oila pedagogikasi. -T., O‘qituvchi, 1994.
4. U. Mahkamov. Ahloq-odob saboqlari. -T., „Fan”, 1994
5. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
6. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO‘JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
7. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
8. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O‘RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).
9. Do‘Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA XVIXVIII ASRLARDA HINDISTONNI O‘RGANISH. Scientific progress, 1(6).
10. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA URARTU PODSHOLIGINING O‘RNI. Scientific progress, 1(6).
11. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG‘DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).
12. Ro‘Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O‘RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O‘RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
13. Tulaboyev, D., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O‘RGANISHDA MESOPATAMIYANING TARIXI VA DINI: O‘RNI HAMDA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
14. Xaydarov, C.A., (2022). Захриддин Муҳаммад Бобур: бир қўлда мўйқалам-у, бир қўлда тож. Scientific progress, 3(3).

Ta'lim jarayonida o'smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari.

Ismoilova Asilpashsha Rojabovna.

URDU. “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlar psixikasida kechadigan o'zgarishlar, ularning bilish jarayonlari hamda tafakkur tushunchasi, o'smirlilik davrida tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari qay tarzda kechishi va ta'lim jarayonining o'smir tafakkurini shakllanishidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smir, ta'lim, malaka, ko'nikma, intellekt, individ, pedagog, ontogenez, tafakkur, ong, psixika.

Features of the development of thinking of teenagers during the educational process.

Ismailova Asilpashsha Rojabovna.

URDU. Teacher of the "Pedagogy and Psychology" department

Abstract: This article talks about the changes in the psyche of teenagers, their cognitive processes and the concept of thinking, how the specific features of thinking occur during adolescence, and the importance of the educational process in the formation of thinking of teenagers.

Key words: Adolescent, education, qualification, skill, intellect, individual.

Ma'lumki 2020 yil 23 sentyabrda «Ta'lim to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. Uning II bobida ta'lim tizimi va uning turlari aniq ko'rsatib berildi. Unga muvofiq, ta'lim o'z Davlat tili, dasturi va ta'lim muassasalari bilan belgilanib, u yagona va uzluksiz ta'lim tizimidir. «Ta'lim to'g'risidagi Qonun»ga binoan, bolalar yoshligidan boshlab to ishlab chiqarish jarayonida xam ta'lim olish xuquqiga xaqlidirlar. Umrining oxirigacha xam inson voqelikni tinmay o'rganib boradi¹.

Bu ta'lim tizimi yoshlarga bilim, ko'nikma va malaka berish bilan kifoyalanmay, balki ularning komil inson qilib yetishtirish kabi buyuk vazifalarni bajaradi. O'quvchilar o'qib, o'quv fanlarining mazmunini o'zlashtira borib, ob'ektiv olamni bilib boradilar. Ular ilmiy bilimlarning xammasini emas, balki ularning «fan asoslari» deb ataladigan bir qisminigina o'zlashtirib oladilar. Ma'lumki, odam muayyan bilim, ko'nikma, malaka xosil qilish uchun xulq-atvor shakllarini xam o'rganib olishi uchun, ijtimoiy tajribalardan tashkil topgan malakalarning asosiy xajmini egallab olish uchun u o'quv-tarbiya tizimining turli sohalari bilan mashg'ul bo'lmog'i va bu ishlarga jalb etilmog'i kerak.

¹ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. <https://www.tsautb.uz/page/view/83>



Bunday xodisalarda tegishli bir mazmuni o`zlashtirib olish bir-biri bilan aloqador bo`lgan ikki jarayon: ta`lim olish (yoki o`qish) va o`qitish jarayonining natijasi sifatida zikr etiladi. Fan-texnika taraqqiyoti xamda uzluksiz ta`lim olish g`oyasi amalga oshirilayotgan bir sharoitda ta`lim inson sotsial faolligining predmetli faoliyatning sub`ekti xamda ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida o`zini doimiy ravishda kamolga yetkazishga qaratilgan faol sotsial faoliyatning mustaqil shakli sifatidan ko`proq axamiyat kasb eta boradi.

Ta`limda ko`proq so`zlar-tushunchalar shaklida ifodalangan umumlashtirilgan bilimlar o`qituvchi tomonidan bayon etiladi, o`quvchilar tomonidan esa bu bilimlar idrok qilinadi, o`zlashtiriladi, real narsalarni idrok qilish esa (narsalarning o`zi, maketi, rasmi va x.) bunda yordamchi rol o`ynaydi.

O`quvchilar ta`lim jarayonida bilim, ko`nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob`ektiv olam umumlashtirilgan xolda aks ettiriladi. Bilimlarni o`zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o`rganishni nazarda tutadi.

O`quvchining bilimlari to`la bo`lishi, uning bilimlar tizimini egallab olishi juda muhimdir, bu bilimlar tizimida faktik materialni bilish uning mantiqiy jihatdan to`g`ri deb topilgan tuzilishi va umumlashtirilishi bilan qo`shilib ketadi.

O`smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo`la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o`quvchilar atrof-olamdagi bog`lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o`smirning bilishga bo`lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo`ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi o`smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta`sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo`ladi.

Maktabda o`qitiladigan fanlar o`smir uchun o`z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo`lib xizmat qiladi. J.Piajening ta`kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta`siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o`zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o`z-o`zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi ².

11-12 yoshdan boshlab o`smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O`smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o`rgana boshlaydi. O`smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko`tarila olishi, o`quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O`smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o`ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o`z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi.

² Do`stmuhamedova SH.A.,Nishanova Z.T. va boshqalar.Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O`qituvchi”, 2013

O‘smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o‘sha masala doirasida bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o‘tkaza oladilar hamda ma‘lum bir masala bo‘yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O‘smir tafakkuri ko‘pincha umumlashtirishga moyil bo‘ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o‘tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik va boshqa shu kabi sifatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdan oq rivojlantira borish nihoyatda muhim.

O‘smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishini yo‘lga qo‘yishi, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o‘quvchi ijrochi rolida emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo‘l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o‘zi ishtirokchi bo‘lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko‘proq mustaqillikning berilishi o‘smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi³.

O‘smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko‘proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo‘llash orqali amalga oshirish mumkin, o‘smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda echish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog‘liq. Barcha o‘smirlarni ham tez yo‘llab, tez harakat qilishga o‘rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni echishning umumiy qoidalariga o‘rgatib borish mumkin.

O‘smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi qimmatli va obro‘li hisoblanadi. O‘smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o‘zgarishlar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o‘smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o‘zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.

Ta‘lim natijalari to‘grisida gapirilganda, konkret o‘quv vaziyati sharoitida kishi egallab oladigan bilimlar, ko‘nikma va malakalarnigina sanab o‘tish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Bunday xol shu bilan izohlanadiki, bu yerda o‘quv faoliyatining sub‘ekti sifatida muayyan psixik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchining yaxlit bir shaxsi, butun bir tizim maydonga chiqadi.

Ma‘lumki, u yoki bu tizimga xar qanday yo‘l bilan ta‘sir ko‘rsatilishi butun sistemaning xolatida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun o‘quv faoliyati natijasida kishida ilgari mavjud bulgan bilimlarga, tevarak atrofdagi xayotni inikos etish usullariga uning xarakat dasturlariga qo‘shimcha tarzda, ta‘limning boshqa xar

³ G‘oziev E.G`. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 1990.



qanday faktlari vujudga kelganda sodir bo`lgani singari, shaxsning ongida xamda uning psixik xususiyatlari mazmunida xam o`zgarishlar sodir bo`lishiga olib keladi. Ana shu xol individning uzluksiz ta`lim olish jarayonini shaxsning tarkib topishida, uning axloqiy qiyofasi va g`oyaviy e`tiqodi shakllanishida muhim omil deb qarash uchun asos beradi.

Hozirgi vaqtda shu narsa isbot qilinganki, egallab olingan bilimlarning shaxsga qay darajada ta`sir ko`rsatishi o`sha bilimlar qanday o`zlashtirib olinganiga bog`liq ekan. Bilimlar turli darajada o`zlashtirib olingan bo`lishi mumkin.

Bu esa: a) xodisa to`g`risida yangi olingan axborotni ilgari mavjud bo`lgan shu xildagi axborotga yaqinlashtirish;

b) ilgari o`zlashtirilgan axborotni qayta tiklashga tayangan xolda voqea–xodisani bayon etish;

v) xodisaning moxiyatini belgilab beradigan eng muxim xususiyatlar, aloqa va munosabatlar o`z aksini topgan tegishli shunga o`xshash xodisaning kishi ongida qayta tiklanadigan obrazi (yoki modeli) dan foydalanilgan xolda sodir bo`layotgan voqealarni izohlab berish;

g) predmet va xodisalarni faoliyat vazifalariga muvofiq ravishda qaytadan o`zgartirib borishni amalga oshirish va buning uchun shu maqsadga ilgari egallangan bilimlarni rivojlantirib borish imkonini beradi. Masalan, materiallarning plastik xususiyatga ega ekanligi xodisasi to`grisidagi bilimlar, dastlabki bosqichda egallab olinganligi tufayli plastik materialni plastik bo`lmagan materialdan farqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda–plastik materiallarning bayonini berish mumkin.

Uchinchi bosqichda – plastiklik sabablarini izoxlash, turtinchi bosqichda – o`sha materialning ichki tuzilishini zarur tarzda o`zgartirish asosida materialning plastikligini oshirishga imkon beradi.

Birinchi bosqichda o`zlashtirib olingan bilimlar tanishtiruvchi bilimlar, ikkinchi bosqichda egallab olingan bilimlar nusxa ko`chiruvchi bilimlar, uchinchi bosqichdagi bilimlar – ko`nikma bilimlari, to`rtinchi bosqichdagi bilimlar – transformatsiya bilimlari deyiladi.

O`zlashtirib olingan bilimlarning funksional imkoniyatlari o`rtasidagi farqlar materialning xususiyatiga qarab, o`quvchining o`quv vaziyatidagi pozitsiyasiga qarab – o`quvchida xayotiy masalalarni bayon etish, izoxlash va ularni o`zgartirish usullari qay darajada shakllanganligiga qarab belgilanadi.

O`quv jarayonida xosil qilingan bilimlardan tashqari o`quvchi shaxsini shakllantirishga o`quv faoliyatining o`zi xam ta`sir ko`rsatadi, chunki bu faoliyatni o`zlashtirish va amalga oshirish xam psixikaning muayyan darajada rivojlangan bo`lishini taqozo etadi. O`quv faoliyati jarayonida o`quvchi o`qituvchi rahbarligida o`quv faoliyatining barcha

komponentlarini egallab oladi. Bu o`quvchining o`quv sub`ekti sifatida qaror topishiga shart-sharoit yaratadi⁴.

O`smir yoshidagi o`quvchilar nazariy tafakkurining shakllanishida o`qituvchining keng qamrovli bilimiga ega bo`lishi katta ahamiyatga ega. Bu o`z navbatida o`quvchilarning fanga qiziqishi ortishini kuchaytiradi, fan bo`yicha to`garak va fakultativ mashg`ulotlarga qatnashish istagini paydo qiladi. Shuningdek, o`quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda, o`qituvchilar, sinf rahbarlarining siymolari muhim rol o`ynaydi.

O`qituvchilar o`smirlarda o`rganilayotgan narsa va xodisalarning ob`ektivligi, xaqqoniyligi, to`g`riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o`rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o`qituvchilari o`z o`quvchilarini narsa va xodisalar to`g`rsida original fikr yuritishga yo`llashlari kerak. Uchinchidan, o`quvchilarning mashg`ulotlarda qo`llanaverib, ma`naviy eskirgan bir qolipdagi so`zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo`l qo`ymasliklari kerak. To`rtinchidan, fan o`qituvchilari o`smir yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishni o`rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

O`smir yoshidagi o`quvchilarning o`quv rejasida ko`zda tutilgan o`quv fanlariga tanlab munosabatda bo`lish xususiyatlari ularning kelgusi hayot yo`llarini qay darajada aniq tanlab olgan bo`lishlariga bog`liq, ya`ni kasb-hunar kollejidan keyin qaysi yo`nalish bo`yicha, ta`limning qaysi shaklida davom ettirish yoki ishlab chiqarishning qaysi soxasida ishlashni afzal ko`rishlari bilan belgilanadi.

Aql tanqidiyligi o`smir umumiy rivojiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. O`rganilayotgan xodisa to`g`risida xukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O`smir tafakkuri sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi.

O`smir qobiliyati, layoqati va iste`dodi ta`lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik iste`dodli ekanligini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilishi, psixik tayyorgarligi, mantiqiy fikrashning tezligi, izchilligi, samaradorligiga e`tibor berish kerak.

O`smir biror xodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan qaray boshlaydilar. Darsliklarni o`qigan va o`qituvchilardan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma`lumotlarga ishonish va ulardan qanoat hosil qilish uchun faol harakat qiladilar. Tafakkurni oqilona yullar bilan o`stirish uchun favqulodda holatlarda o`quvchining mazkur xususiyatini yomonlamay, balki uning kichik bo`lsada yutug`ini rag`batlantirish kerak.

⁴ G`oziev E.G`.Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010.

Hozirgi davrda intellekt omili ta'lim jarayonining muhim omiliga aylanib borayotganligi o'qishga munosabatning ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlashni taqozo qilmoqda. Kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi omil - bu o'qimishli, savodxon, iqtidorli, aqlan barkamol yoshlarni shakllantirishdir. O'quvchi yoshlarning o'qishga munosabati ularning qiziqishlarida, motiv va motivatsiyalarida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ana shu boisdan o'quv motivlari va motivatsiyalarini tadqiqot qilish bo'lganligi uchun dolzarb muammoga aylanib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimini yuksak darajaga ko'tarish uchun o'quvchilarda anglanilgan, yuqori ko'rsatkichli, indikator xususiyatli o'quv motivini shakllantirish davr talabidir. Zero, faoliyat va xulq-atvor motivsiz, motivatsiyasiz faollikka, muayyan yo'nalishga, o'ziga xos mahsuldorlikka, muvaffaqiyatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun turli yoshdagi saboq oluvchilarni motiv, motivatsiya mohiyati bilan tanishtirish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zaruriy sharti hisoblanadi.. Bizningcha, o'quv faoliyatining faolligi, ijodiyligi, nostandartligi, samaradorligi, bilimlarning puxtaligi, mantiqiyliqi, izchilligi o'smirlarning motiv va motivatsiya bilan qurollanganligiga bog'liq, ular qanchalik anglanilgan, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, mazkur faoliyat shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi, ularni tatbiq etish osonroq kechadi. Shaxsning faoliyati, xatti-harakati, xulq-atvori muvaffaqiyati ko'p jihatdan yo'naltirilganligiga bog'liq. O'quv faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlash uchun psixotreninglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni.Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. <https://www.tsautb.uz/page/view/83>
2. Do'stmuhamedova SH.A.,Nishanova Z.T. va boshqalar.Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O'qituvchi”, 2013. - 343 b.
3. G'oziev E.G`. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 1990.- 184 b
4. G'oziev E.G`. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2010. – 544 b.
5. G'oziev E.G`.Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010.

“Sog‘lom turmush tarzi” – salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha holatlar asosi oiladir

Sherjanova N- UrDU,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.

Annatsiya: Ushbu maqolada “Sog‘lom turmush tarzi” – salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha holatlar asosi oiladan boshlanadi.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy an’analar, oila sha’ni, nosog‘lom, sog‘lom turmush tarzi, kichik ijtimoiy guruh.

Kirish. Sog‘lom turmush tarzi deganda nafaqat jismoniy va ruhiy, balki axloqiy salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan faoliyat tushiniladi.

Ota-onalar sog‘lom turmush tarzining asosiy elementlariga ya’ni salomatlikning asosiy omili sifatida to‘g‘ri ovqatlanish, savodli gigiyenik xulq-atvor, harakat faolligi, hayotiy faoliyat barcha jabhalarining yaxshilanishiga yordam berishni har kunlik hayotga kiribib borishlari zarur.

Oila – kichik ijtimoiy guruh bo‘lib, umr yo‘ldoshlik va qarindoshlik aloqalari, ya’ni birga yashovchi va birga xo‘jalik yurituvchi er va xotin, ota-onalar va bolalar munosabatlariga asoslangan shaxsiy turmushni tashkil qilishning muhim shakli hisoblanadi[1].

Oila jamiyatning muhim qadriyatlaridan sanaladi.

Masalan, bola uchun oila – bu bolaning jismoniy, ma’naviy, aqliy rivojlanishiga sharoit yaratib beruvchi maskan.

Katta yoshli insonlar uchun esa oila – o‘zining turli ehtiyojlarini qondiruvchi kichik jamoa.

Oila va oilaviy an’analar tushunchalari uzviy bog‘liq va ajralmasdir. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan oilaviy an’analar shaxs shakllanishida alohida ahamiyatga egadir. Oilaviy an’analar, bayramlar tarbiyaning asosiy usullaridan biri bo‘lib, sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, oilada axloqiy muhitni mustahkamlashda muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘zbek oilalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ota-bobolarining udum va an’analariga sodiqligidir. Bu an’analar bolaga buvi-bobolari, qarindoshlari bilan aloqani doimo his qilishlari va buning asosida yangi avlod an’analarini shakllantirishga yordam beradi.

Oilaviy an’analar bolani oila a’zosi sifatida tenglashtirishi, oilaning jipslashishiga, bolaning o‘ziga bo‘lgan bahosini oshirishga imkon berib va aynan shunday muhitda bola o‘zining kechinmalari va yangi taassurotlarini bemalol oila a’zolari bilan o‘rtoqlasha oladi. munosabatlarda ham o‘z aksini topadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog'inov. N.A va boshqa yetuk professor olimlarimiz oila prinsiplariga katta e'tibor beradilar.

O'zbek oilalarining asosiy prinsiplari — bu oilaning muqaddasligi, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi, o'zaro hurmat va kelishuv, oila sha'ni va obro'sini himoya qilishdir. An'analar o'zbek xalqining milliy madaniyati va turmush tarzining ajralmas qismidir va qadriyatlar hamda ko'rsatmalar tizimida yuqori o'ringa ega.

O'zbek oilalarida ota-onalarga yuksak hurmat va e'tibor ko'rsatiladi. Oilaning katta o'g'illari ota-ona, uka-singillariga doimo yordam berib keladi. Ko'pchiligimiz tinlik-xotirjamlik, o'zaro hurmat va kelishuv, hamfikrlik, hamjihatlik, ma'naviy yaqinlik kabi qadriyatlar mujassam bo'lgan oilani baxtli va ahil deyishimiz mumkin.

Afsuski oxirgi paytlarda milliy qadriyatlarimizning buzilish holatlari ro'y bermoqda. Oila a'zolarining ayrimlari tomonidan ichkilikka ruju qo'yish, turli moddalarni iste'mol qilish, kompyuterga tobelik, oilaviy janjallar hayotimizga kirib kelmoqda. Bu esa yosh avlodning tarbiyasiga, uning sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Sog'lom va tinch-farovon oilada ota-onalar farzandlarini bo'sh vaqtini tashkil etishga katta ahamiyat beradilar. Ota-onalar shuni tushunishlari kerakki, oilaning yashash va turmush tarzi, oila a'zolar o'rtasida majburiyatlarning to'g'ri taqsimlanishi, mehnat va dam olishni rejalashtirish muhim hisoblanadi[3].

Bundan farqli ravishda nosog'lom oilalarda esa sog'lom turmush tarzi va bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etishga umuman ahamiyat berilmay, buning natijasida esa bolalar va o'smirlarda xulq buzilishlar va xarakterdagi patologik xususiyatlar yuzaga keladi.

Xulosa. Ota-onalarning bolalarga yetarlicha e'tibor va g'amho'rlik ko'rsatmasliklari, ularning bo'sh vaqtlarini o'tkazishlariga ahamiyat bermasliklari, sog'lom turmush tarzi, o'z sog'lig'iga e'tibor berish, shaxsiy gigiyena qoidalari, bolalarning balog'at yoshidagi o'zgarishlar, jinsiy tarbiya borasida farzandlari bilan do'stona suhbatlar o'tkaziga, ularga maslahatlar berishga kam e'tibor berilmoqda. Natijada turli kasalliklar, ruhiy buzilishlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida erta tug'ruq holatlari yuzaga kelmoqda.

Oilada do'stona munosabatlarning bo'lmasligi, munosabatlarning buzilishi bolalarni ota-onalardan uzoqlashtiradi, ular o'rtasida turli kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi, ota-onalarning bolaning ta'lim olishi, bo'sh vaqtini o'tkazishiga befarq munosabatda bo'lishini keltirib chiqaradi.

Demak, sog'lom turmush tarzi biz an'alarimiz, qadriyatlarimiz darajasiga kiritishimiz kerak. Chunki bu tushunchaga insonlar faoliyatining barcha ijobiy tomonlari mehnatdan qoniqqanlik, faol hayotiy munosabat, maishiy hayotning yo'lga qo'yilganligi, zararli odatlarning yo'qligi, yuksak tibbiy faollik, salomatlikka nisbatan tavakkal qilgan

holda munosabat omillarining yo‘q qilinishi va uning mustahkamligi uchun sog‘lom muhitning yaratilishi kabilar kiradi.

Zararli odatlardan va halokatga olib boruvchi istaklardan voz kechish (ichkilikbozlik, narkomaniya, chekish va h.), tibbiy savodxonlikni oilaga kiritib borishimiz lozim.

Salomatlik uchun xavfli bo‘lgan omillardan kam harakatli turmush tarzi, norasional ovqatlanish, mehnatdan qoniqmaslik, zararli odatlar va narkotik moddalarni iste‘mol qilish, nosog‘lom turmush, neyroyemosional va ruhiy zo‘riqish, past madaniy darajadan keling birgalikda voz kechaylik!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар шаклланиши // Докторлик диссертацияси. Т.: 1994. 215-223 б.
2. Шамсиев Ў. Оила-бола онгининг кўзгуси // Оила: ижтимоий ҳимоя омиллари. Илмий-оммапоб мақолалар тўплами. (Профессор В.М.Каримова таҳрир остида) – Т., 2007 йил - 118б
3. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun qo‘l./ G.B.Shoumarovning tahriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-mahsus ta‘lim vazirligi, o‘rta-mahsus, kasb-hunar ta‘lim markazi. - Т.: «Sharq», 2010. – 296 б.
4. Абдусатторова О.А. Оила муҳитида ўсмирларда шаклланадиган жинсий идентификациянинг гендер хусусиятлари. Психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:, 2007
5. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: “Маънавият”, 1998.-160б.

“Bola va oila salomatligi” sog‘lom turmush tarzi garovi sifatida.

**Sherjanova N- UrDU,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.**

Annatsiya: Ushbu maqolada “Bola va oila salomatligi” sog‘lom turmush tarzi garovi sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy an‘analar, oila sha‘ni, nosog‘lom, sog‘lom turmush tarzi, kichik ijtimoiy guruh.

Kirish. Biz bugundan e‘tiboran aynan sog‘lik, salomatlik, sog‘lom turmush tarziga rioya qilib yashash qoidalarini o‘rganib boramiz. Chunki salomatlikni hech qachon moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Inson sog‘lom yurgandagina baxtli yashashi mumkin. Har bir kishi kundalik hayot me‘yorini saqlay bilishi kerak.

O‘qiganda, uxlaganda, yurganda, chopganda, ovqatlanganda, dam olganda, kulganda, yo‘talganda ham shunday bir chegara, me‘yor borki, shu me‘yorning buzilishi, albatta, salomatlikka zarar yetkazadi.

Salomatlikni mustahkamlash sirlarini chuqur bilish va salomatlikni asrashning yagona yo‘li - sog‘lom turmush tarzi ekanligini chuqur anglab yetishimiz lozim[1]. Turmush tarzi - bu kundalik hayot tartibidir. Uni belgilovchi bosh omil insonning o‘zidir. Sog‘lom turmush tarzi - bu insonning hayoti salomatligi xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi ko‘nikmalarga ega bo‘lish asosida hayot faoliyatini yo‘lga qo‘yilishidan iborat. Bu shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi zararli omillar bo‘lmasligi kerak. Sog‘lom bo‘lganimizda, sog‘lom fikrlaganimizda maqsadimizga erishamiz, shu sababli o‘zimizning va farzandlarimizning kelajagi o‘z qo‘limizdadir!

Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkiloti ustavida sog‘liq “to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barqarorlik” holati sifatida talqin qilinadi, ya‘ni kasalliklar va nuqsonlarning yo‘qligi” degan tushunchadan birmuncha kengroqdir.

Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining xulosalariga ko‘ra sog‘lom bo‘lish bir qancha omillarga bog‘liq, bular:

1. Yashash tarzi va sharoitlari – 50%
2. Genetika va nasl – 20%
3. Tashqi omillar, tabiiy sharoitlar – 20 %
4. Sog‘liqni saqlash tizimi – 10 %

Demak, sog‘lom bo‘lishimizning eng katta foizi o‘zimizga, hayot tarzimizga, ya‘ni sog‘lom turmush tarziga bog‘liq ekan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Karimova V, Shoumarov G.B va boshqa yetuk professor olimlarimiz sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillarini tasniflaganlar

- O‘z salomatligini mustahkamlashni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishi;
- O‘z tanasini imkoniyatlarini avaylab asrashi, uzoq umr ko‘rishni niyat qilishi va shunga intilishi;
- Sog‘lom ovqatlanish talablariga amal qilishi;
- O‘z organizmining jismoniy holatini a‘lo darajada saqlab turishga erishishi;
- Har kuni o‘z salomatligi tetik bo‘lishi uchun ruhan bardam bo‘lish choralari ko‘rish;
- O‘z salomatligi haqida doimo qayg‘urishi va uni davlatning yoki shifokorlarning vazifasi sifatida qaramasligi, o‘z salomatligi, eng avvalo, o‘zining qo‘lida ekanligini anglab olishi va shunga yarasha harakat qilishi lozim;
- Salomatlik uchun zararli bo‘lgan mahsulotlarni iste‘mol qilmaslik (alkogol, tamaki, narkotik);
- Hayotning turli jabhalarida yuzaga keluvchi stress vaziyatlarga bardoshli bo‘lish;
- Inson salomatligi uning baxtli va farovon turmush kechirishi uchun asosiy zamin bo‘lib xizmat qilishini esdan chiqarmasligi kerak[2].

Sog‘lom turmush tarzi deganda nafaqat jismoniy va ruhiy, balki axloqiy salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan faoliyat tushiniladi.

Mazkur faoliyat hayotiy faoliyatning barcha asosiy shakllari asosida amalga oshiriladi: mehnat, ijtimoiy, oilaviy-maishiy, dam olish.

Demak, Sog‘lom turmush tarzi tushunchasiga insonlar faoliyatining barcha ijobiy tomonlari kiradi: Ya’ni

- mehnatdan qoniqqanlik,
- faol hayotiy munosabat,
- maishiy hayotning yo‘lga qo‘yilganligi,
- zararli odatlarning yo‘qligi,
- yuksak tibbiy faollik,
- salomatlikka nisbatan tavakkal qilgan holda munosabat omillarining yo‘q qilinishi va uning mustahkamligi uchun sog‘lom muhitning yaratilishi.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- Shaxsiy va jamoa gigiyenasi qoidalariga amal qilish;
- Jismoniy faollik;
- Kun tartibiga rioya qilish;
- Zararli odatlardan tiyilish;
- Sog‘lom ovqatlanish;
- Mehnat qilish va dam olish;
- Muomala madaniyati;

- Ruhiy xotirjamlik;
- Tibbiy madaniyatlik;
- Jinsiy tarbiya[3].

Xulosa. Kelajakda sog‘lom farzandlar tug‘ilishini ta‘minlash uchun oilaviy turmush qurishga shaylanayotgan yigit va qizlar tibbiy nuqtai nazardan kishi organizmining yetilish davri, nikoh gigiyenasi va jinsiy hayot hamda sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlardan xabardor bo‘lishlari lozim.

Mana biz sizlar bilan sog‘lom turmush tarzi, salomatligimizning naqadar muhimligini oz bo‘lsada bilib oldik. Demak kelajakda farzandlarimizning buyuk maqsadlariga erishishi uchun avvalambor sog‘lom turmush tarziga rioya qilib, uni kundalik hayotga kiritib borish ko‘nikmalarini shakllantirib borish aynan sizning qo‘lingizda ekan. Uni qo‘ldan boy bermaylik!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова В.М. Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар шаклланиши // Докторлик диссертацияси. Т.: 1994. 215-223 б.
2. Шамсиев Ў. Оила-бола онгининг кўзгуси // Оила: ижтимоий ҳимоя омиллари. Илмий-оммапоб мақолалар тўплами. (Профессор В.М.Каримова таҳрир остида) – Т., 2007 йил - 118б
3. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun qo‘l./ G.B.Shoumarovning tahriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-mahsus ta‘lim vazirligi, o‘rta-mahsus, kasb-hunar ta‘lim markazi. - Т.: «Sharq», 2010. – 296 б.
4. Абдусатторова О.А. Оила муҳитида ўсмирларда шаклланидиган жинсий идентификациянинг гендер хусусиятлари. Психология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:, 2007
5. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: “Маънавият”, 1998.-160б.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida kasb - hunar to'g'risida.

UrDu, Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchilari:
Sabirova K, Bekchanova K

Annatsiya: Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz kasb - hunar to'g'risidagi qimmatli fikrlar mazmuni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy shakllanish, kasbiy maslahat, muhim kasbiy sifatlar, kasb tanlash, shaxs, kasbiy saralash, kasbiy moslashish.

Kirish. Kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlanib kelingan. Bizning davlatimizda ularga nisbatan hurmat-ehtiromlar o'zligimizni anglash tufayli yanada jamiyatimizda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali, ma'naviyatli, mohir kasb egalari tobora ko'proq talab qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati Qaror va Nizomlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda va ular haqida alohida g'amho'rlik qilinmoqda. SHu bilan birga, tor sohadagi kasbdan asta-sekin keng qamrovli universal kasbga o'tish muammosi, g'oyasi ilgari surilmoqda. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash, uzluksiz ta'limning faol metodlarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etish, ta'lim va tarbiya birligi tamoyilini sobitqadamlik bilan amalga oshirish lozim.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Qadimiy an'analarimizga binoan hunarmand va kasb, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va nonvoy ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono halqimiz «Ustozidan o'zmagan shogird - shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo'lmas», «Ustoz otadek ulug'», «Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma» singari maqollarni ijod etganlar va farzandalarining barkamol bo'lib ulg'ayishini orzu qilganlar.

Mavzuga oid tahlil. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb- hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, bolaning fe'l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda



murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tanjazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga etkazish ma‘qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob- axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi[1].

Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufay oilani ta‘minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e‘tibor berish kerakligini ta‘kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshagan insonlar kamdan- kam bo‘ladi.

Hozirgi davrda ham allomaning falsafiy - psixologik qarashlari, ijtimoiy hayotimizda o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Uning tarbiya va mijoz xususidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. Olimning falsafa, mantiq, psixologiya, siyosiy - ijtimoiy fanlar bo‘yicha bizga meros qilib qoldirgan asarlari bashariyat uchun dasturilamal sifatida xizmat qiladi. Bu borada

M.G.Davletshin va K.Q.Mamedovlarning «Ibn Sinoning psixologik qarashlari» risolalari diqqatga sazovordir.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga etishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi[2].

Iste‘dodli shoir, etuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining ijodiy faoliyatida o‘g‘il va qizlarning aqliy, hissiy va jismoniy imkoniyatlarini g‘oyat ziyraklik bilan kuzatgan holda, ularning fe‘l-atvorini tezroq bilib olish, salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash, yoqimsiz xatti-harakatlarini bartaraf etish mumkin, degan xulosaga keladi. Ogohiy o‘z davridagi kasb-hunar sohalari, xalq udum va an‘analariga o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U xalq an‘analari hamda urf-odotlari to‘g‘risida izohlar berar ekan, turli kasb ustalarining inson kamolotidagi ahamiyatini birma-bir ta‘riflab beradi.

XII- XVI asrlarda yashab ijod etgin mutafakkir allomalar Jaloliddin Rumi, Abu Rayxon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo‘llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid durga teng bo‘lgan fikrlar talaygina.

XX asrning etuk ma‘rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta‘lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o‘rni ularning o‘zaro hamkorligini ulug‘laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko‘p qirrali bilimlarga ega bo‘lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg‘unligiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi[3].

Xulosa. Sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma‘naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma‘naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb- hunarga o‘rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mulohazalar olsa bo‘ladi. To hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me‘moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san‘ati asarlari (naqqoshlik, ganjkorlik, me‘morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o‘rgatishga, yuksak iste‘dod va qobiliyat sohibi bo‘lishiga oid bebaho materiallar qoldirganliklarini mujassamlashtiradi.

Аннотация: Жисмоний ривожланиш ўсаётган организм саломатлигининг ажралмас кўрсаткичидир. Болаларнинг постнатал ривожланиш даври репродуктив вазифалари ва ижтимоий мақомини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди ва бу давр бўлажак шахснинг жисмоний ва ахлоқий ҳолатини ҳам белгилаб беради. Турли экологик шароитларда болаларнинг жисмоний ривожланишини ўрганиш долзарб муаммо ҳисобланади. Мураккаб морфофункционал белгилар энг аввало умумий кўрсаткичлар нисбатини тавсифлайди, чунки улар бола организмнинг структуравий, механик ва функционал сифатларини белгилайди.

Калит сўзлар: тана узунлиги, тана вазни, кўкрак қафаси айланаси, қорин айланаси.

Аннотация: Физическое развитие – это интегральный показатель здоровья растущего организма. Детский период постнатального развития имеют важную роль в процессе становления репродуктивных функций и социального статуса, а также этот период определяет физическое и нравственное состояние будущего человека. Изучение физического развития детей в различных экологических условиях представляет актуальную проблему. Комплексные морфофункциональные признаки характеризуют в первую очередь соотношение тотальных показателей, так как они обуславливают структурно-механические и функциональные качества организма ребенка.

Ключевые слова: длина тела, масса тела, окружность грудной клетки, окружность живота.

Annotation: Physical development is an integral indicator of the health of a growing organism. The children's period of postnatal development plays an important role in the formation of reproductive functions and social status, and this period also determines the physical and moral state of the future person. The study of the physical development of children in various environmental conditions is an urgent problem. Complex morphofunctional signs characterize primarily the ratio of total indicators, since they determine the structural, mechanical and functional qualities of the child's body.

Keywords: body length, body mass, chest circumference, abdomen.

Введение. Для оценки физического развития ребенка имеют значение масса тела, рост, окружность грудной клетки и головы. Без изучения антропометрических нормативных параметров различных возрастных групп невозможно прогнозировать патологии среди новорожденных и детей. Исследования, проводимые в течение последних лет в различных регионах нашей Республики, а также в наших регионах показали, что подробных работ о физическом развитии детей и новорожденных, в доступной литературе найти нам не удалось. Поэтому одной из наших главных задач явилось измерение антропометрических показателей детей в городе Ургенча.

Цель исследования: Изучить определенную динамику и параметры физического развития детей до трех лет в городе Ургенча. Материалом для исследования служили практически здоровые дети, из родильных домов, воспитанники детских садов г. Ургенча.

Материалы и методы исследования. Всего обследовано 260 детей из них 110 мальчиков и 150 девочек в возрасте от новорожденного периода до 3 лет. Общие антропометрические показатели изучены в следующем порядке: масса тела измерена с помощью медицинских весов, предназначенных для новорожденных и взрослых (кг). Для измерения роста, стоя использован ростомер стандартного типа. При этом тело ребенка находилось свободно, не касаясь вертикальной планки. Проведены измерения длины корпуса или роста, сидя, а также длины туловища. Окружность грудной клетки измеряли с помощью измерительной ленты. Полученные данные подвергали статистической обработке на компьютере Pentium IV с помощью программного пакета Microsoft office Excel 2010, включая использование встроенных функций статистической обработки. Исследования показали, что вес у новорожденных впервые 10 дней в среднем между 3100-3900 г, мальчики весят на 100-145 г больше девочек. Длина роста у новорожденного измерялась от верхушки головы до пятки и составляла в среднем 52 см, варьируя между 47-56 см. Впервые 3-5 дней после рождения происходит физиологическая потеря в весе в размере до 300 г от первоначального веса. Первоначальный вес восстанавливается в течение 10-12 дней после рождения, в это время длина увеличивается на 1,9- 2,1 см.

Результаты и их обсуждение. Показатели роста детей мужского пола от 48,0 см до 54,0 см, в среднем составляла $51 \pm 2,02$ см. Масса тела колебалась от 3,55 кг до 4,6 кг, в среднем была равна $3,95 \pm 0,19$ кг. Окружность груди в паузе находится в пределах от 12,3 до 15,2 см, в среднем – $13,7 \pm 0,68$ см. На высоте вдоха груди колеблется от 13,90 до 15,7 см, в среднем $14,80 \pm 0,70$ см. При полном вдохе – от 12,8 см до 14,4 см, в среднем $13,6 \pm 0,61$ см, поперечный диаметр груди колеблется от 8,0 до 12,3 см, в среднем – $10,30 \pm 0,38$ см. Учитывая активное развитие малыша, рост имеет чрезвычайно важное значение для оценки состояния здоровья и

сбалансированности питания. Считается, что норма — это прибавка к росту около 25см за год.

Заключение.Полученные данные показали, что, рост у детей в возрасте от новорождённого до 3 лет увеличивается 1,80 раза. Нужно отметить, что наибольший темп при ростах и массы тела отмечается от1 года до3 лет. Размеры окружности грудной клетки в паузе с 1 до 3 лет у здоровых лиц мужского пола увеличивается в 1,29 раза больше по сравнению с девочками.

Список литературы

1. Касым-Ходжаев И.К, Юлдашева О.М. Соотношение антропометрических параметров верхней конечности и ее сегментов у детей 3-7 лет// Альманах современной науки и образования.2008.№5.С.74-76.
2. Лаптева Е.А., Любовцев В.Б. Комплексное физиолого-антропометрическое исследование состояния здоровья детей и подростков //Фундаментальные исследования. 2012. № 7-2. С. 362-365.
3. Лукина Г.А., Сажко Н.С. Изменчивость антропометрических параметров у детей 3-6 лет Бюллетень медицинских интернет-конференций. 2014. Т. 4. № 6. С. 945.
4. Лукина С.Ф., Чуб И.С., Репина А.П. Антропометрические особенности морфологического развития детей 8-10 лет с различными вариантами соматической конституции //Вестник новых медицинских технологий. 2012. Т. 19. № 4. С. 195-199.
5. Магомедов А.М., Магомедов Н.А., Лукина Г.А. Половой диморфизм антропометрических показателей у детей 3-6 лет //Бюллетень медицинских интернет-конференций. 2015. Т. 5. № 5. С. 666.
6. Макарова Т.И., Стунеева Г.И. Оценка физического развития детей дошкольного возраста по данным антропометрических исследований //В сборнике: Материалы ежегодной научной конференции университета под общ.ред. проф. В.А.Кирюшина. Рязанский государственный медицинский университет имени академика И.П. Павлова. 2012. С. 256-258.
7. Никитюк Д.Б., Миннибаев Т.Ш., Ключкова С.В., Алексеева Н.Т., Тимошенко К.Т. Роль антропометрического метода в оценке физического развития детей и подростков в норме и патологии //Журнал анатомии и гистопатологии. 2014. Т. 3. № 3. С. 9-14.
8. Gromnatska N.M. Sencitivity of antropometry data in metabolic syndrome diagnosis in children // Семейная медицина. 2014. № 1 (51). С. 150.

9. Sorokman T.V. Anthropometric standards and clinical features of obesity in children // Международный эндокринологический журнал. 2014. № 8 (64). С. 25-28.
10. Hoang NTD, Orellana L, Le TD, Gibson RS, Worsley AF, Sinclair AJ, Szymlek-Gay EA. Anthropometric Status among 6-9-Year-Old School Children in Rural Areas in Hai Phong City, Vietnam. *Nutrients*. 2018 Oct 4;10(10). pii: E1431. doi: 10.3390/nu1010

Manzarali o‘simliklar guruhlanishi

Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Biologiya(turlari bo‘yicha) 3-bosqich
jumayevad34@gmail.com

Annotatsiya; Manzarali o‘simliklar shahar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish, istirohat bog‘lari, ijtimoiy, ishlab chiqarish binolari va turar joylarni bezatish, guldastalar yasash uchun o‘stiriladi. Chiroyi, barglari, gullari, mevalari rangi, tanasining g‘aroyib shakllari (shoxlari osilgan, soyabonsimon, ustunsimon) bilan tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar; bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik, daraxt, buta, yarim buta, manzarali, gul, barg, ildiz, poya, urug‘, harorat, namlik, gullash, sharoit.

Dunyoda 250 000 ga yaqin gulli o‘simliklar turi ma‘lum va yer yuzida ular keng tarqalgan. Gullar morfologik, biologik va xo‘jalik belgilari bo‘yicha keskin farqlanadi. Manzarali o‘simliklarning o‘zi ham o‘z navbatida guruhlarga bo‘linadi:

1. Bir yillik manzarali o‘simliklar.
2. Ikki yillik manzarali o‘simliklar.
3. Ko‘p yillik manzarali o‘simliklar.
4. Yopiq maydon o‘simliklari.
5. Barvaqt yetishtiriladigan o‘simliklar.
6. Daraxt va butalar.

Manzarali bir yillik o‘simliklar

Bir yillik o‘simliklar — barcha hayotiy sikllari bir vegetatsiya davrida, ya‘ni bir yil davomida urug‘idan unib chiqib, o‘sib, gullaydigan, urug‘ beradigan va qurib tamom bo‘ladigan o‘simliklardir. Bu gruppadagi ba‘zi bir gullarning o‘suv davri juda qisqa bo‘lganligi tufayli ularni yoz bo‘yi ochilib turishi uchun bir necha marta ekiladi. Manzarali o‘tsimon o‘simliklarning ushbu gruppasiga mansub bo‘lgan gullarning ko‘pchiligida urug‘idan ko‘payish nisbatan oson. Shunga ko‘ra ular manzarali gulxona hosil qilish uchun juda qo‘l keladi. Vegetatsiya davri uzoq kechadigan bir yillik o‘simliklar bahorgi va kuzgilarga bo‘linadi. Bahorgi bir yillik o‘simliklar bahor va yoz oylarida o‘sib, hayot siklini 1 —5 oyda tugatadi. Kuzgi bir yillik o‘simliklar urug‘lari kuzda darhol unib chiqib, tomir oladi barglari rivojlanadi va shu tarzda qor tagida qishlaydi. Bahorda esa ular rivojlanishini davom ettiradi, gullaydi, urug‘ beradi so‘ng qurib qoladi. Bu guruhga kuzgi javdar, bug‘doy, shuningdek ko‘pchilik begona o‘tlar (jag‘-jag‘, bo‘tako‘z va boshqalar)

kiradi. Bir yillik o‘simliklar o‘zgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan ko‘p yillik o‘simliklarning evolyutsiya jarayonida shakllangan.

Manzarali ikki yillik o‘simliklar

Ikki yillik - manzarali o‘tsimon o‘simliklar gruppasiga ko‘proq ikkinchi yili ochiladigan va urug‘ beradigan o‘simliklar kiritiladi. Chinnigullar (turetskaya), peristaya (pat shaklidagi), grenadin, shuningdek, qo‘ng‘iroq gullar janubiy viloyatlarning qulay sharoitida ikki yildan ortiq umr ko‘rishi mumkin bo‘lsa ham, ko‘p yillik o‘simliklardan hisoblansalar ham xush manzara hosil qilish amaliyotida ulardan ikki yillik o‘simlik sifatida foydalaniladi. Bu guruhdagi barcha manzarali o‘simliklar urug‘dan ko‘paytiriladi. O‘zbekiston sharoitida qishni bemalol o‘tkaza oladi. Erta bahorda ularning o‘sishi tezlashadi, yozda uzoq vaqt ochilib turadi. Lekin qish sovuq kelgan yillarda ularning ba‘zilari nobud bo‘lishi, issiqroq bo‘lganda esa deyarli ko‘karib turishi, hatto ochilishi (kapalakgul, dastargul) mumkin. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ikki yillik manzarali o‘simliklar kapalakgul, bo‘tako‘z, qo‘ng‘iroqgul, dastargul va boshqalardir.

Manzarali ko‘p yillik o‘simliklar

Ko‘p yillik o‘simliklar - ikki yildan ortiq yashay oladigan o‘simliklar guruhidir. Yer shari florasining ko‘pchiligi ko‘p yillik o‘simliklar kiradi. Ko‘p yillik manzarali o‘simliklar gulli manzara hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. O‘simliklarning yer usti qismi har yili qishda nobud bo‘ladi, ildizi yoki ildiz poyasi saqlanib qoladi. Bahorda esa undan yangi poyalar o‘sib chiqadi. Ko‘p yillik o‘simliklar tashqi ko‘rinishi va biologik xususiyatlari bilan juda xilma-xildir. Mo‘tadil iqlimli kengliklarda ko‘p yillik o‘simliklarning ko‘pchilik guruhini o‘tsimon o‘simliklar, tropik zonalarda esa ko‘proq daraxt va butalar tashkil etadi. Ko‘pchilik o‘tsimon ko‘p yillik o‘simliklarning uzoq muddat yashashi ularda poya (ildizpoya, piyozchalar, tunganak piyozchalar) va ildizsimon maxsus (g‘amlaydigan) organlar mavjudligiga bog‘liq. Ko‘p yillik o‘simliklarning yashash muddati keskin farqlanadi va bir necha yildan tortib to 10 va 100 yilgacha, ba‘zan, hatto, 1000-yilgacha cho‘zilishi mumkin. Ayrim ko‘p yillik o‘simliklar yashash joyini o‘zgartirish va inson faoliyati natijasida bir yillik o‘simlikka aylanishi mumkin.

Manzarali daraxt va butalar

Daraxtlar — tanasi yog‘ochlashgan, asosan, bitta yog‘on tanali, baquvvat ildizli va keng shox-shabbali, baland bo‘yli ko‘p yillik o‘simliklardir. Bular guli, mevasi, poyasining eni, bo‘yi, shox-shabbasi va barglari bilan bir-biridan farq qiladi. Daraxtlar bo‘yiga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh - 35 m dan baland bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga chinor, terak, qora qayin, qarag‘ay kabilar kiradi.

Ikkinchi guruh - 25–35 m gacha bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga qayrag‘och, yong‘oq, oq qayin, tol, qatrong‘i kabilar kiradi.

Uchinchi guruh - 25 m gacha bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga zarang, chetan, shumurt kabilar kiradi.

Mevali daraxtlar ham shakliga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh - shoxshabbasi ko‘p, baland bo‘lib o‘sadigan nok, gilos, yong‘oq, olmaning ayrim navlari kiradi;

Ikkinchi guruh - tanasi ko‘rimsiz, ildiz bachkilaridan ham ko‘payadigan, bo‘yi past bo‘lgan shaftoli, olmaning pakana xillari, olcha va olxo‘rining ayrim turlari kiradi;

Uchinchi guruh - birinchi va ikkinchi guruh oralig‘idagi o‘rta bo‘yli daraxtlar olma va o‘rikning ko‘pchilik xillari va navlari, nok, olchanning ayrim turlari kiradi.

Daraxtlarning doim yashil va barglarini har yili kuzda to‘kadigan xillari ham bor. Doim yashil daraxt barglari vaqt-vaqti bilan to‘kilib, o‘rniga yangisi chiqaveradi. Daraxtlar yoshi ularning kesilgan to‘nkasidan yoki o‘sib turgan ildiz bo‘g‘zidan (parmalab olingan o‘zagigacha), yog‘ochligidagi yillik halqalar soniga, shuningdek, daraxtlarning tashqi belgilari (bargining rangi, tanasining shakli, po‘stlog‘ining tusi va tuzilishi)ga qarab aniqlanadi.

Masalan, katta yoshdagi igna bargli daraxtlar bargining rangi ochroq, o‘sishtan to‘xtagan daraxtning shoxshabbasi yumaloq telpak gumbaz shaklida, tanasining pastki qismi yorilgan, qalin, o‘lik po‘stloq to‘qimalari bilan qoplangan, ba‘zan poyasi sirtida yashil, sariq va boshqa tusli buqoqlar paydo bo‘ladi. Yosh daraxtlar tik o‘sadi, shoxshabbasi cho‘ziq konussimon, po‘stlog‘i silliq, yaltiroq, igna bargli daraxtlar bargi sersuv, to‘q yashil. Daraxtlarni o‘g‘itlash yoki hosil berishini to‘xtatish bilan hayotini uzaytirish mumkin. Shaftoli daraxti 15—20, saksovul 50—60, terak 70—80, tok 100, tol 300, xandon pista 350, tut va yong‘oq 400, qarag‘ay, shumtol, zarang 700—1000, chinor 1000, eman 2000, shamshod 3000, mamont daraxti 6000-yil yashaydi. Daraxt insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, daraxtlar karbonat angidrid (CO₂) yutib kislorod chiqaradi, insonlar esa kislorod yutib karbonat angidrid chiqaradi. Mana shu tariqa tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shakllanadi.

Buta — poyasi yog‘ochlashgan, bo‘yi 2-3 m dan oshmaydigan bitta yoki bir nechta poya hosil qiladigan sershox ko‘p yillik o‘simlik. Butalar bir-biriga teng tana (poya) larning o‘sib chiqishi hamda past bo‘lishi bilan boshqa daraxtlardan farq qiladi. Bo‘yi yarim m dan past bo‘lgan, shoxlari yog‘ochlangan kalta o‘simliklar butacha deb ataladi. Butalarga ayniqsa, tog‘lar yonbag‘rida keng tarqalgan irg‘ay, singirtak, na‘matak, zirk, bodomcha, uchqat, madaniy o‘simliklardan anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kabi o‘simliklarni misol qilib keltirish mumkin.

Yarim butalar — ko‘p yillik yarim yog‘ochli-yarim o‘tsimon o‘simlik, buta va butalardan farqli o‘laroq, faqat kurtaklarning pastki qismi qotib qoladi va ko‘p yillar davomida qishda saqlanadi, yuqori qismi esa sovuq boshlanishi bilan o‘ladi, issiqlik boshlanishi bilan qayta o‘sadi. Yarim butalar odatda 80 sm dan yuqori emas, kamdan-kam

hollarda ular 150-200 smga yetadi. Yarim butalarga cho‘llarda keng tarqalgan yem-xashak o‘simliklardan izen, keyreuk, teresken, sarsazan, va shuvoq kabilar kiradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

- 1.E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeveva “Manzarali daraxtlarni ko‘paytirish” Toshkent 2020
2. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoiri Rafiqova Botanika asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009
3. O‘. Prator, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkent 2010.
4. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev “Dendrologiya” Toshkent-2012.



Tabiiy resurslarga, yer va atmosfera havosiga nisbatan mulk huquqi.

Jo‘raqulova Hilola O‘ktam qizi

Toshkent davlat yuridik universitetining magistr bosqichi talabasi

hilolajoraqulova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yer va suv va boshqa tabiiy resurslar haqida, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi, foydalanish va tassaruf qilish huquqi, mulk huquqiga yektazilgan zarar va umumiy tabiiy resurslar haqidagi tushunchalardan iborat.

Аннотация.

В данной статье содержатся понятия о земельных, водных и других природных ресурсах, правах собственности, правах пользования и эксплуатации природных ресурсов, ущербе прав собственности, общих природных ресурсах.

Annotation

This article contains concepts about land and water and other natural resources, property rights, rights to use and exploitation of natural resources, damage to property rights, and common natural resources.

Tabiiy resurslar oziq-ovqat, yoqilg‘i va xom ashyo ishlab chiqarish uchun ishlatiladi, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish uchun materiallar. Barcha insonlar ovqat sifatida o‘simliklar yoki hayvonlardan taomlanish uchun foydalanishadi. Tabiiy ko‘mir, tabiiy gaz va neft kabi resurslar bilan ta‘minlaydi, issiqlik, yorug‘lik va quvvat bilan ta‘minlaydi. Tabiiy resurslar ham har kuni foydalanadigan mahsulotlarni tayyorlash uchun xom ashyodir, tish cho‘tkasi va tushlik qutilari, kiyimlarimiz, mashinalarimiz, televizorlar, kompyuterlar va muzlatgichlar tayyorlash uchun maanba bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiiy resurslar uch toifaga bo‘linadi:

- doimiy qayta tiklanadigan manbalar;
- oraliq qayta tiklanadigan manbalar
- qayta tiklanmaydigan manbalar.

Bundan tashqari, biz qayta tiklanadigan resurslarni doimiy va oraliq toifalarga ajratishimiz mumkin.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish

hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi deb Vazirlar Mahkamasining vakolati sifatida belgilangan.¹

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda ekologiya sohasiga oid bir qancha yangiliklar kiritilgan.

Konstitutsiyaga asosan insonlarning ekologik huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida mamlakatimizda zarur taktik va stragegik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Mustaqillik yillarida ekologik muammolarning hal etilishi fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning ekologik-huquqiy bilimi, ongi, ma'naviyati va madaniyatini zamon talabi darajasida rivojlantirish va shakllantirib borib zamon talabi hisoblanadi.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi , yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, havo habzasiga nisbatan mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, “O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi yer kodeksida va tabiiy resurslar to'g'risidagi boshqa qonunlarda belgilangan.

Mulk huquqi muhokama qilinayotgan tabiiy resurslarga nisbatan ularni kimga tegishligini va mulkdorlarning tabiiy nisbatan vakolatlarini anglatadi. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi Tabiiy resurslarga nisbatan mulky huquq obyektgariga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namayon bo'ladi. Tabiiy resurslarga yer, yer osti boyliklari, suv, o' simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Ekologiya huquqi obyekt bo'lib, faqat tabiiy obyektlar hisoblanganligi sababli ekologik qonun hujjatlari bilan faqat tabiiy holatdagi obyektlarga mulkchilik munosabatlari tartibga solinadi.

Yer, yer osti boyliklari, suv, o' simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir deb belgilab qo'yilgan, bundan tashqari, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ,Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan.



Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksining 28-moddalarida shunday deyiladi: “O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. O'z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to'laydilar, yer uchun haq har yili to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida Yer kodeksi va boshqa tabiiy resurtlarga nisbatan mulkchilik asosan davlatga tegishlidir, O'zbekiston Respublikasida yashayotgan shaxslar Qonun doirasida va foydalanish va egalik qilish huquqigina mavjud bo'ladi, hozirda yerga nisbatan xususiy mulkchilik mavjud.

O'zbekiston Respublikasining “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonun asosida 3ta tartib ishlab chiqildi:

- 1. Jismoniy va yuridik shaxslarning o'zlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish tartibi;*
- 2. tadbirkorlik faoliyati uchun yer uchastkalarini auksionga qo'yish;*
- 3. yakka tartibdagi uy-joylarning yer uchastkalarini mulk huquqi asosida sotib olish.*

Fuqarolarimizda yakka tartibdagi uy-joy, yuridik shaxslarda esa noturar bino-inshootlar mavjud. Ular o'zlariga tegishli ko'chmas mulkning yer uchastkasini kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish orqali xususiylashtirib olishi mumkin bo'ladi (agar bino kadastrdan o'tmagan bo'lsa, yerni xususiylashtirish mumkin bo'lmaydi).

Ozon (qadimgi yunon tilidan ὄζω – hidli) – bu O₃ triatomik molekularidan tashkil topgan kislorodning allotropik modifikatsiyasi. Oddiy sharoitlarda u ko'k zaharli gazdir. O'tkir hidga ega. Suyultirilganda u indigo suyuqligiga aylanadi. Qattiq shaklda u quyuc ko'k, kulrang, deyarli qora kristallardir.

Ozon qatlami; U atmosferada ikkita alohida qatlamda mavjud. Ozonning har xil nisbati er sathidan taxminan 50 kilometr balandlikda joylashgan, yani stratosfera qatlamida va erdan 15 kilometr balandlikdagi troposfera qatlamida uchraydi. Troposfera ozon qatlami parnik gazi ga 7 foiz hissa qo'shganligi sababli, u “zararli ozon” deb ham ataladi.

Stratosferadagi ozon atmosferadagi ozonning 90 foizini tashkil qiladi. Quyoshning zararli ta'sirini o'ziga singdiradigan “ozon qatlami” stratosfera qatlamidagi ozondir.

Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Atmosfera havosi ham tabiiy resustlar tartibining bir qismi hisolanadi va sohaga nisbatan mulkchilik ham davlat tasarrufida bo‘ladi, O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi” Qonunida Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar deb belgilab qo‘yilgan.²

O‘zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon Ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (1985-yil) (keyingi o‘rinlarda — Vena konvensiyasi) va Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo‘yicha Monreal protokoli (1987-yil) (keyingi o‘rinlarda — Monreal protokoli) tomoni hisoblanadi. So‘nggi vaqtlarda Monreal protokoliga kiritilgan beshta tuzatishlardan O‘zbekiston to‘rttasiga (London, 1990-yil), (Kopengagen, 1992-yil), (Monreal, 1997-yil), (Pekin, 1999-yil) qo‘shilgan va ushbu xalqaro shartnomalar asosida ozon qatlamini yemiruvchi moddalar iste‘moli talablarini to‘liq bajarib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Monreal protokoli va unga kiritilgan 5 o‘zgartirish-tuzatishdan to‘rttasiga amal qilib qilmoqda va bu bo‘yicha milliy dastur tashkil qilingan bo‘lib, **“Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to‘xtatish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorda** buning mexanizmini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ,Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan
2. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to‘xtatish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi” Qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun.

² O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi” Qonuni

Sinalgan Rizamat uzum navlarini parvarishidagi agrotexnologik tadbirlar

E.I. Samandarov, dots., Urganch davlat universiteti, Urganch
M.Q. Karimova, 2-kurs magistr, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Maqolada Rizamat uzum navini Xorazm vohasi o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida yetishtirishda agrotexnologik tadbirlar tasvirlangan.*

Kalit so'zlar: *uzum, sug'orish tizimi, mineral o'g'itlar sarfi, kalta tayoqchalar.*

Annotatsiya. *V stat'ye opisivaetsya agrotexnologiy virashivanie sorta vinograda Rizamat v usloviyax allyuvial'nix pochv lugov Xorezmskogo oazisa.*

Ключевые слова: *vinograd, sistema poliva, rasxod mineral'nix udobreniy, korotkie palochki.*

Annotation. *The article Rizamat from uzum is a novelty of Khorezm oasis of alluvial tupraklar the conditions of the inauguration are depicted.*

Keywords: *grapes, irrigation system, consumption of mineral fertilizers, short sticks, making a hammock.*

Olib borilgan tajribamizda agrotexnologik tadbirlar sinalgan Rizamat uzum navlarida, hosilni yig'ib olgandan keyin sentabr oyidan boshlandi. Begona o'tlardan tozalash ishlari sentabr oyida o'tkazildi, kasallik va hasharotlarga qarshi kimyoviy ishlov berish (Fosetal 10 l suvga 40 gr entolucho 20 gr.) oktabr oyida o'tkazildi, birinchi o'g'itlash ishlari qator oralarini haydashdan oldin solinishi kerak bo'lgan mineral o'g'it me'yorni har bir gektar hisobiga fosforni 50%, kaliyni 33% 25 oktabrda amalga oshirildi, qator oralarini haydash 25 oktabrda amalga oshirildi, uzumlarni shoxlarini qisqartirib qirqish va tuproq bilan ko'mish 5 noyabrda amalga oshirildi va shuningdek ko'chat xatolarini to'ldirish 7 noyabrda, simbog'ozlardagi ustunlarni to'g'irlash va simlarni tarang qilib tortish dekabr, yanvar, fevral oylarida, ko'milgan toklarni ochish mart oyida, uzumlar kurtak yozmasdan oldin entoxlorok 85% fungisid (4 kg/ga), dalate 10 % (0.6 l/ga) qo'llash martda, uzumlarni qirqish va simlarga bog'lash martda, ikkinchi o'g'itlash ishlari solinishi kerak bo'lgan mineral o'g'it me'yorni har bir gektar hisobiga azotni 66 % 30 martda, birinchi marotaba sug'orish 30 martda, toklarni tagini chopiq qilish aprelda, uzum kasallik va zararkunadalariga qarshi kurashish. Krizoksin (0.3 l/ga) kanalarga qarshi entomektin (0.4 l/ga) aprelda, kasalliklarga qarshi 15 kundan keyin entopaz (0.25 l/ga) aprelda, uchinchi o'g'itlash ishlari solinishi kerak bo'lgan mineral o'g'itlar me'yorini har bir gektar hisobiga azotni 33 % fosforni 33%, kaliyni 33% 20 aprelda, ikkinchi marotaba sug'orish 20 aprelda,



begona o‘tlarni chopish aprel oyida, uzumni birinchi xomtak qilish aprel oyi oxirida, uzumni kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Entolikur (0.5 l/ga), entosplan (0.6l/ga), silver (0.12 l/ga) may oyi boshida, 15 kundan keyin kimyoviy ishlov berish takrorlanadi Acrobat (2 kg/ga), BI 58 (1 l/ga) aprelda amalga oshirilgan. (3.2.1 jadval)

3.2.1- jadval

Sinalgan uzum navlarini parvarishidagi olib borilgan agrotexnologik tadbirlar

№	Agrotexnik tadbirlar	Rizamat (oylar)	Husayne beliy (oylar)	Nilufar (oylar)
1	Begona o‘tlardan tozalash	sentabr	Sentabr	sentabr
2	Kasallik va hasharotlarga kimyoviy ishlov berish (Fosetal 10 l suvga 40 gr entolucho 20 gr.)	oktyabr	Oktabr	oktyabr
3	O‘g‘itlash. Solinishi kerak bo‘lgan mineral o‘g‘it me’yorni har bir gektar hisobiga fosforni 50%, kaliyni 33% (Qator oralarini haydashdan oldin)	25 oktyabr	25 oktyabr	25 oktyabr
4	Qator oralarini haydash	25 oktyabr	25 oktyabr	25 oktyabr
5	Uzumlarni shoxlarini qisqartirib qirqish va tuproq bilan ko‘mish.	5 noyabr	5 noyabr	5 noyabr
6	Ko‘chat xatolarini to‘ldirish.	7 noyabr	7 noyabr	7 noyabr
7	Simbog‘ozlardagi ustunlarni to‘g‘irlash va simlarni tarang qilib tortish.	dekabr, yanvar, fevral	dekabr, yanvar, fevral	dekabr, yanvar, fevral
8	Ko‘milgan toklarni ochish	mart	mart	mart
9	Uzumlar kurtak yozmasdan oldin entoxlorok 85% fungisid (4 kg/ga), dalate 10 % (0.6 l/ga) qo‘llash.	mart	Mart	mart

11	Uzumlarni qirqish va simlarga bog‘lash	mart	Mart	mart
12	O‘g‘itlash. Solinishi kerak bo‘lgan mineral o‘g‘it me‘yorni har bir gektar hisobiga azotni 66 % o‘g‘it berish	30 mart	30 mart	30 mart
13	Sug‘orish.	30 mart	30 mart	30 mart
14	Toklarni tagini chopiq qilish.	aprel	aprel	aprel
15	Uzum kasallik va zararkunadalariga qarshi kurashish. Krizoksin (0.3 l/ga) kanalarga qarshi entomektin (0.4 l/ga)	aprel	aprel	aprel
16	15 kundan keyin kasalliklarga qarshi entopaz (0.25 l/ga)	aprel	aprel	aprel
17	O‘g‘itlash. Solinishi kerak bo‘lgan mineral o‘g‘itlar me‘yorni har bir gektar hisobiga azotni 33 % fosforni 33%, kaliyni 33%	20 aprel	20 aprel	20 aprel
18	Sug‘orish	20 aprel	20 aprel	20 aprel
19	Begona o‘tlarni chopish	aprel oyi	aprel oyi	aprel oyi
20	Uzumni birinchi xomtak qilish	aprel oyi oxirida	aprel oyi oxirida	aprel oyi oxirida
21	Uzumni kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish.	may oyi boshida	may oyi boshida	may oyi boshida



	Entolikur (0.5 l/ga), entosplan (0.6l/ga), silver (0.12 l/ga)			
22	15 kundan keyin kimyoviy ishlov berish takrorlanadi. Acrobat (2 kg/ga), BI 58 (1 l/ga)	may oyi	may oyi	may oyi
23	Uzum gullab bo‘lgandan keyin ikkinchi xomtak qilish.	may oyi o‘rtasida	may oyi o‘rtasida	may oyi o‘rtasida
24	Sug‘orish	may oyi	may oyi	may oyi
25	Uzum kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Krizoksin (0.3l/ga), kanalarga entomektin (0.4 l/ga)	Iyun oyi boshida	Iyun oyi boshida	Iyun oyi boshida
26	O‘g‘itlash. Solinishi kerak bo‘lgan mineral o‘g‘itlar me‘yorni har bir gektar hisobiga fosforni 33%, kaliyni 33%	6 iyun	6 iyun	6 iyun
27	Kimyoviy ishlov berish takrorlanadi. Fulisil (0.06 l/ga). Entosplan (0.6 kg/ga)	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida
28	Uzumni keraksiz barglarini xomtak qilish.	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida
29	Sug‘orish.	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida	Iyun oyi o‘rtasida
30	Sug‘orish.	Iyulni boshida	Iyulni boshida	Iyulni boshida
31	Hosilni yig‘ish	20 iyul	25 iyul	25 iyul
32	Sug‘orish.	10 avgust	10 avgust	10 avgust
33	Sug‘orish.	30 avgust	30 avgust	30 avgust



Uzum gullab bo‘lgandan keyin ikkinchi xomtak qilish may oyi o‘rtasida, uchinchi marotaba sug‘orish may oyida, uzum kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Krizoksin (0.3l/ga), kanalarga entomektin (0.4 l/ga) Iyun oyi boshida, oxirgi to‘rtinchi o‘g‘itlash ishlari solinishi kerak bo‘lgan mineral o‘g‘itlar me‘yorini har bir gektar hisobiga fosforni 33%, kaliyni 33% 6 iyunda, kimyoviy ishlov berish takrorlanadi Fulisil (0.06 l/ga). Entosplan (0.6 kg/ga) iyun oyi o‘rtasida, uzumni keraksiz barglarini xomtak qilish iyun oyi o‘rtasida, to‘rtinchi marotaba sug‘orish iyun oyi o‘rtasida, oxirgi beshinchi marotaba sug‘orish ishlari iyun oyi oxirida amalga oshirilib, hosilni yig‘ish 20 iyulda boshlandi, hosil yig‘ishtirib olingandan keyin 10 avgustda 30 avgustda sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Uzumni to‘g‘ri parvarish qilish va undan yuqori hosil olish uchun yuqoridagi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev R.M., Mirzayev M.M., Nabiyev U.Y., Abrorov Sh.M., Bekchanov U.A., Mahmudov G‘.G‘. “Uzum yetishtirish va mayiz quritish zamonaviy texnologiyasi” “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2013 y.
2. Mamatov I.U. “Uzum yetishtirish” “Agrobank” nashriyoti-2021
3. Mirzayev M., Temurov Sh. Mevachilik va uzumchilik. T.: 1977.
4. Mirzayev M., Temurov Sh. Bog va tokzor agrotexnikasi. T.: 1978.
5. Ostonaqulov T.E., Narziyeva S.X., Hamdamova E.I. Uzumchilik (Ma‘ruzalalar kursi). Samarqand 2006 y.
6. Ribakov A.A va boshqalar. “O‘zbekiston uzumchiligi”, Toshkent “O‘qituvchi”, 1969
7. Temurov Sh. Uzumchilik. T. 2002 yil, lotin yozuvida 2005 y.
8. Tursunov T., Temurov Sh. Sho‘r yerlarda tok o‘stirish. Toshkent, 1972

Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan Mercedes uzum navi va boshqa uzum navlarini xomtok qilish

E.I. Samandarov, dos., *Urganch davlat universiteti, Urganch*
Sh.Abdukarimova, 2-kurs magistr, *Urganch davlat universiteti, Urganch*

Annotasiya. Maqolada mercedes uzum navini Xorazm vohasida yetishtirish tasvirlangan.

Kalit so‘zlar; uzum, xomtak qilish ishlari.

Abstraktniy. V stat'e rasskazivaetsya o vozdelivaniy sorta vinograda Mercedes v Xorezmskoy oblasti.

Klyuchevie slova: vinograd, cherenki, navoz rabotaet.

Abstract. The article describes the cultivation of the Mercedes grape variety in the Khorezm region.

Keywords: grapes, cuttings, manure Works.

Xomtok kuzgi va bahorgi tok kesishning davomi hisoblanadi. U tok tupiga kerakli shakl berishga, novdalarni so‘ri va simbag‘azlarga bir tekis joylashtirishga, shuningdek, tupning o‘shishi va rivojlani- shiga, oziqlanishiga, fiziologik jarayonlarning normal kechishiga, to‘pgullarning yaxshi changlanib, meva tugilishiga yordam beradi. Shu- ning uchun xomtok bahor va yozda o‘tkaziladigan muhim va mas‘uliyatli agrotexnika tadbirlardandir. Kuzda va bahorda kesilgan tok tuplari- da qoldirilgan hosil novdalar, asosan xomtok vaqtida aniqlanib tar- biyalanib boriladi. Xomtok qilinganda barg orqali hamda ildizdan keladigan oziq moddalar hosilga, hosilli novdalarning rivojlani- shiga va ularning yaxshi pishishiga sarf bo‘ladi. Xomtok qilingan tok havo, yorug‘lik va issiqlikdan samarali foydalanadi, ayniqsa, zamburug‘ kasalligi (oidium) ga kam chalinadi.

Mo‘l hosil yetishtirish uchun xomtok davrida tupda kerakli miqdorda hosilli va hosilsiz novdalar qoldirilishi lozim. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston sharoitida o‘stirila-digan tokning xo‘ra- ki hamda kishmishbop navlarida ba‘zan kurtaklarning rivojlanmay qolishi va hosilsiz (erkak) novdalarning ko‘plab paydo bo‘lishi hol- lari uchraydi. Xo‘raki va kishmishbop navlarning hosil tugish qobili- yati vinobop nav- larnikiga nisbatan past bo‘ladi. Xomtok jarayonida hosilsiz, sust o‘sgan, keraksiz novdalar olib tashlanadi. Natijada novdalarning o‘shishi va rivojlanishi jadallashadi, to‘pgul- lar yaxshi changlanadi, novdalarda hosil kurtaklari ko‘plab shakllanadi, kelgusi yili mo‘l hosil uchun zamin yaratiladi.

Xomtok vaqtida novdalarni haddan tashqari ko‘p olib tashlash yaramaydi. Bu tupning yer ustki qismi va ildiz tizimining kuchsizla- nishiga, barg sathining kamayishiga,



o‘simlik yer ustki va yer ostki qismlarining o‘sishi va rivojlanishi o‘rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Xomtok, asosan ikki marta o‘tkazilib, birinchisi «sho‘ra xomtok», ikkinchisi «g‘o‘ra xomtok» deb ataladi. Sho‘ra xomtok aprel oxirlari va may boshlarida tok novdalari sho‘ra chiqarib hosilli va hosilsiz novdalar aniqlanganda o‘tkazi-ladi. Bu davrda yangi yashil novdalar 25- 30 sm.ga yetgan ular dastlabki jingalaklarni chiqargan bo‘ladi. Sho‘ra xomtok ko‘pi bilan 10-15 kun ichida yoki kechi bilan tok gullagunga qadar tugallanishi kerak. Xomtok shu muddatda sifatli qilib bajarilsa, tok mavsum boshidanoq yaxshi rivojlanadi. Aksincha, xomtok kechiktirib yuborilsa tuplar qalinlashib, ular havo, shamoldan yaxshi bahra olmaydi, gullar yaxshi changlanmay ko‘p-chiligi to‘kilib ketadi. Natijada uzum boshlari chochoq bo‘lib, g‘ujumlari maydalashadi.

Uzum navdalarini kesish asosiy agrotexnika tadbirlaridan biri bo‘lib, har yili kamida uch marotaba o‘tkazilishi kerak. Tok o‘tqazilgandan keyingi dastlabki yillarda bir yillik novdalar kesib, muayyan tup uchun qabul qilingan shakl hosil qilinadi, so‘ngra keyingi yillarda, bir yillik novdalarni kesib tashlab va qisqartirib, keraksiz ko‘p yillik shoxlar kesib olib tashlab, bu shakl tok tupining butun hayoti davomida saqlanadi. Keraksiz novdalarni kesib olib tashlash orqali, uzum tanasining yer ustki qismi bilan uning ildiz tizimi o‘rtasida to‘g‘ri nisbat bo‘lishiga erishiladi. Kesishda tok tupida ma‘lum miqdorda kurtak qoldirib, hosil berishi va o‘shish darajasi tartibga solinadi. Tok novdalarini kesish, uni parvarish qilishni, ko‘mish, bog‘lash, homtok qilish, hosildorlikni kamaytirmagan holda uzum tanasining asta-sekin yoshartirish imkonini beradi. Bundan tashqari tok kesish natijasida tananing qutblikka qarshi kurashi, vegetativ va generativ qismlarining o‘shish kuchini tartibga solishiga hamda vegetativ organlari va hosil beruvchi organlarning ma‘lum oraliqda yoyilishi hamda joylashishiga yordam beradi.

Tokdagi qutblilik tupning yuqori qismlarida joylashgan qismlarning kuchli o‘shishga intilishida namoyon bo‘ladi. Tokdagi qutblilikka qarshi kurashning bir qancha: novdalarni kalta kesish, meva novdalarini gorizontol holda bog‘lash yoki ularni yoy holda egish, o‘rinbosar bo‘toqlar hosil qilish va burchak hamda yashirin kurtaklarning rivojlanishini tezlashtirish kabi usullari mavjud.

Toklarda qutblikka qarshi kurashning eng samarali usuli ularni o‘rinbosar bo‘toq qoldirib kesish hisoblanadi. Ular kalta (ikki-uchta kurtakqoldirib) kesiladi va meva novdasidan pastda qoldiriladi hamda ular bilan birga hosil beruvchi madangli zang hosil qilinadi.

Tokning hayotida yoshining uchta asosiy: vegetativ massa to‘planishi, to‘liq hosil berishi va hayot faoliyatining asta-sekin so‘nish davri bor. Shu davrlarga muvofiq ravishda tok kesishning vazifalari ham o‘zgaradi. Masalan, yoshlik davrida tok tupini tashkil qilish

uchun kesiladi, hosil berish davrida yuqori va sifatli hosil olish uchun kesiladi va tabiiy qarish davrida yoshartirish uchun kesiladi.

Ko‘miladigan toklar bir yillik novdalari pishib, ko‘mishdan oldin kuzda kesiladi, ko‘milmaydigan toklar esa erta bahorda shira xarakati bshlanishidan oldin kesiladi.

Biz tajribamizda turli navlarning hosil bershidagi hususiyatlarini, hisobga olib, novdalar kalta, o‘rtacha uzun va uzun kesiladi. Kalta kesishda 7-8, 8-10 tagacha, o‘rtacha kesishda 10-12, 12-14 tagacha, uzun kesishda esa 16-20, 18-24 tagacha kurtakqoldirildi.(1.-jadval)

Kesish uzunligini belgilashda tupdagi ko‘rtaklarning umumiy soni, shuningdek tokdan olinadigan va mo‘ljallangan hosil hisobga olinadi.

Tuplarning kurtak yuki deganda kesishda tup va gektar hisobiga qoldiriladigan ko‘rtaklarning umumiy soni, novda yuki deganda ortiqcha yashil (xom) novdalar olib tashlangandan, keyin tup va gektar hisobiga qoldirilgan novdalarning o‘rtacha soni tushuniladi. Kesish vaqtida ko‘rtaklar va yulib tashlashda meva beradigan novdalar qancha ko‘p qoldirilsa uzumdan shuncha ko‘p hosil olishga katta imkoniyat tug‘iladi.

Tupdagi novdalarni kalta va uzun kesib, tup va gektar hisobiga aniq miqdorda kurtak qoldirish mumkin, ya’ni kalta kesilganda novdalar ko‘p, uzun kesilganda esa kam qoldiriladi. Ammo, bizning sharoitlarda tuplarga katta va yirik o‘lchamlarda shakl berilganda, novdalarni faqat uzun va o‘rtacha kesib bunday yukka erishish mumkin. Faqat o‘rinbosar bo‘toqlargina kalta kesiladi.

1.-jadval

Tok tupining o‘sish kuchiga qarab ko‘z (yuk) qoldirish miqdori

№	Uzum navlari	Tok kuchining o‘sish kuchiga qarab navdada qoldirilgan kurtaklar soni		
		kuchli o‘sovchi	o‘rtacha o‘sovchi	Kuchsiz o‘sovchi
1	Mersedes	16-20	10-12	8-10
2	Djanjal qora	16-20	10-12	8-10
3	Muskat Aleksandrovskiy	16-20	10-12	8-10
4	Mersedes	18-24	12-14	10-12
5	Djanjal qora	18-24	12-14	10-12

6	Muskat Aleksandrovskiy	18-24	12-14	10-12
7.	Mersedes	19-25	13-15	11-12
8.	Djanjal qora	19-24	13-15	11-12
9.	Muskat Aleksandrovskiy	19-24	13-15	11-12

Tekshirishlar va ishlab chiqarish tajribasida shu narsa aniqlandiki, gektaridan

200-300 s dan hosil olish uchun mahalliy xo‘raki hamda kishmish navlarda 400-500 mingtagacha kurtak bo‘lishi zarur.

O‘rinbosar bo‘toqlar ikki-uchta kurtak qoldirib kesiladi, ular tegishli hosil beruvchi madangdan pastda bo‘lishi lozim. Kuchli o‘sadigan navlar va tuplarda ikkita meva novdasiga bitta bo‘toq qoldiriladi. Meva novdasiga, o‘tgan yilgi o‘rinbosar bo‘toqda rivojlangan novdalardan tashqari, o‘tgan yilgi hosil novdalaridan o‘sib chiqqan yangi novda qoldirish mumkin. Zangning yuqorisida joylashgan novdalarni uzun kesish kerak, chunki hosil berib bo‘lganidan keyin ular butunlay kesib tashlanadi.

Zanglar asta-sekin kesib tashlanishi tufayli hosil novdalarini borgan sari tupning asosidan yuqorida qoldirishga to‘g‘ri keladi va shu tariqa ular tupidan oshib ketishi mumkin. Zanglarni hadeb kesib tashlashning oldini olish uchun, ularni vaqti-vaqti bilan yoshartirib turish kerak. Buning uchun tok tupining asosida yangilash novdalarini qoldiriladi, ulardan esa eski zanglar o‘rniga asta-sekin yangilari shakllanadi. Tajribamizda kesish qoidasi Rizamat Musamuhamedov tavsiya qilgan sxema asosida bajarildi.

Tokning yashil qismlari bilan olib boriladigan ishlar tokka bevosita ta’sir ko‘rsatish usuli hisoblanadi. Bu ishlar bahor-yoz vaqtida, hayot faoliyati jadallashgan davrda bajariladi va tupning o‘sishi, oziqlanishi hamda hosil berishga, uning ayrim qismlariga oziq moddalarning taqsimlanishiga va boshqa fiziologik holatlarga ta’sir etib, tartibga soladi.

Toklarni xomtok qilish, qo‘ltiq novdalarni yulib tashlash, chilpish, erta-yozgi chekanka, qo‘ltiq novdalardan qo‘shimcha hosil olish, novdalarni chekanka qilish, barglarni siyraklashtirish tupning yashil qismlari bilan olib boriladigan ishlardir.

Xomtok qilish-ortiqcha yashil novdalarni olib tashlab, qolgan novdalarni rivojlanishi, tupning yaxshi yoritilishi, to‘pgullarning changlanishi va meva tugilishi uchun sharoit yaratishdan iborat (Sh.Temurov, 2002 yil).

Xomtokni novdalar 10-15 sm ga yetganda birinchi xomtokni bajardik, chunki shundagina hosil beradigan va bermaydiganlarini bir-biridan farq qilish mumkin bo‘ladi. Birinchi xomtokni tok gullagunga qadar tugallash kerak. Yashil novdada birinchi jingalakdan yuqorida, odatda, to‘pgul hosil bo‘lmaydi. Shuning uchun, birinchi



jingalak paydo bo‘lib, unda to‘pgul bo‘lmasa, hosilsiz novda bo‘ladi, uni xomtok qilish va olib tashlash mumkin. Xomtokni kechiktirib bo‘lmaydi, uni novdalar hali yumshoqligida va ularga oziq moddalar hali ko‘p sarflanmaganda o‘tkazish lozim.

Tokni pastki qismidan xomtok qila boshlash kerak. Tokning kunda yuqorisidagi yashirin kurtaklardan yoki ildiz tanasidan o‘ sib chiqqan yashil novdalarning noqulay joylashganlari va yangi zang o‘stirish yoki tupni yoshartirish uchun keraksiz bo‘lganlari olib tashlanadi. Keyin zangdagi novdalar pastdan yuqoriga tomon tekshirilib, o‘rinbosar bo‘toqlar yoki pasaytirish bo‘toqlari yetishtirish uchun ularning yaxshi joylashganlari qoldiriladi.

Hosil novdalaridan hosilsiz novdalarni olib tashlashda, tupda ular qanchalik ko‘pligi hisobga olish lozim. Tupning ildiz tizimi bilan yer ustki qismlari o‘rtasidagi nisbatni buzmaslik, kelasi yil mo‘l hosilni ta‘minlash va hosildorlikni oshirish uchun ularni ba‘zilarini qoldirish lozim. Hosil novdasidagi ortiqcha yashil novdalar, birinchi navbatda, ko‘k novdalar hosilsiz, kuchsiz, tumtoq o‘sgan, noqulay joylashgan ba‘zi novdalarni olib tashlash hisobiga xomtok qilindi. Hosilli novdalarni odatda siyraklashtirish mumkin emas. O‘rinbosar butoqda ikkita novda qoldiriladi; keraksiz uchinchi-eng patki va tupning ichkari tomoniga qaragani (qarab o‘sayotgani) olib tashlanadi.

Tokni kesish va xomtok qilib, yosh tuplarda tana va zang shakllanadi, hosil beradigan tuplarni esa qo‘shimcha kesib va tupdagi novdalarda ma‘lum miqdorda kurtak qoldirib shakli saqlanadi. Tok noto‘g‘ri kesilsa va xomtok qilinsa, uning hosildorligi pasayib ketadi.

Novdalarni uchini chilpish (N.P.Buzin usulida) gul va tugunlarni to‘kilishini kamaytirish hamda uzum boshlarini rivojlanishini yaxshilash maqsadida tok gullashidan oldin yoki endigina gullaganda yashil novdalarining uchi qo‘lda 1-2 sm chilpib tashlanadi. Buning natijasida novdaning uchi vaqtincha (10-14 kun o‘shidan to‘xtaydi, oziq moddalar esa to‘p gullarga boradi. Buning natijasida to‘pgullar miqdori va mevasining vazni ortadi, hosil 20-22% ga va undan ham ko‘payadi. Lekin, novdalarni chilpish qo‘ltiq novdalarni qiyyg‘os rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun albatta ularni hisobga olib, kamaytirish lozim. Xomtok paytida qo‘ltiq novdalardan hosil yetishtirishni F.B.Bashirov, M.G.Seytlin, R.M.Alibekovlar o‘rganib, tavsiya qilganlar. Tok barglarini siyraklashtirish va uni hosildorlikka va boshqa ko‘rsatkichlarga ta‘siri o‘rganildi. Toklar erta bahorda ochilgandan so‘ng, vertikal simbag‘azlarda o‘stirilayotgan bo‘lsa 1-2 chi simlarga «quruq» bog‘lanadi, birinchi va ikkinchi xomtok o‘tqazilgandan keyin esa 3-4 chi simlarga bog‘lanadi. Bog‘lash uchun maxsus iplardan foydalaniladi, ayniqsa o‘simlik tolasidan tayyorlangan iplarni ishlatish maqsadga muvofiq. Novdalar asosan «8» shaklida bog‘lanadi. P.P.Blagonravov ko‘rsatganidek: vertikal, yotiq, gorizontal yoy shaklida, xalqa shaklida bog‘lanadi. Toklarni ikkinchi va uchinchi xomtak qilganda ham tepada keltirib o‘tilgan ko‘rsatmalarga amal

qilish kerak. Keyingi xomtak qilinganda faqat kattalashib ketgan barglar quyosh tushishi va shamol aralab turishi uchun olib tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullaev R.M., Aripov A.I., Nabiev U.Ya. “Suv tanqisligi sharoitida meva-uzumdan yuqori hosil olishda suvni tejash texnologiyasi ” (Tavsiyanoma) Toshkent-2011
2. Buzin N.L., Pelyax M.A. “Vinogradstvo Uzbekistana” Toshkent. 1956
3. Mirzaev M., Temurov Sh. “Mevachilik va uzumchilik” Toshkent. 1977
4. Mirzaev M.M., Sobirov M.Q. “O‘zbekistonda tokchilik” Toshkent- 1979
5. Tursunov T., Temurov Sh. “Sho‘r yerlarda tok o‘stirish” Toshkent. 1972
6. Temurov Sh. Uzumchilik. T. 2002 yil, lotin yozuvida 2005 y.
7. Tursunov T., Temurov Sh. Sho‘r yerlarda tok o‘stirish. Toshkent, 1972
8. Ribakov A., Gobrach I. va boshqalar. “O‘zbekiston uzumchiligi” Toshkent-1969

Qo‘sh – membranali organoidlar - mitoxondriya va plastidaning vazifasi, farqi va ularga qisqacha ta'rif

Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi

1-bosqich 103-guruh talabasi

Annotatsiya: Bu tezisdagi Qo'sh - membranali organoidlar - mitoxondriya va plastidaning vazifasi, farqi va ularga qisqacha ta'rif keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mitoxondriya, plastida, qo'sh-membrana, organoid,

Abstract: In this thesis, the function, difference and a brief description of double-membrane organoids - mitochondria and plastids are given.

Key words: mitochondria, plastid, double-membrane, organoid.

Mitoxondriyalar barcha hayvon va o‘simlik hujayralarida, plastidlar esa o‘simlik hujayralarida bo‘ladi. Bu ikki organoid o‘xshash tuzilish planiga va ba‘zi funksional umumiylikka ega, lekin morfologik, kimyoviy tuzilishi va asosan metabolitik jarayonlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ularning tuzilishidagi umumiylik shundaki, ular gialoplazmadan ikkita membrana-tashqi va ichki membranalar bilan ajralgan bo‘ladi. Shuning uchun ularning har ikkalasidan ham ikkitadan bo‘shliq yoki oraliq kuzatiladi. Ularning tuzilishidagi yana bir umumiylik shuki, ichki membrana matriksga yo‘nalgan burmalar, xaltalar, qirralar, chuqur botiqlar hosil qiladi.

Mitoxondriya va plastidlarning muhim funksiyasi barcha jarayonlar uchun zarur bo‘lgan ATFni sintezlashidir. O‘simlik plastidlarida bundan tashqari fotosintez amalga oshadi.

Mitoxondriyaga qisqacha ta'rif. Mitoxondriya (yunon.mitos – ip, chondros – donacha) sferik yoki ipsimon, qo‘sh-membranalil organella bo‘lib, o‘zida aerob parchalanishning maxsus fermentlarini va adenozin trifosfat (ATF) mahsulotini saqlaydi. Mitoxondriyani birinchi bo‘lib, 1850-yilda Kelliker hasharotlarning muskul hujayrasida topdi va sarkosoma deb atadi(bu atama hozirgi vaqtgacha muskul to‘qimasi hujayrasi uchun qo‘llaniladi). *Mitoxondriya* nomi birinchi marta 1898-yilda Benda tomonidan berilgan bo‘lsada, Flemming (1882) va Altman (1890) boshqa nom bilan bu organellani undan ilgariroq ta'riflab berganlar. Mitoxondriya



diametri 0,2-1 mkm, uzunligi 7 mkmgacha bo‘ladi (o‘rtacha 2 mkm).

Человек с завышенной самооценкой в глубине души неудовлетворен собой. Ему хочется казаться лучше, чем он есть на самом деле, поэтому он ведет себя вызывающе, агрессивно или высокомерно, надменно. Он постоянно подчеркивает свои заслуги, любит хвалить себя, а о других при этом высказывается неодобрительно. Он очень болезненно воспринимает критику – воспринимает ее достаточно агрессивно. Постоянно требует, чтобы окружающие признавали его превосходство.

Людей с самооценкой значительно ниже среднего уровня не всегда можно заметить. Они не стремятся ко всеобщему вниманию и могут казаться скромными. Низкая самооценка помещает человека под угрозу эмоциональных и поведенческих расстройств, и также низкая самооценка связана с рискованным поведением, низкими достижениями и социальным отказом. В процессе общения с такими людьми можно заметить их отрицательные качества:

- зависимость от мнения окружающих и постоянная потребность в их одобрении;

- комплекс неполноценности;
- нерешительность и чрезмерная осторожность;
- излишняя требовательность к себе и окружающим;
- мелочность и завистливость.

При заниженной самооценке человек часто завидует другим, считает, что он ничего не добьется в жизни, может относиться к себе как к слабому, беспомощному, ничего не умеющему человеку. Такой человек не видит способа как реализовать свои мечты, изменить себя и свою жизнь, ему больше других людей требуется поддержка и похвала. Людям с заниженной самооценкой кажется, что окружающие во всем превосходят их, что они лучше, умнее, счастливее. Такие люди часто бывают тихими, робкими, они ранимы, ведут себя нерешительно, стараясь держаться в тени. На критику реагируют очень болезненно, часто замыкаются в себе и переживают глубоко внутри, считая во всем виноватыми только себя.

Само умение производить самооценку закладывается в человека с самого раннего возраста; взрослые невольно оценивают поведение ребенка, объясняя ему, что хорошо и что плохо, помогают изучать по поступкам и из этого определять поведение людей, выстраивать отношение к людям по характеру их поступков. С того момента и начинается неосознанная привычка формирования собственной оценки, опираясь на слова родных и окружающих. Параллельно идут два процесса. Во-первых, социальное сравнение: сравнение себя с окружающими людьми (кто более красивый, успешный и т.д.). Во-вторых, это прямые комментарии окружающих, положительные или отрицательные. Позже формируются внутренние стандарты относительно того, каким человек хочет быть, чего он хочет достичь, и человек начинает руководствоваться ими.

Самооценка формируется на основе существующих в данном обществе норм морали и обуславливается его мировоззрением, положением в системе производственных отношений, господствующих в данном обществе. Развитие самооценки происходит благодаря формированию внутренних структур человеческой психики посредством усвоения деятельности, внешних оценок и социальных реакций на конкретного индивида. Однако в повышении самооценки есть одна тонкость: человек с очень высокой (или низкой) самооценкой закрыт для изменений. Отсутствие точных знаний о собственных возможностях и способностях делает людей с заниженной самооценкой

чувствительными к социальным оценкам, что способствует неустойчивости их представлений о себе. Это создает сложности во взаимодействии с окружающими.

Ввод, самооценка динамична и меняется под воздействием разнообразных факторов, окружающих условий и меняющихся жизненных обстоятельств. Важный компонент целостного самосознания личности – самооценка – выступает необходимым условием бытия гармоничного человека, живущего в согласии как с самим собой, так и с другими людьми, с которыми он общается и вступает во взаимодействие. Сопоставляя мнение о себе окружающих людей, человек формирует самооценку, что человек вначале учится оценивать других, а потом уже – себя. Важная роль в процессе формирования самооценки личности также отводится сопоставлению образов «Я», а именно Я-реального с Я-идеальным.

Недостаток или отсутствие реализации – основная причина негативного состояния и страданий, пониженной самооценки. Также не стоит преуменьшать и влияние общения с окружающими людьми, ведь именно в процессе межличностного взаимодействия человек больше всего получает оценок в свой адрес.

Таким образом, самооценка меняется под воздействием разнообразных факторов, окружающих условий и меняющихся жизненных обстоятельств. Важный компонент целостного самосознания личности – самооценка – выступает необходимым условием бытия гармоничного человека, живущего в согласии как с самим собой, так и с другими людьми, с которыми он общается и вступает во взаимодействие.

Список литературы:

1. Ананьев, Б.Г. Человек как предмет познания – СПб.: Питер-Трейд, 2016 – С. 340.
2. Бернс, Р. Развитие Я-концепции и воспитание – М.: Прогресс, 2016. – С. 130.
3. Влияние самооценки на жизнедеятельность людей [Электронный ресурс] // Cyberleninka.ru: офиц. Сайт. – 2020. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-samootsenki-na-zhiznedeyatelnost-lyudey>. – (дата обращения: 27.05.2023.)
4. Молчанова О.Н. Самооценка. Теоретические проблемы и эмпирические исследования : учебное пособие – М.: Флинта, 2016. – С. 392.

5. Мухина Ю.И. Самооценка как форма проявления самосознания // Вопросы науки и образования. – 2018. – № 3 (15).
6. Особенности развития самооценки личности [Электронный ресурс] // Cyberleninka.ru: офиц. сайт. – 2016. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-razvitiya-samootsenki-lichnosti>. – (дата обращения: 27.05.2023.)
7. Самооценка – что это такое: понятие, структура, виды и уровни. Коррекция самооценки [Электронный ресурс] // Cyberleninka.ru: офиц. сайт. – 2019. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/samootsenka-chto-eto-takoe-ponyatie-struktura-vidy-i-urovni-korreksiya-samootsenki>. – (дата обращения: 27.05.2023.)
8. Чеснокова И.И. Проблемы самосознания в психологии – М.: Наука, 2017. – С. 244.

Erkin Vohidov she'riyatida folklor an'analari

Haydarova Rushana

Guliston davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni tadqiq etish, shoirning xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanishi, erishgan yutuqlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: xalq og'zaki ijodi, folklor, folklorizm, obraz, folklorshunoslik

Jahon adabiyotshunosligida xalq og'zaki ijodiga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy adabiyotning tarkibiga singdirilgan folklorizm namunalarining badiiy adabiyotdagi, uning poetikasidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham davr ijodkorlari asarlaridagi xalq og'zaki ijodiga monand jihatlarni o'rganish va ularning asarlariga jahon adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan baho berish asosiy muammolaridan hisoblanadi. Bu holat ayniqsa, Usmon Azim, Azim Suyun, E. Vohidov va boshqalar ijodidagi folklorizmlar badiiyatini har tomonlama chuqur tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Adabiyot hamma zamonlarda xalq ma'naviyatining bebaho xazinasini bo'lib kelgan. O'zbek she'riyatining taniqli namoyandalari ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni tadqiq etish, ularning xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanishi, erishgan yutuqlari sirlarini o'rganish muhim masala hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda folklor va folklorizm atamaları yaqin-yaqingacha tadqiqotchilar tomonidan noaniq talqin qilishlarga, har xil qarashlarga sabab bo'lib kelayotgan edi. Bu muammoni birinchilardan bo'lib zabardast folklorshunos olim Bahodir Sarimsoqov ilmiy asoslab berdi. Ishonch bilan aytish mumkinki, olim uning ilmiy yechimini topa olgan. Adabiyotshunosning fikricha: “Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi.

Ma'lumki, yozma adabiyot bilan folklor o'rtasidagi ijodiy aloqalar o'ziga xos badiiy an'ana bo'lib, muayyan estetik qonuniyatlar doirasida kechayotgan jarayondir. Bu ijodiy aloqalar natijasida badiiy ijodda yuzaga kelgan ko'plab syujet,

motiv, obrazlar, mavzu va badiiy detallar yozma adabiyotga ko‘chib, ijodkor badiiy niyati va poetik iqtidoriga bog‘liq holda, o‘ziga xos tarzda talqin qilina boshladi. Binobarin, folklorning yozma adabiyotga ko‘rsatgan ijodiy ta’siri hamda shoirlarning xalq og‘zaki ijodidan foydalanishdagi badiiy mahoratining o‘ziga xos qirralarini yoritib berish adabiyotimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq ijodiy jarayonlarga daxldor g‘oyat muhim nazariy masalalarni keng qo‘llashda asos bo‘ladi.

Erkin Vohidov adabiyotimizda folklorizmlardan juda unumli foydalangan yorqin iste’doddur. Shoir she’riyatining deyarli har bandi xalq donishmandligidan yiroq emas. Xalq og‘zaki ijodi bilan sug‘orilgan mumtoz adabiyot shaydosi Erkin Vohidov lirikasining pishiq-puxtaligi, jarangdorligi, poetik mukammalligi folklorizm sabablaridan deb o‘ylayman.

Oydin kecha,
Yog‘ar ko‘kdan zar,
O‘yga cho‘mib deding gul yuzim.
Osmon to‘la sonsiz yulduzlar,
Qaysi ekan mening yulduzim.[1]

Samodagi har bir yulduz yer yuzida yashayotgan har bir insonni ramziy belgisi, degan xalq naqli bor. Erkin Vohidov xalq maqollaridan foydalanishda ularni semiotek nuqta sifatida ko‘radi. Maqol ifodalagan ma’no bayt so‘ngida kelib, o‘sha baytning xulosasini ham beradi. Unga shoir tomonidan shunday nozik hukm yuklatiladi.

Sevgi dardidan mening ham
Bo‘ldi rangim qahrabo,
Yo‘q iloj, ne naf o‘kinma
Bo‘lmasada ko‘zguda ayb?
Sen-ku Zuhrosan falakda
Intizoringman faqat,
Ne ajab, talpinsa ko‘nglim,
Yo‘q emish orzuda ayb.

“Yuzing xunuk bo‘lsa oynadan o‘pkalama”, “Orzu qilish ayb emas” kabi maqollar g‘azalda irsoli masal san’atini hosil qilgan. Maqollar inversiyalashtirilgan.

Latifa o‘zbek xalqining tabiatiga juda mos tushadigan, uning maromini belgilab beradigan xalq og‘zaki janrlaridan biri. Haqiqiy ma’nodagi folklorizmlar Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” nomli turkum latifalarida to‘liq namoyon bo‘ladi. Shoir xalqona hajvni yozma she’riyatga ko‘chirib, bu borada

o‘ziga xos yo‘l tutdi. Bu she‘riy latifalardagi satira va yumor o‘zbekka xos askiya, xalqona qochirimlardan o‘rib chiqqan. Ularda xalq latifalaridan farqli o‘laroq, bosh qahramon Matmusa. Bunday holat adabiyot uchun begona emas. Folklordagi latifalar ham Nasriddin nomi bilan sharaflangan. Har qanday ijtimoiy kulgili biror voqea-hodisaga Nasriddin bosh qahramon vazifasini o‘tab beradi. Shoirning “Matmusaning lagani” she‘riy latifasi ko‘proq oqibatni o‘ylaydigan, biror ishni boshlamasdan oldin uni foyda-ziyonini o‘ylab bosh qotiradigan, shuning uchun hech bir ishni boshlay olmaydigan ehtiyotkor odamning xatti-harakatlaridan so‘zlaydi. Xayrli yumush boshlashda qo‘rqmasdan Ollohga tavakkal qilish ham yomon emasligini uqtirmoqchi bo‘ladi shoir.

Mashoyixlar gapi bor
Ish ko‘zini bil, degan.
Har yumushda ertaning
Hisobini qil, degan.
Nima qilsam ekan deb,
Bir dam o‘yga toldi u.
So‘ng laganni sindirib,
Chigalatib oldi u.[2]

Odamlar Matmusaning soddaligidan kulish bilan, o‘zida shunday illatlar bo‘lsa, yo‘qotishga, aqlli va idrokli inson bo‘lishga harakat qilishadi. Ruhiyati ko‘tarilib qalbi tozaradi. She‘riyatning, qolaversa, badiiy kashfiyotlarni ijtimoiy ahamiyati ham shunda.

Istiqlol adabiyotida folklorga xos obrazlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, To‘ra Sulaymon, Xurshid Davron, Usmon Azimov, Abduvali Qutbiddinlar tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanildi. Folklorizmlar namunalari shoirlar maqsadini ro‘yobga chiqarishda badiiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Vatan, erk, ozodlik kabi insonparvarlik tuyg‘ularini tarannum etadigan so‘zlar folklorizm namunalari bilan sintezlashib, yagona zamonaviy she‘riyatni vujudga keltirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воҳидов Э. Сайланма. 1-жild. Т.Шарқ. 2000. 52-б. barcha she‘rlar shu kitobdan olindi.
2. Воҳидов Э. Ўзбегим Т. О‘zME. 2006. 240-b. barcha she‘rlar shu kitobdan olindi.



SHAXTA VA RUDNIKLARDAGI YER OSTI KON ISHLARI HOLATINI KO'RISH UCHUN OLIY TA'LIM DARGOHLARIDA VIRTUAL SAYOHAT AUDITORIYASINI TASHKIL QILISH

O.Sh. Yormatov¹, U.T. Toshtemirov²

*¹Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
Konchilik ishi kafedrasida 3d-20KI guruh talabasi.,*

*²Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
Konchilik ishi kafedrasida dotsenti v.b., texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Annotatsiya: O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish sur'atini har tomonlama tezlatish uchun asosan og'ir sanoatning butun xalq xo'jaligini yanada yuksalishiga yordam beradigan tarmoqlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday tarmoqlardan biri hozirgi zamonda konchilik sanoatidir. Hozirda O'zbekiston konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Har yili Respublikamiz konlarida taxminan 5.5 mlrd dollarlik miqdorida foydali qazilmalar qazib olinmoqda va ular yoniga 6.0-7.0 mlrd dollarlik zahiralari qo'shilmogda. Shu ishlarning asosiy mutaxassislari bo'lib ishlayotgan hodimlar konchilardir.

Kalit so'zlar: Shaxta, rudniklar, yer osti suvlari, matematik modellashtirish, energiya-resurs.

Bu mutaxassislar yer ostida foydali qazilmalarni qazib olish, ulardan oqilona foydalanish asnosida vaqt va makon birligida amaliyotni nazariyaga bog'lash maqsadida talabalarga amaliy ko'nikmalarini yanada oshirish uchun Respublikamizda faoliyat yuritayotgan shaxta va rudniklardagi yer osti kon ishlari holatini ko'rish uchun virtual sayohat auditoriyasi tashkil qilinsa, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun bir muncha qulayliklar yaratishi mumkin.

Yer osti kon lahimlarini o'tishning portlatish texnologiyasini ishlab chiqish, kon lahimlarini o'tishda va qoyali tog' jinslarini qazib olishda tog' jinslarini qulatilish uchun PM kumulyativ zaryadini qo'llash, dunyoda amalga oshirilayotgan konturli portlatish usullari va parametrlarini ishlab chiqish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olishda BPIning texnologik jaryonlari takomillashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida «ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy

etishning samarali mexanizmlarini yaratish, ishlab chiqarishga energiya va resurs tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish...»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda yer osti konchilik ishlari yo'nalishi bo'yicha talabalarga ta'lim berib kelayotgan oliy ta'lim dargohlarida virtual sayohat auditoriyasini tashkil qilish, murakkab kon-texnik sharoitlarda yer osti kon lahimlarini o'tishning portlatish texnologiyasining ilmiy-texnik asoslarini talabalar jonli kuzatib borishi katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Virtual reallik ko'zoynaklari VR Shinecon SC-G07E foydalanuvchini yer osti olamiga sayohatni amalga oshiradi. Jihozning yengil qora va kulrang plastik korpusi kam vazni va maxsus dizayni tufayli foydalanuvchini charchatmaydi va boshini siqmaydi. Model displey diagonali 4,7 dan 6 dyuymgacha bo'lgan Android va iOS operatsion tizimlariga asoslangan barcha smartfonlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Shinecon SC-G07E VR ko'zoynaklari yer osti olamiga sayohatni to'liq sho'ng'ish uchun quloqchinlar bilan birga keladi (1-rasm).

Turi: smartfon ko'zoynaklari

Maqsad: smartfonlar uchun

Moslik: Android, iOS

O'quvchilar orasidagi masofani sozlash mavjud (sozlash oralig'i 62 dan 74 mm gacha)

Fokusni sozlash: ha (sozlash diapazoni 34 dan 44 mm gacha)

Texnik xususiyatlari

Smartfon ekranining o'lchami: 4,7-6"

Ko'rish burchagi: 110

Obyektiv diametri: 42 mm





1-rasm. Qurilmaning umumiy ko'rinishi

Ushbu virtual sayohat auditoriyasini tashkil qilish asnosida quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- Talabalarni amaliyotga borish-kelish vaqti va sarf xarajatlari tejaladi;
- Talabalarni amaliyot davrida xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanadi;
- 1-2 bosqich talabalari uchun amaliyotga chiqqunga qadar, sohaga oid bilimlarini yanada oshirish imkoniyati yaratiladi;
- Zamonaviy mulitemedia vositalaridan foydalanib, dars mashg'ulotlarini olib borish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni
2. Internet sayti/ <https://www.zoodmall.uz/ru/product/26903497/ochki-virtualnoy-realnosti-vr-shinecon-g04a-chernyy/>
3. Sagatov N.X. Kon ishi asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDTU, 2005
4. Sagatov N.X. Meliqulov A.D, Shamirzayev X.X. Foydaliqazilmakonlariniyerostiusulidaqazish. O'quv qo'llanma. Toshkent, TDTU, 2004
5. Михеев О.В., Виткалов В.Г. и др. Подземная разработка пластовых месторождений. Практикум. М.: МГГУ, 2001. –488 с.



**Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida
sinalgan uzum navlari va uzum tok ostida qator oralariga ekilgan qovun
navlarini hosildorligi.**

E.I.Samandarov, dots.Urganch davlat universiteti, Urganch.

D.M.Mansurbekova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch.

Annatatsiya. Maqolada uzum tok ostida qovun yetishtirish tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: uzum, qovun navlari, sug‘orish, me‘niral o‘g‘itlar me‘yori.

Аннотация: В статье описано выращивание винограда и бахчевых под него.

Ключевые слова: виноград, сорта бахчевых культур, орошение, минеральные удобрения.

Abstract: The article describes the cultivation of grapes and melons under it.

Key words: grapes, melon varieties, irrigation, mineral fertilization.

Uzumzorlardagi hosilni o‘z vaqtida sifatli qilib yig‘ishtirib olish katta ahamiyatga ega. Agarda uzum hosili o‘z vaqtida va to‘g‘ri yig‘ib olinmasa, mo‘l hosil yetishtirishga qaratilgan barcha tashkiliy va agrotexnika tadbirlari yo‘qqa chiqadi. Shuning uchun, hosilni yig‘ib olishni to‘g‘ri tashkil qilish, terish, saqlash, tashish ishlarini o‘z vaqtida bajarish lozim.

Olinadigan hosil quyidagi usulda aniqlanadi. Maydonda har beshinchi qator, qatorda esa beshinchi tup belgilanib olinadi va uzum boshlarining soni hisoblab chiqiladi. Uzum boshlari soni yig‘indisining tuplar soniga taqsimlash yo‘li bilan har bir tupdagi uzum boshlarining o‘rtacha vazniga ko‘paytirib, xo‘jalikda har bir tupdan olinadigan hosil aniqlanadi. Har gektardagi va xo‘jalikdagi tuplar sonini bilib olib, har bir gektardan va xo‘jalikning hamma maydonidan olinadigan hosil aniqlanadi. Hosil uchun tuplarni aniqlash har bir nav bo‘yicha alohida olib boriladi.

1.-jadval

**Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan
uzum navlarini hosildorligi,s/ga.**

№	Sinalgan uzum navlari	O‘g‘it berish me‘yori,kg/ga	1 tupdagi uzum boshlar soni, dona	1tupdagi hosil,	Umumiy hosildorlik, o‘rtacha, s/ga
----------	------------------------------	------------------------------------	--	------------------------	---

				o‘rtacha , kg	
1	Mersedes	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	33	14.7	244
2	Djanjal qora	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	45	14.5	240
3	Rizamat	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	33	14.8	246

Olib borgan tajribamizda o‘g‘it berish me‘yori azot 250 kg/ga, fosfor 200 kg/ga, kaliy 90 kg/ga berilganda Mercedes uzum navining o‘rtacha bir tupida 33 dona uzum bosh borligi aniqlanib, 1 tupdagi o‘rtacha hosil 14.7 kg ni tashkil qilib, gektar bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik 244 s/ga ni tashkil qildi. Djanjal navida esa bir tupdagi uzum boshlar soni 45 ta, 1 tupdagi hosil 14.5 kg ni , umumiy hosildorlik 240 s/ga ni tashkil qildi. Xuddi shunday oziqlantirish me‘yorida Rizamat uzum navida 1 tupdagi uzum boshlar soni 33 ta bo‘lib, 1 tupda 14.8 kg hosil olindi, umumiy hosildorlik 246 s/ga ni tashkil qildi. (1.-jadval).

Olib borilgan tajribalar natijasida azot 250 kg/ga, fosfor 200 kg/ga, kaliy 90 kg/ga ga berilganda Mercedes uzum navida, 1 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 435 gr bo‘lib, 244 s/ga, 2 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 435 gr bo‘lib, 244 s/ga, 3 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 434 gr bo‘lib, 243 s/ga, 4 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 436 gr bo‘lib, 245 s/ga va o‘rtacha 435 gr bo‘lib, 244 s/ga ni tashkil etdi. Xuddi shunday oziqlantirish me‘yorlarida Djanjal qora navida 1 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 320 gr bo‘lib, 240 s/ga, 2 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 320 gr bo‘lib, 241 s/ga, 3 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 321 gr bo‘lib, 240 s/ga, 4 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 319 gr bo‘lib, 239 s/ga va o‘rtacha 320 gr bo‘lib, 240 s/ga ni tashkil etdi, Xuddi shunday oziqlantirish me‘yorlarida Rizamat uzum navida 1 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 450 gr bo‘lib, 246 s/ga, 2 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 440 gr bo‘lib, 246 s/ga, 3 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 438 gr bo‘lib, 247 s/ga, 4 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 440 gr bo‘lib, 246 s/ga va o‘rtacha 442 gr bo‘lib, 246 s/ga ni tashkil etdi. (2-jadval)





2-jadval

Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan uzum navlarini hosildorligi (qaytariqlar bo‘yicha)

№	Uzum navlari	Ma‘dan o‘g‘itlar me‘yori, kg/ga	Bitta uzum boshining o‘rtacha og‘irligi, gr		O‘rtacha hosildorlik, s/ga
			1q	2q	
1.	Mercedes	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	1q	435	244
			2q	435	244
			3q	434	243
			4q	436	245
			o‘rtacha, gr	435	244
2.	Djanjal qora	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	1q	320	240
			2q	320	241
			3q	321	240
			4q	319	239
			o‘rtacha, gr	320	240
3.	Rizamat	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	1q	450	246
			2q	440	246
			3q	438	247
			4q	440	246
			o‘rtacha, gr	442	246

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida solingan o‘g‘itlarni me‘yori azot 250 kg/ga, fosfor 200 kg/ga, kaliy 90 kg/ga ga berilganda eng yaxshi ko‘rsatkich Rizamat uzum navida 1qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 450 gr bo‘lib, 246 s/ga, 2 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 440 gr bo‘lib, 246 s/ga, 3 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 438 gr bo‘lib, 247 s/ga, 4 qaytariqda bir bosh uzum og‘irligi 440 gr bo‘lib, 246 s/ga va o‘rtacha 442 gr bo‘lib, 246 s/ga tashkil qilib, boshqa variantlarga nisbatan yuqori hosil olindi. (2-jadval)





3.-jadval

Qadimdan sug'orilib kelingan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan uzum navlarini hosildorligi

№	Uzum navlari	Ma'dan o'g'itlar me'yori, kg/ga	Bitta uzum boshining o'rtacha og'irligi, gr	O'rtacha hosildorlik, s/ga
1.	Mersedes	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	435	244
2.	Djanjal qora	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	320	240
3.	Rizamat	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	442	246

Olib borgan tajribamizda o'g'it berish me'yori azot 250 kg/ga, fosfor 200 kg/ga, kaliy 90 kg/ga berilganda uzum toklar ostiga qator oralariga ekilgan Bo'ri kalla qovun navimizda 1 tupida 3 ta yetilgan qovun mevasi borligi kuzatilib, 1 ta





4.-jadval.

Qadimdan sug'orilib kelingan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan uzum toklar ostida qator oralariga ekilgan qovun navlarini hosildorligi,s/ga

No	Uzum tok ostiga qator oralariga ekilgan qovun navlari	O'g'it berish me'yor,kg/ga	1 tup qovun palagidagi mevalar soni, dona	1 ta qovunni o'rtacha og'irligi, kg	Umumiy hosildorlik, o'rtacha, s/ga
1	Bo'ri kalla	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	3	3.0	180.0
2	Gurbak	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	4	4.9	180.0
3	Zar gulobi	N ₂₅₀ P ₂₀₀ K ₉₀	4	4.8	220.0

qovunni o'rtacha vazni 3.0 kg ni tashkil qilib, umumiy hosildorligi 180,0 s/ga ni tashkil etdi, xuddi shunday oziqlantirish me'yorida Gurbak qovun navida 1 tupida 4 ta yetilgan qovun mevasi borligi kuzatilib, 1 ta qovunni o'rtacha vazni 4.9 kg ni tashkil qilib, umumiy hosildorligi 180,0 s/ga ni tashkil etdi, Zargulobi navida 1 tupida 4 ta yetilgan qovun mevasi borligi kuzatilib, 1 ta qovunni o'rtacha vazni 4.8 kg ni tashkil qilib, umumiy hosildorligi 220,0 s/ga ni tashkil etib, eng yaxshi ko'rsatkich Zargulobi qovun navida kuzatilib, boshqa navlarga nisbatan 40.0 s/ga yuqori bo'ldi.(4-jadval).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

- 1.Абдуллаев Р.М., Арипов А.И., Набиев У.Я. “Сув танқислиги шароитида мева-узумдан юқори ҳосил олишда сувни тежаш технологияси ” (Тавсиянома) Тошкент-2011
2. Абдолниёзов В.О., Ғуломов Ғ.С. Хоразм қовунлари. – Урганч, 2008.
3. Душамов Б.К. Қовун пашшаси ва унга қарши кураш усуллари. Урганч, 2005.
- 4.Бужин Н.Л., Пелях М.А. “Виноградство Узбекистана” Тошкент. 1956
- 5.Мирзаев М., Темуров Ш. “Мевачилик ва узумчилик” Тошкент. 1977
6. Мирзаев М.М., Собиров М.Қ. “Ўзбекистонда токчилик” Тошкент- 1979



7. Турсунов Т., Темуров Ш. “Шўр ерларда ток ўстириш” Тошкент. 1972
8. Робаков А., Гобрач И. ва бошқалар. “Ўзбекистон узумчилиги” Тошкент-1969
9. Р. Мавлянова, А.Рустамов, Р.Ҳакимов ва б. Ўзбекистон қовунлари. – Тошкент, 2005.
10. Ҳакимов Р.А. Ўзбекистон қовун селекцияси. Сабзавот, полиз, картошка селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш технологияси. Тошкент, 2008.



ПРОБЛЕМНЫЕ СИТУАЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ И СОПОСТАВЛЕНИИ БЫТОВОЙ ЛЕКСИКИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

PROBLEM SITUATIONS IN THE STUDY AND COMPARISON OF RUSSIAN AND UZBEK HOUSEHOLD VOCABULARY

Насибахон Тойчиева Суранбаевна

(Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова,
Самарканд, Узбекистан)

Аннотация.

В статье рассматриваются, проблемные ситуации, которые встречаются при изучении и сопоставлении бытовой лексики, сравнивается и сопоставляется некоторая бытовая лексика русского и узбекского языков и их образование, перевод бытовых терминов. Русский и узбекский язык отличается тем, что эти языки принадлежат к генетически разным семьям. Сравнительный анализ бытовой лексики русского и узбекского языков выявляет разные духовные и бытовые ценности, которые, отражают ментальную картину как русского, так узбекского народа.

Ключевые слова: интенсивный процесс, национальный язык, интернационализации жизни, инновационно-технический прогресс, социолингвистический регион, западно-европейский язык, актуальность, высококвалифицированных специалистов, формирование будущих специалистов, исследования учёных, префиксально-суффиксальный, связь, изучать, навыки, расширять, мировоззрение, значение и др.

Annotation.

The article considers, the problem situations that occur when studying and comparing household vocabulary, compares and contrasts some household vocabulary of the Russian and Uzbek languages and their formation, translation of household terms. Russian and Uzbek languages are different because these languages belong to genetically different families. A comparative analysis of the everyday vocabulary of the Russian and Uzbek languages reveals different spiritual and everyday values, which reflect the mental picture of both Russian and Uzbek people.

Keywords: intensive process, national language, internationalization of life, innovative and technological progress, sociolinguistic region, Western European language, relevance, highly qualified specialists, formation of future specialists, research scientists, prefix-suffix, communication, study, skills, expand, worldview, value, etc.

Лингвистическая ситуация в настоящем развивающемся мире характеризуется интенсивными процессами обновления словарного состава литературных языков. Эти развивающиеся процессы в самой высокой масштабной степени сказываются на развитии и состоянии бытовой лексики каждого из национальных языков, что общей интернационализации жизни во всем мире в значительной мере действуют достижения инновационно-технического прогресса, имеющие всемирный характер.

Нужно говорить о масштабных (*знаменательных) вариантах интернационализации бытовой лексики. Одним из таких путей (является) представляется социолингвистический регион, объединяющий языки народов стран СНГ.

Сравнительное изучение бытовой лексики (терминологии) узбекского и русского языков свидетельствует о том, что имеется пласт лексики, заимствуемый многими языками из какого-либо одного языка.

Бытовая лексика представлена заимствованиями из западно-европейских языков (латинского, английского и других языков).

Вопрос функционирования терминов в каком-либо языке имеет свой объект, свою актуальность. Изучение специальной терминологии в процессе становления высоко квалифицированных специалистов-вопрос, имеющий свою значимость в процессе изучения бытовой лексики на занятиях по русскому языку, так как изучение русского языка направлено на формирование будущих специалистов. Сравнительный анализ бытовой лексики русского и узбекского языков позволяет выявить разные духовные и бытовые ценности, которые, отражают ментальную картину как русского, так узбекского народа.

Исследования доказали, что лексика узбекского и русского языков отличается тем, что эти языки принадлежат к генетически разным семьям.

Русский язык принадлежит к славянской группе индоевропейской языковой семье, а узбекский язык генетически принадлежит к группе тюркских языков. Словарный состав узбекского языка богат узбекскими

общетюркскими словами. Своеобразие сравниваемых языков проявляется в том, что бытовая лексика, отражающая сходные понятия, соотносится с разными символами, особенно важно, что в фольклоре и образно-речевом выступлении узбекского и русского народов фигурируют именно такие вещи, предметы и явления, которые типичны для его быта. И это типичное, оказывается, передает национальный колорит.

Узбекский язык очень богат и интересен. Лексика любого языка день за днем изменяется, обогащает язык новыми словами, это приводит к расширению его словарного состава. В нашем краю сложились благоприятные условия для обогащения лексики русского языка. Всем известно о том, что лексическая система, выполняя свою функцию как средство общения, создается и обновляется, чтобы адекватно отразить, воспроизвести и закрепить новые понятия в словах и выражениях. Бытовая лексика образуется префиксально-суффиксальным способом, например: бытов-ой, бытов- и-ть, крутить -на-крут-к-а; а часто в сочетании с суффиксацией био-туалет, агро-банк, усечение основ, особенно характерное для образования неологизмов в разговорной речи (бук- из букинистический магазин).

Обращение к словарю не обеспечивает правильности употребления бытовых терминологических словосочетаний.

Сопоставительное изучение бытовых терминологий узбекского и русского языков свидетельствует о том, что имеется пласт лексики, заимствуемый многими языками из какого-либо одного языка.

Рассмотрим на примере: основная функция пылесоса – почистить пыль – чангсуар чангюткич уй ва жихоз чангини суриб тозалайдиган аппарат.

Мясорубка-гушт майдалагич, киймалагич, сепаратор молочный- сут сепаратори, радиолокация- радиотулкин ёрдамида объектларнинг турган жойини аниклаш, сенокосилка- пичан хашак урадиган машина, сенопресс-пичан пресслайдиган машина, пичан пресслагич, сеносушилка- пичан куриткич, сеноуборочная машина –пичан уришга оид, пичан урадиган машина, скрепа, степлер – кискич бириктиргич, соковыжималка – ширакискич, шарбатсиккич (шира сувини сикиб оладиган асбоб еки машина, пекарня – нонвойхона, мясник – кассобхона, сольница – туздон, спичечница- гугурт кути, гугуртдон.

Радиатор – 1. Моторнинг сувини совитадиган мослама 2. бинони бут еки кайнок сув билан иситадиган асбоб.

Самостоятельный поиск активизирует мыслительную деятельность обучающихся, помогает увидеть сложные отношения между значениями полисемантических слов, обогащает словарный запас студентов.

На материале лексики можно также построить проблемные ситуации, при которых студенты сталкиваются с фактами, требующими объяснения.

Рассмотрим некоторые слова бытовой лексики узбекского языка и сопоставим с русским языком. Есть такие бытовые лексемы (термины) узбекского языка, когда сопоставляются с русским языком, нет вариантов этих слов в русском языке. Например: Арба-арава, бахча –1. богча;2. полиз; чопон-чабан, сундук-сандик, казань-козон, кастрюль-кастрюль, арбуз-тарвуз, кишмиш-кишмиш, майиз, йогурт-йогурт, каймак-каймак, компот-компот, шарбат, печь-печка, халат-халат, игла-игна, чайник-чайник, чай-чай, атлас-атлас, торт-торт, пирог-пирог, пирожки-пирожки, чебурек-чебурек, булочки-булочка и другие.

В русском языке термин бытовой-майиш хёт кечириш .

В современной практике сравнительно-сопоставительного изучения языков можно выделить два основных типологических метода: 1) сопоставление двух или более языков с языком эталоном, от которого отталкиваются описания различных языков; 2) непосредственное сопоставление строя нескольких языков без сравнения с избранным языком эталоном.

Из представленных, вторая методика более приемлема.

Анализируя структуру языка, принято характеризовать строй русского языка - как синтетический.

При сопоставлении языков (русского и узбекского) важное значение приобретает изучение глубинной и поверхностной структур, точно взятых языковых категорий.

Сравнительно-сопоставительный анализ русского и узбекского языков позволяет установить, что в русском языке средства выражения слов и словосочетаний отличаются большим структурным разнообразием. Связь между языками помогает нам изучать навыки, расширяет мировоззрение, даёт новые значения, средства, присущие языку.

Язык отражает все изменения, происходящие в жизни общества, поэтому среди тех предметов, с которыми мы сравниваем, появляются новые слова, обозначающие новые явления, предметы.

Одно и то же слово, обозначающее конкретный предмет, может использоваться в разных сравнительных конструкциях, получая при этом разные смыслы, выполняя разные функции.

В русском языке встречаются сравнения, в которых что-то с чем-то сравнивают, обозначаются заимствованным словом. Например: йогурт-йогурт, кофе- кофе, какао- какао, имидж-имидж, тасвир, компьютер-компьютер, пульт- пульт, телевизор- телевизор, зангори экран, банка- банка, крышка-крышка, копкок и другие.

Таким образом, изучения узбекской и русской бытовой лексики показывает, что типологическое изучение традиции, обряды и бытовая лексика двух народов имеет важное значение.

Литература

1. Гак В. Г. Сопоставительная лексикология. -М.; Международные отношения., 1997.-264 с.
2. Акишина А.А., Формановская Н.И. Русский речевой этикет. М., Русский язык., 2001
3. Балкина Н.В. Учебное пособие по научному стилю речи. 1-2 ч. М., РУДН, 2002.
4. Ожегов С. И., Словарь русского языка.-М.: «Русский язык», 2004.

Rahbarlarda emotsional toliqish muammosi

Ismailov S.

UrDU Pedagogika va psixologiyasi
kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola rahbarlarda uchraydigan emotsiyonal toliqish, uning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari va toliqishni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Rahbarlarda kelib chiqadigan emotsiyonal toliqishni keltirib chiqaruvchi omillar juda ko‘p bo‘lib, ularning namoyon bo‘lishi shaxsning individual xususiyatlariga ham bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Emotsional toliqish, stress, rahbar, koping strategiyalari, emotsiya, toliqish.

ANNOTATION

This article includes emotional exhaustion in managers, its causes, characteristics and recommendations aimed at eliminating exhaustion. There are many factors that cause emotional exhaustion in leaders, and their manifestation also depends on the individual characteristics of the person.

Key words: Emotional exhaustion, stress, leader, coping strategies, emotion, exhaustion.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularni amalga oshirishda rahbarlarning o‘rni beqiyosdir. Ularning jismoniy va ruhiy salomatligi ishning samaradorligiga ta'sir ko‘rsatadi. Rahbarlardagi emotsional zo‘riqishni yo‘qotish va oldini olish, ularni yanada tashabbuskor, g‘ayratli va irodali qiladi. Emotsional toliqish nima?

“Emotsional toliqish - uzoq davom etgan oila yoki ishdagi, gohida ularning ikkalasi bilan ham bog‘liq bo‘lgan stress natijasida, hissiy charchash va hislarning yo‘qolish holati. Emotsional toliqish "(burn out) yonib ketish" holatining bir belgisi hisoblanadi” [1]. “Emotsional toliqish-ortiqcha ishlash, shaxsiy ehtiyojlar, davomli stress natijasida jismoniy va emotsional zaiflashish holati” [2]. “Stress - bosimni psixologik idrok qilish va tananing unga bo‘lgan javobi” [3].

“Mashina motorini o‘zimizga kerakli bo‘lgan payda yoqish, normal holat hisoblanadi. Ammo uni garajda tuni bilan yoniq holda qoldirish xojatsizdir. Inson tanasi ham shunga o‘xshash: keraksiz bo‘lgan narsalarga energiya sarflash keraksizdir. Inson tanasi favqulotda hodisalarga nisbatan reaksiya bildirishi kerak. Ammo buni doimo bo‘lishi zararlidir. Inson uxlamayotgan paytida atrof-muhitga maslashgan holda reaksiya ko‘rsatadi. Ammo doimiy holatda tinch bo‘ladi.

Quyidagi uchta holatda tana reaksiya bildiradi:

- Yangiliklar – bu ijobiy hodisa bo‘lsa ham.
- Frustratsiya – maqsadga erisha olmaslik natijasida tushkunlikka tushish.
- Jazo – yomsiz holatlar boshdan kechirilganda” [4].

Rahbarlada uchraydigan stress manbalarini uch guruhga bo‘lish mumkin: ijtimoiy, shaxsiy, ish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Rahbar idora-tashkilotning yetakchisi hisoblanadi. Rahbar shaxsiga jamiyatning talabi juda yuqori bo‘ladi. Tashkilot hodimlari va xodimlar xizmat ko‘rsatayotgan odamlar o‘zlarining yechim topmagan muammolari yuzasidan rahbarga yuzlanadilar. Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh urug‘, do‘st-yorlar ham ulardan o‘zlarining muammolari yuzasidan yordam so‘raydilar. Bularning barchasi ularda stress manbai bo‘lib xizmat qiladi. Rahbar ishi yuzasidan juda ko‘plab yig‘inlar, marosimlar va shunga o‘xshash tadbirlarda qatnashadi. Bular ham stress manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ayni bir vaziyat kim uchundir stressli va boshqa bir insonga hal qilsa bo‘ladigan bo‘lishi mumkin. Barcha insonda bo‘lgan kabi, rahbarning ham o‘z ehtiyojlari va maqsadlari bo‘ladi. Ehtiyojlar biologik va psixologik bo‘ladi. Ularni qondirmaslik natijasida kishi frustratsiya holatiga tushib qolishi mumkin. Moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali kasallikning bo‘lishi, o‘z ishidan qoniqmaslik ham stress manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Ish bilan bog‘liq bo‘lgan stresslar rahbarlar deyarli har doim bo‘ladi. Ular bir vaqtning o‘zida juda ko‘plab masalalarni hal qilishlariga to‘g‘ri keladi. Uzoq vaqt davomida ishlash, ish yumushlarining ortib ketishi, o‘z ishini sevib bajarmaslik ularda stress manbalari hisoblanadi.

Emotsional toliqishning belgilari quyidagilardan iborat: motivatsiyaning yo‘qligi, uyqudagi bezovdalik, jahldorlik, fiziologik charchoq, umidsizlik, parisonxotirlik, apatiya, bosh og‘riqi, ovqatlanishdagi o‘zgarishlar, asabiylashish, diqqatni jamlashdagi qiyinchilik, mantiqsiz g‘azab, pessimizm, qo‘rquv hissi, depressiya.

Emotsional toliqish holatlarini bartaraf qilishda bir necha metodlarni keltirib o‘tamiz. Ularni ham ijtimoiy, shaxsiy va ish bilan bog‘liq turlarga ajratishimiz mumkin.

Quyida emotsional toliqishni bartaraf qilishga qaratilgan ba‘zi tavsiyalarni keltirish mumkin:

-O‘zingizga ko‘proq vaqt ajrating, buning uchun boshqalarga ajratadigan vaqtni cheklash kerak. "Yo‘q" so‘zini o‘zingizni ayblamasdan, himoya qilmasdan aytishni mashq qiling. Uni tahminiy ravishda emas, mehr bilan ayting. "Yo‘q" deyishni bahona bilan emas, tushuntirishlar bilan aytishni o‘rganing.

-O‘zingizga tanaffuz bering. Ertalab uyg‘ongandan keyin va kechqurun uyqudan oldin 10 daqiqa meditatsiya mashqlarini bajarish, dush qabul qilish, o‘tirgan holatda yurak urushungizdan sekinroq musiqa eshitish yoki yurak urishingizdan tezroq bo‘lgan musiqaga o‘zingiz hohlagancha o‘ynash, kitob o‘qish, velisopedda yoki piyoda yurish, sayr. Ular adrenalinni yo‘qotadi yoki uni paydo bo‘lishini oldini oladi. Tanaffusning foydasi shundaki sizning diqqatingiz ayni shu daqiqada jamlanadi, o‘tgan vaqtdagi stresslar yoki kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan stresslarni o‘ylash o‘rniga.

-Tana miya aloqasidan foydalanish. Bizning emotsiyalarimiz fikrlarimiz va xulq-atvorimiz natijasidir. Shuning uchun siz fikrlaringiz va xulq-atvoringizni tanlashingiz orqali emotsional toliqishga qarshi kurashishingiz mumkin. Miyangiz boshqalar aygan so‘zlarni eshitmasligi mumkin, ammo sizning gaplaringizni eshitadi. O‘zingizni fikrlaringizdan boshlang, bunda "Men yahshi bo‘laman " kabi affirmatsiyalardan foydalanish mumkin. Bunda stress darajasi pasayadi. Keyin xulq-atvor bilan ishlaysiz. Tanangizni favqulotda holatlarga bo‘lgan reaksiyasini o‘chirib qo‘yishingiz mumkin. O‘zingizni huddi hammasi yahshiday tuting, huddi energiyangiz bor, ishga borishni hohlayotganday va siz buni qilasiz.

-O‘z qarashingizni o‘zgartiring. Qiyin muammolar hayotning haqiqatlaridir, ular o‘zingizni jazolash uchun emas. Agar siz o‘zingizni ayblayotgan bo‘lsangiz, nimanidir boshqacha qilsam bo‘lar edi deb, uni muvaffaqiyatsilik deb emas, noqulay vaziyat deb o‘zgartiring. O‘z o‘zingizni ayblash emotsional toliqishga olib kelishi mumkin. Agar ular sizning xatoingiz bo‘lsa o‘zingizni kechiring.

Xulsoa qilib shuni aytish mumkinki, rahbarlarda emotsional toliqishni bartaraf qilish ko‘p omilli hodisa hisoblanadi. Ular gohida yashirin bo‘lishi ham mumkin, ammo ularni har doim hal qilish mumkin. Uni hal qilishda yuqorida ko‘rsatilgan tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Michael Hyland “Stress”. John Murray Learning. London. 2014 ⁴
2. www.healthline.com ¹
3. Wikipediya ²
4. www.psychologytoday.com ³



ПАРАФИНЛАР ВА ЦЕРЕЗИНЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ТАНЛОВЧИ АДСОРБЕНТЛАР ЁРДАМИДА ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИ МЕХАНИЗМИНИ ЎРГАНИШ

*Рахмонов О.К., Фарғона политехника институти,
Қаххоров У.Р., Фарғона политехника институти,
Атауллаев З.М., Урганч давлат университети a_zokir16@mail.ru*

Мақолада асосан жараёнда фойдаланувчи адсорбентлар ўрганилган. Шу билан биргаликда натижаларга асосан юртимиздаги маҳаллий адсорбентлар фойдаланиб ҳамда ишлаб чиққан адсорбентлардан фойдаланган холдаги нефтни қайта ишлаш корхоналарида минерал мойлар ва парафинларни тозалашда кенг миқёсида фойдаланиш кераклигини асослаб берилган.

***Калит** сўзлар: нефт, парафин, тозалаш, юттириш, адсорбент, композиция, нефт мойлари, ультратовуш, тўлқин.*

В статье в основном исследуются адсорбенты, используемые в процессе. В то же время, исходя из полученных результатов, обосновано использование широкого спектра переработки минеральных масел и парафинов на нефтеперерабатывающих заводах с использованием отечественных адсорбентов и разработанных адсорбентов в стране.

***Ключевые слова:** масло, парафин, очистка, абсорбция, адсорбент, состав, нефтяные масла, ультразвук, волна.*

The article mainly examines the adsorbents used in the process. At the same time, based on the results obtained, the use of a wide range of processing of mineral oils and paraffins at refineries using domestic adsorbents and adsorbents developed in the country is justified.

***Key words:** oil, paraffin, purification, absorption, adsorbent, composition, petroleum oils, ultrasound, wave.*

Биз биламизки хозирги кунда ишлаб чиқариш корхоналарини иқтисодий самарадорлигини ошириш экспорт боп янги махсулотлар ишлаб чиқариш долзарб масалалигича қолмоқда. Хозирда нефтни қайта ишлаш корхоналарида сифатли нефт махсулотлари олишда кўп турдаги адсорбентлардан фойдаланилади [1]. Бу адсорбентларни ишлаш давомийлиги ва олинаётган



маҳсулотни сифатли бўлиши учун жараёнга турли хил механизмини тадбиқ этилди.

Бизга маълумки минералогик ва кимёвий таркибига эга бўлган гил мойли адсорбентлар ҳар хил ўлчамда ва ғовакли ҳажмга эга бўлади. Парафинларни ушбу адсорбентларда самарали контакт билан тозалаш учун оптимал параметрларни аниқлаш керак [2].

Бугунги кунда нефтни қайта ишлаш саноатида асосан Россия Федерацияси Брянцова областидан импорт қилиб олиб келтирилган адсорбентдан фойдаланилади.

Биз томондан қуйидаги маҳаллий гил мойли адсорбентларни кимёвий таркиби ва хоссалари ўрганилиб чиқилди:

- Кермине конининг (Навоий вилояти) гил мойидан ясалган адсорбентлари;
- Навбахор конининг бентонитли гил мойли адсорбанлари (Навоий вилояти);
- Навбахор конининг палигорскитли гил мойли адсорбентлари (Навоий вилояти).

Тажрибаларимиздан аниқ бўлдики адсорбент турининг ўзгариши билан, яъни унинг минералогик таркиби, кимёвий таркиби ҳам сезиларли даражада ўзгаради. Масалан, бентонит адсорбенти таркибида СаО 0,48 %, палигорскит адсорбенти эса 10,08 % ёки опокага ўхшаш Кермине гилида - 13,56 % ни ташкил қилади. Бу фарқларнинг барчаси, албатта, улардаги ғовак тешикларининг катталиги ва ҳажмида акс этади.

Шуни инобатга олган ҳолда биз танланган гил мойли адсорбентларининг ғоваклилигини ва хусусан, ўтиш тешикларининг ҳажмларини текширдик.


Шу билан бирга биз олиб борган тадқиқотда, ўрганиш давомийлиги 30 минут, киритилган минимал босими симоб устунида 20×10^5 кПа ва ўрганилган гил мойларнинг массаси ҳар бири 0,977 грамга тенг.

Таҳлил натижаларига кўра тешикларнинг умумий ҳажми бўйича ўрганилаётган адсорбентлар қуйидаги камайиш тартибида жойлаштирилган: Кермине конидан опока гили > Навбахор конидан ишқорий бентонит > Навбахор конидан карбонат палигорскити. Бундан ташқари, худди шу жараён ўтиш тешиклари ҳажмларини таққослашда кузатилади.

Биз тажриба олиб бориш давомийлигида жараёнда ультратовушли тебранишлар хосил қилиш билан ҳам ўрганиб чиқдик. Бунда ультратовуш

тебранишлар частотасини парафинни 80-85°C хароратда тиниқлаш даражасига таъсирини ўрганиб чикдик. Тажрибалар давомийлиги 60 минут ва киритилган гил мойли адсорбентлари миқдори парафин массасининг 4,0 фоизини ташкил этди.

Тажриба натижаларини таққослаганимизда 1 расмда акс эттирилган график хосил бўлди. Ушбу расмдан кўриниб турибдики, Кермине конининг опокага ўхшаш адсорбенти учун ультратовуш частотасининг ишлаш оралиғини қуйидаги чегаралар ичида танлаш мақсадга мувофиқ: 15 дан 20 кГц гача, Навбаҳор конининг гидроксиди бентонити учун - 20 дан 25 кГц гача ва Навбоҳар конининг карбонат палигорскити учун - 25 дан 30 кГц гача.



1-расм. Ультратовуш тебранишлар частотасига (H) қараб, парафини тиниқлаш даражасининг ўзгариши (S) : ◆ - опока адсорбенти, ▲ - бентонит адсорбенти ■ - палигорскит адсорбенти

Ультратовуш тебранишларининг иш частоталаридаги бундай фарқ минералогик, кимёвий таркиби ва уларнинг тешиклари катталиги ва ҳажмининг хусусиятлари билан изоҳланади.

Ёруғлик ўтказувчанлиги вақт ўтиши билан ва ультратовуш тебранишлари частотасига қараб парафин сифатининг ўзгаришини тавсифлашга имкон беради.

Ушбу боғлиқликни ўрганиш 80-85 °С ҳароратда Навбаҳор конининг ишқорий бентонит адсорбентида парафин массасига нисбатан 4% ёрдамида амалга оширилди.

Олиб борилган тажрибалардан яна шу аён бўлдики катта босимлар нафақат сувоқликни урилишида, балки ковитацион ғовакни жисим юзасидан бир қанча масофага қисқаришида ҳам ҳосил бўлади.

Парафинни адсорбентлар билан тозалаш жараёнини 18, 21 ва 24 кГц ультратовуш таъсирида ва 120 - 600 секундгача ультратовуш тўлқини бериш вақти давомида ташқи тузатишлар, суюлтирилган парафинни адсорбентлар композитцияси билан тозалаш механизмларини ўрнатишни имконини берди [3]. Буни қуйидаги жадвалдаги олинган натижалардан кўриш мумкин.

Сувоқланган парафинга ультратовуш таъсирида газли пуфалчалар ҳосил бўлиши билан борадиган тўлқинсимон ҳаракат содир бўлади, булар эса ковитациянинг эффеќтини беради.

Парафинни тозалашдаги маҳаллий адсорбентларнинг гранулометриқ таркибини ўзгариши (ультратовушни 21 кГц частотада ва ультратовушсиз таъсирини боғлиқлиги).

Адсорбент номи	Донадорлик таркиби (сеткадаги қолдиқ),%			
	ультратовушсиз		21 кГц частотадаги ультратовуш таъсирида	
	сеткада 02 К	сеткада	сеткада 02 К	сеткада
Кермине опоковид глинаси. (Навоий вилояти.)				
Ишқорий бентонит, Навбохор конидан. (Навоий вилояти.)				

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики 21 кГц частотадаги ультратовуш тебранишлари ишлатилганда парафинни тозалашда ишлатилаётган адсорбентлар дисперсланади, яни уларни майдалангунгача содир бўлади.



Энг кўп майдаланишга бентонит, опоклар йўлиқади. Шуни ҳисобга олиб, биз томондан берилган адсорбентларнинг стандарт усуллари билан солиштирма юзаси аниқланади. Парафинни 21 кГц частотада ультратовушли тозалашда адсорбентнинг солиштирма юзаси ортади. Шунинг учун ультратовуш дисперслаган жараёни интенсификацияланади.

Ультратовуш тебранишлари частотасининг 15 кГц дан 25 кГц гача кўпайиши билан ишқорий бентонит адсорбентида парафинни тозалаш даражаси ошади. Бу 2-расмда берилган натижадан кўриниб турибди.

Бундан ташқари, учта ҳолатда ҳам, аниқлик даражаси, яъни парафин билан нур ўтказувчанлиги, маълум вақтгача кўпаяди ва кейин барқарорлашади.

Шуни айтиш мумкинки, ультратовуш тебранишлари частотасининг 15 кГц дан 25 кГц гача кўпайиши билан парафинни тозалаш жараёни вақтини қисқартириш мумкин, бу кўриб чиқиладиган жараёни кучайтириш имкониятини тасдиқлайди.

Парафинни ультратовушли тозалашнинг яна бир муҳим аҳамиятли параметрларидан бири бу нур тарқатиш интенсивлиги бўлиб, у Вт/см² билан ўлчанади.

Шундай қилиб, юқорида айтиб ўтилган тадқиқотлар натижалари ультратовуш таъсиридан фойдаланиб, парафинни тозалаш жараёни самарадорлигини ошириш олиб келади деган хулосага келишимизга имкон беради.

Шу билан бирга, ишлатилган гил мойли адсорбентининг ҳар бир тури учун парафинларни тозалаш учун мақбул шароитларни экспериментал тарзда аниқлаш керак.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, контактли тозалаш жараёнида қўлланаётган гилтупроқли адсорбентларни солиштирма юзаси ва дисперелигини ошириш ультратовушни қўллаш ҳисобигадир. Бу эса технологияда энергиядан тежамкорона фойдаланишга ва самарадорлигини оширишга олиб келади.

Адабиётлар

1. Мамадалиева С.В. Зависимость показателей очищаемого парафина от размера гранул применяемого адсорбента//Universum: Химия и биология: электрон. научн. журн. 2019. №11(65). URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/8079> (дата обращения: 23.11.2019).
2. Рахмонов О.К., Мамадалиева С.В. Механизм воздействия ультразвука на парафин при его очистке композицией адсорбентов из местных глин // Universum: Химия и биология: электрон. научн. журн. 2019. № 11(65). URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/8109> (дата обращения: 23.11.2019).



English Grammar: Understanding, Learning, Developing

Qurbonov Akobir

akobirqurbonov3902@gmail.com

Student of the 3rd faculty of English language

Uzbekistan State World Languages University

Scientific advisor

Dilrabokhon Akhmedjanova

daxmadjonova@gmail.com

Teacher at the UzSWLU

Abstract: English grammar is a fundamental part of language learning. This article will help you understand, learn and develop grammar in English. In the article, the origin of grammar, its historical development and the role of great personalities in the study of grammar are shown.

Мамлакатимизда кейинги йилларда таълим тизими умумжаҳон талаблари доирасида ривожлантириб, унинг қадим илдизларини, анъана ва қадриятларини сақлаб қолишгагина эмас, балки уларни янада такомиллаштиришга муваффақ бўлинди. Маънавий тарбия куннинг энг долзарб масаласи экан, бу ишга юртимизнинг барча зиёлилари – ўқитувчилар, журналистлар, ёзувчилар, врачлар, артистлар, барча раҳбарлар бирдек масъулдирлар.

Ҳар бир янги авлод моддий ва маънавий маданият негизини ҳар гал янгитдан яратмайди, балки ўтмиш авлодлар томонидан яратилган мавжуд маданий бойликларга таянади. Тарихий ворислик кишилик жамияти, жумладан, маданияти тараққиётининг зарурий шартидир. Маданият бойликлари жамият тараққиётининг муайян босқичида унинг эҳтиёжлари туфайли юзага келиб ва мазкур жамият ҳаётини акс эттириб, шу жамият билан бирга йўқ бўлиб кетмайди, балки ўз даврини ўтаб, кейинги авлодлар учун маданий мерос бўлиб қолади. Ушбу мерос ёшларимиз маънавиятини шакллантиришда, уларни ҳар томонлама комил инсон қилиб вояга етказишда салмоқли рухий ва маънавий озиқ бера оладиган ғоявий ва ҳиссий тарбия воситаси сифатида хизмат қилиши, ҳамда барча ижодкорларимиз учун илҳом манбаи бўлиб қолишига ҳеч шубҳа йўқдир.

Хулоса қилиб қуйидагиларни келтириш мумкин:

1. Муסיқа тарихини тадқиқ қилишда турли даврларда муסיқанинг ўзига хос соҳа сифатида, уни тингловчиларга кўрсатадиган таъсири борасида олимлар турлича фикрларни илгари суришгани, ҳар бир давр бу масалага ўзининг нуқтаи назарини билдирганлиги маълум бўлди. Пифагор-Афлотун мактаби намоёндалари фикрича муסיқа ҳақиқатнинг, борлиқнинг акси бўлиб, у коинот маҳсулидир. Унинг қонуниятларини математика фани ёрдамида билиш мумкин деб ҳисоблашган. Арасту муסיқа тушунчасини табиий товушдан бадий оҳанг даражасига олиб чиқди ва уни руҳнинг ҳаракати деб таърифлади. Арасту муסיқани яна ижтимоий ҳодисалар қаторига қўшди.

2. Муסיқа санъатнинг бир тури сифатида санъатшунослик ва эстетика фанларининг предмети бўлиб хизмат қилади. Муסיқа ижод психологияси фанининг ҳам предметиدير, лекин энг муҳими, муסיқа мантиқ фанининг предмети ҳисобланади. Муסיқа нафақат қатор фанлар предмети, балки инсон дунёси онтологиясини, инсон фаолиятининг турли шаклларини қамраб олган ходисадир. Бу эса махсус фан – муסיқа фалсафасини, яъни дунёни муסיқа орқали аниқлаш фанини вужудга келтиради.

3. Шарқ мутафаккирларнинг фалсафий таълимотларида муסיқа санъатига оид қатор фикрлар билдирилган. Улар таълим ва тарбиянинг ягона вазифаси – жамият талабларига тўла мос равишда ва ягона бутунликда, тинчлик ва фаровонликда яшашга ҳақли идеал инсон тайёрлаш деб тушундилар. Муסיқа эса инсон ички дунёсининг ҳиссиётли томонлари билан бирга маънавий оламини бутунлайича ифода этиб, унинг ақлий ва ирода кудратини, яхлит қиёфасини ярата оладиган ижтимоий ҳодиса сифатида эътироф этилди. Уларнинг ижодида муסיқий-тарбиявий қарашлар ўзига хос икки услубда талқин этилди. А) муסיқий-назарий (Абу Наср Форобий, Ибн Сино, Ал-Хоразмий, А.Жомий ижодида). В) муסיқий-дидактик (У.Кайковус, А.Навоий ижодида).

4. XX асрнинг биринчи ярмида ўзбек муסיқа санъатининг назарий асосларини яратишда А.Фитратнинг меҳнати катта бўлди. Унинг “Ўзбек мумтоз муסיқаси ва унинг тарихи” китоби Ўзбекистон муסיқа маданиятида янги қарашлар шаклланганини кўрсатди. Унингча дунё муסיқа маданиятидаги Шарқ ва Ғарб муסיқаларининг илғор анъаналарини камол топтириб, ижодий ютуқларга эришиш мумкин. XX асрнинг иккинчи ярмида Республикада мумтоз куй ва оҳанглар билан бир қаторда эстрада ҳам ривож топди. Ҳозирги

кунда унинг йўналишлари кўпайиб кетиб, ёшлар тарбиясига ижобий билан бир қаторда салбий таъсирлар ҳам кўрсатмоқда.

5. Ўзбек миллий муסיқа маданиятида миллий қадриятга айланган асарлар сарасига “Мақом”лар киради. Улардаги чуқур мазмун оддий инсонлардан тортиб, етук муסיқашуносларни ҳам ҳайратга солиб, тобора янги қирраларни очмоқда. Тановор куйи, ашула ва рақси ҳам ўзбек халқининг чинакам миллий қадриятидир. Ижтимоий-сиёсий мазмундаги муסיқа асарларидан Ўзбекистон Давлат мадҳияси ҳам қадрли. Ушбу мерос ёшларимиз маънавиятини шакллантиришда, уларни ҳар томонлама комил инсон қилиб вояга етказишда салмоқли руҳий ва маънавий озик бера оладиган ғоявий ва ҳиссий тарбия воситаси сифатида хизмат қилиши мумкин.

6. Халқ яратган кўшиқларнинг ҳамма турларида юксак, олижаноб ғоя ихчам бадиий шаклларда ифодалангандир. Уларга лапар, ялла, терма, ашулалар киради ва кўпчилик тингловчилларга мўлжалланган. Кўшиқнинг мазмунида ёшларга ва умуман ватандошларга бўлган чақириқ руҳи сезилиб туриши, Ватан мустақиллиги нақадар буюк қадрият, уни эъзозлаш, ҳимоя қилиш ёшлар учун бурч ва муқаддас эканлиги ифодаланиши керак.

7. Маънавий тарбия бугунги куннинг энг долзарб масаласи, бу ишга юртимизнинг барча зиёлилари – ўқитувчилар, ёзувчилар, санъат ходимлари, барча раҳбарлар бирдек масъулдирлар. Хусусан талаба ёшлар билан Республикаимизнинг кўзга кўринган адабиёт ва санъат арбобларининг учрашувларини ташкил қилиш, кўзга кўринган олимлар иштирокида турли илмий-амалий анжуманлар уюштириш каби муҳим ишлар амалга оширилмоқда.

8. Шарқ халқларининг бетакрор миллий муסיқаси ва кўшиқларини кенг миқёсда тарғиб этиш, миллий анъаналарни сақлаш, халқлар ўртасидаги дўстликни мустаҳкамлаш ҳамда ижодий ҳамкорлик ва маданий-маънавий алоқалар доирасини кенгайтириш мақсадида республикада мустақиллик йилларида “Шарқ тароналари”, “Асрлар садоси”, “Бойсун баҳори” каби анжуманлар ўтказиладиган бўлди ва улар ёш авлодни миллий муסיқа санъатига муҳаббат руҳида тарбиялашда албатта ўз самарасини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов Ш., Шамсутдинов Р.Т. Ватан тарихи. Тошкент.: Ўқитувчи 1997. –Б. 527.
2. Маънавият юлдузлари. – Тошкент.: Мерос, 1999.-Б. 290.
3. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. Тошкент.: Ўзбекистон 1971. –Б. 312
4. Имом ал - Бухорий. Ҳадис. (Ишонarli тўплам) 4 китоб. -Тошкент.: Қомуслар бош тахририяти, 1991 — 1996.
5. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cell Biology 25(4) 9092-9100
6. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
7. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEV'S PEDAGOGICAL ACTIVITY GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) 9(5) 240-244
8. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) TANBUR ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) 9(6) 302-308
9. Achildiyeva M, Ikromova F(2022) CHOIR ART IN UZBEKISTAN BOTIR UMIDJONOV (EURASIAN JOURNAL OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES 7 54-56
10. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) “The third renaissance towards ascending” EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open access, peer reviewed multidisciplinary journal” 2 (9) 17-20
11. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open access, peer reviewed multidisciplinary journal” 2 (4) 460-463
12. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Yuldasheva D, Ikromova F (2021) Uyghur Folk Singing Genre Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry 12 (10) 3510-3515
13. Ikromova F, O‘ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO‘LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
14. Achildiyeva M, Ikromova F РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ



ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ UIF-2022: 8.2
SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet

15. Хожимаматов А, Икромова Ф МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet
16. Икромова Ф SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
17. Хожимаматов Азимжон CHANG CHOLG‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
18. Муйassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
19. Муйassarxon Achildiyeva, Farangiz Икромова, [THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART](#), [Archive of Conferences: Vol. 10 No. 1 \(2020\): GTIMSC-2020](#) (90-93 bet).



PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA

Muyassarxon Achildiyeva

Farg‘ona davlat universiteti

“San’atshunoslik” fakulteti

“Musiq ta’limi va madaniyat” kafedrası o‘qituvchisi

muyassar1903@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek musiqa san’atida alohida ahamiyat kasb etadigan musiqiy janr patnisaki ashulaning ijtimoiy jarayonda falsafiy taraqqiyoti borasida qimmatli fikr va mulohazalar aks etadi. Shuningdek, katta ashulaning mazmun mohiyati, tarixiy rivoji, musiqa san’atimizdagi o‘rni va mavqeyi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: katta ashula, “patnis ashula”, milliy ruh, ijtimoiy jarayon, falsafiy tafakkur, “ustoz-shogird” an’anasi, maqom.

Аннотация: В данной статье отражены ценные мысли и мнения о философском развитии патнисаки ашула музыкального жанра, имеющего особое значение в узбекской музыке. Также будут обсуждаться значение, историческое развитие, место и положение большой песни в нашем музыкальном искусстве.

Ключевые слова: катта ашула, «патнисная ашула», народный дух, социальный процесс, философское мышление, традиция «учитель-ученик», маком.

Abstract: This article reflects valuable thoughts and opinions about the philosophical development of patnisaki ashula, a musical genre that is of particular importance in Uzbek music. Also, the meaning, historical development, place and position of the big song in our music art will be discussed.

Key words: katta ashula, "patnis ashula", national spirit, social process, philosophical thinking, "teacher-disciple" tradition, makom.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy



makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish [konsepsiyasi](#) (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo'yicha “[yo'l xaritasi](#)” tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020 yildagi PF-6000-son “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni hamda millat ma'naviyati va madaniyatini yanada yuksaltirish asosini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori o'zbek musiqa san'ati va madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi tarixiy qaror sifatida barchamizga quvonch baxsh etishi bilan birgalikda o'ziga xos ma'suliyatni sohani rivojlantirish bo'yicha oldimizga muhim vazifalarni yukladi.

Insonning ma'naviy shakllanishida oilaning, maktabning, jamiyatning ahamiyati katta. Chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofda go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim o'rin tutadi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo'lgan. Tashqi olamni o'zgartirish bilan insonning o'zi ham o'zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib boradi. Musiqa san'ati hayotni bilish va inson tarbiyasining qudratli

vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liqdir.

Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqa haqida Abu Ali Ibn Sino o'zining asarida yozgan. Bu “Kitob ash-shifo”, (“Shifo kitobi”) nomli ko'p jildlik qomusiy asarning musiqa haqidagi bo'limidir. Ibn Sinoning ta'rificha, san'at, jumladan, musiqa fandır. Bundan san'atning “aql bilan idrok etish” yoki “buyumlarning bilish” mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Bunda san'at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan. Buyuk olim ta'kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim.

She'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insoning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. “Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir”, - deydi, A.Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. O'zbek xalqi hayotidagi murakkab tarixiy sharoitlar madaniyat va turmushning feodal me'yorlari doirasidan tashqari chiqish imkonini bermagan. Asrlar davomida yig'ilgan oddiy va ma'naviy boyliklarni bosqinchilar egallab olgan yoki yo'q qilib tashlashgan. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyliklarini yo'q qilib yubordi. Lekin shunga qaramasdan davrlar osha, tarixiy davrlar osha xalqning qimmatli madaniy merosi shu kunlarga yetib keldi.

Ongli mehnat jarayonida inson tafakkuri takomillashdi va taraqqiy etdi. His tuyg'ularni, kayfiyat, ehtirolarni ifodalash musiqaning eng kuchli xususiyatiga aylandi. Kishining his va kayfiyati o'z-o'zicha namoyon bo'lmaydi. Kishining his va kayfiyatlari manbai real hayotdir. Biz vaziyat ta'siriga ko'ra yo g'am chekamiz,



yoki xursand bo‘lamiz, g‘azabimiz oshadi, yoki shodligimiz ichimizga sig‘maydi, yoki ranju-alam chekamiz. Binobarin, agar musiqa bunday his-tuyg‘ularni ifodalar ekan, demak, u voqelikni aks ettiradi. Ammo musiqa mazmunini muayyan bir hislar ifodasidan iborat qilib qo‘yish yaramaydi.

Musiqa, shuningdek, fikrlarni o‘zida mujassamlantirishga ham qobildir. Musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o‘tmish g‘oyalarini ko‘r-ko‘rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash va insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o‘zlashtirish va ijodni qayta ko‘rib chiqish zarurligini bildiradi. Kompozitorlarimizning xalq musiqa san‘atini ijodiy o‘rganishi natijasida o‘zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo‘lib qo‘shilgan san‘at asarlari vujudga keldi. Go‘zallikka tashnalik sezgan inson qalbidan, yurak to‘ridan o‘rin olgan qo‘shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi.

NATIJALAR

O‘zbek xalqining ko‘p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida **katta ashula** janri salmoqli o‘rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo‘lib, asosan Farg‘ona vodiysiga xos, ikki-to‘rt ijrochi (hofiz) tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz ijro etilgan. Katta ashula deb nomlanishiga sabab – bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o‘ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidadir. Uni xalq orasida «patnis ashula» yoki «patnusaki ashula» deb ikkinchi nom bilan ham atashgan.

Ashulani hofizlar qo‘llariga patnis yoki likobcha (tarelka) ushlab, ijro jarayonida ovoz yo‘nalishini o‘zgartirishga hamda o‘z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to‘lqinlatib, qochirimlar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi. Bundan tashqari, katta yig‘inlarda, to‘y-tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga «katta ashula» nomi berilgan bo‘lishi mumkin. Katta ashula ijrochidan zo‘r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so‘z bo‘g‘inlariga e‘tibor qilishni, she‘rning ma‘nosini va so‘zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

**KATTA ASHULA
JANRINING ASOSIY
XUSUSIYATLARI:**

1. Bir vohada shakllanib, rivoj olishi (Farg‘ona vodiysida);
2. O‘ziga xos ijro uslubi – ikki (yoki uch-besh) xonandalar tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz, galma-gal aytilishi;
3. Badihago‘ylik (har bir xonanda ijrosida);
4. So‘z va kuy mutanosibligi;
5. Professionallik mahorat va qobiliyat mavjudligi (ijrochi professionallik talablariga javob berishi lozim);
6. So‘z matnida noshe‘riy bo‘g‘in (a.o) va iboralardan (yor, voyey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa, avj qismida);
7. Ta‘sirchanlik;
8. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchi, balandligi, tembri, uslubi xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur);
9. Erkin talqin etish;
10. Ijro an‘analariga bo‘ysunish va


Katta ashula o‘rta asrlarda marosim va mehnat qo‘shiq-aytimlari negizida, mumtoz she‘riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz G‘azallarni an‘anaviy o‘qish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o‘tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik G‘azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she‘rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she‘rlari bilan aytila boshlangan. XX asrda zamonaviy o‘zbek shoir (Xabibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, O‘tkir Rashid, Erkin Vohidov va b.)lar she‘rlari ham qo‘llangan. Katta ashula taraqqiyotida masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas kabi poetik janrlar ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, bunga misol tariqasida Miskinning «Ey, dilbari jononim» she‘rini keltirish mumkin:

*Ey, dilbari jononim, ko‘p nozu itob etma,
Yuz jabru jafo birla holimni xarob etma.
Mastona ko‘zing birlan qoshing qilichin tortib,
Bir-biriga himo aylab, qatlinga xitob etma.*

Aruz vaznida yozilgan bu G‘azal tinglovchilarda zavqu-shavq, turfa ruhiy kechinmalar uyg‘otib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik – she‘riyatning eng asosiy fazilatlaridan, deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham katta ashula yoki ashula deyilganda, xalqimiz nazarida musiqa asarlari namoyon bo‘ladi, vaholanki, musiqa asarlarining o‘zi ham



mustaqil mazmunga ega va inson qalbining eng nozik his-tuyg‘ularini ifoda eta oladigan san’at turlaridandir.



Barcha millatning o‘zligini ko‘rsatadigan urf-odatlar, rasm-rusumlari, an’analari bo‘ladi. Ayniqsa milliylik ruhini madaniyat sohasi, xususan san’at keng ochib beradi. O‘zbek halqining madaniyati, birgina ashulachilik an’analari, an’anaviy xonandalarning mahorati orqali bu millatning san’atini, naqadar yuksakligini, boy san’atligini, o‘tmish zamonlardan buyon oltin merosga ega ekanligini anglash qiyin emas. Davlatimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgandan boshlab urf-odatlarimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimiz qayta tiklanib ularni hayotga qayta tatbiq etishga katta imkoniyatlar berildi.



Madaniyat, ayniqsa musiqa sohasida ham izlanish, o‘rganish uchun imkoniya eshiklari ochildi. Mumtoz musiqamiz hisoblanmish maqomlarimiz, ashulachilik sohasiga katta e‘tibor berilmoqda. Ijrochilik san‘atining eng murakkab sohalaridan biri xonandalikdir. Xonandalik uchun musiqa bilan birgalikda she‘riyat ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa buni an‘anaviy xonandalik, hofizlikda ko‘rish mumkin. “Xonandalik san‘ati – doimo milliy jarayon, o‘tmish an‘anasiga, zamon ruhiyati va albatta taraqqiyot omili bilan bir safda bo‘lib kelgan. Bunga yaqqol misol sifatida allomalar Al-Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Najmiddin Kavkabi, Zaynulobiddin Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiylarning yaratgan risolalarini faxr bilan tilga olish mumkin”¹.

MUHOKAMA

Farg‘ona vodiysi qadimdan o‘zbek an‘anaviy yo‘llariga musiqa madaniyatimizning boy xazinasiga ega desak adashmagan bo‘lamiz. Ana shu xazinadagi yorqin javohir – bu katta ashuladir.

Katta ashula Farg‘ona vodiysida shakllanib asrlar davomida rivojlanib, avlodlardan avlodga, ustozdan shogirdga, otadan o‘g‘ilga o‘tib bizning davrimizgacha yetib kelgan og‘zaki an‘anadagi professional musiqa san‘atining to‘la qonli asl janri hisoblanadi. Bu janr haqida ilmiy nazariy tadqiqotlar olib brogan san‘atshunoslik fanlari doktori, professor, atoqli musiqashunos olim Rustam Abdullayevdir. Olim o‘z ishida Farg‘ona vodiysi – jumladan Marg‘ilon – Yozyovon, Farg‘ona, Quvasoy, Andijon, Baliqchi, Qo‘qon – Beshariq, Namangan shaharlarida katta ashulachi deb nom taratgan hofizlarning ijodini alohida o‘rganib chiqish bilan bir qatorda, bu janrning musiqiy jihatlarini ochib beradi.

Katta ashula o‘z diapazonining kattaligi (uch oktavaga yaqin), yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilishi o‘ziga xos murakkab ijro uslubida ekanligi, ohang rivojining ko‘lamligiga qaramasdan kuy asosining rehitativsimonligi hamda metro ritmik erkinligi bilan ajralib turadi. Katta ashula og‘zaki an‘anadagi o‘zbek professional musiqasida qo‘shiq janri bo‘lib, o‘ziga xos ohangi va she‘riy tili va ijrochilik uslubiga ega.

Ularni erkin emotsional, kuy rivojlanishining dinamikligi, musiqiy vositalarning ekspressiv va lokallik xosdir. Ushbu janrni musiqashunoshlar – xattoki, ijrochilar yaxlit ifodalaganda uni turli tomonlarini belgilab berishgan. Ba‘zilar uning shakli jihatdan masshtabiga urg‘u bergan bo‘lsa, musiqashunos Rustam Abdullayev o‘zining tadqiqotida katta ashula haqida Qo‘qonlik A. Boboyev,

¹ A.Zokirov “ Hofizlar silsilasi ” T. 2006 magistrlik dissertasiyasi 4-s.



M.Yusupov hamda Farg‘onadagi S.Hoshimov, S.Azizov bilan bo‘lgan suhbatlarda ko‘plab ijrochilar shu janrning o‘ziga xos uslublari, kelib chiqishi tarixi va ustozlari, qolaversa xalq orasida hozirgi kungacha mavjud va mashhur bo‘lib kelayotgan patnis va patnisaki yo‘llarini yaratib bergan.

O‘z vaqtida “patnisaki ashula” qadimdan nomlangan degan fikrlar bor edi, lekin bu fikrlar noto‘g‘ri. Chunki “patnis” so‘zi rus tilida “padnos” so‘zidan olingan holda XIX asrda shunday nomlana boshlagan. Yuqorida keltirilgan nomlari bilan bir qatorda Qo‘qon va uning atrofidagi qishloqlarda “patnisaki yalla”, “likobi Ushshoq”, “likobi Chorgoh ” deb nomlangan Qo‘qon ashulalari “haqqoniy ashula” nomini olgan².

Bunday deyilishiga sabab uni cholg‘u sozi jo‘rligisiz, qo‘lga patnis yoki likobcha ushlagan holda aytilishidir. Patnis yordamida hofizlar o‘zlari uchun o‘ziga xos tembr uslubiy fan, yengil usul, qandaydir darajada tovushni boshqarib turish, ayniqsa avj qismida ovoz yo‘nalishini o‘zgartirishga hamda uni silkitish orqali ovozni to‘qinlantirib, qochirimlar qilishga erishadilar. Farg‘ona va Marg‘ilonda katta ashula ijrochilarini patnisaki ashulachi deb ham atashgan.

Katta ashulaning tarixiy rivojlanishi va kelib chiqish davri o‘tmish zamonlarga borib taqaladi. Musiqashunos Rustam Abdullayev o‘zining “Katta ashula” nomli maqolasida shunday yozadi,- “katta ashula janrini paydo bo‘lishi qachon va qay tarzda shakllanganligi haqidagi savollarga javob berish mushkul. Chunki ular haqidagi aniq ma’lumotga ega emasmiz. Bir qancha XIX asrdagi yozma manbalarda katta ashula o‘ziga xos bo‘lgan unsurlar haqida surishtiriladi, lekin ular boshqa nomlar bilan atalgan. Ular haqidagi ma’lumotlarga ega emasmiz”³.

Qadimda xalqimiz orasida katta ashulaga o‘xshash ashula turlari keng tarqalganligini ko‘plab manbalarda kuzatishimiz mumkin. Ularga sasoyi va xonaqoxi, patnisaki yalla yoki likobi ashula, navha, savt ayolg‘u deb nom berilgan. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo‘shiqlari, marsiya hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimiy o‘qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. “Xonaqoxi” deb yuritiladigan ashulalarning asosiy qismi ham shu turkumga mansubdir. Katta ashula o‘zining mazmunidan qat’iy nazar she’r vazniga bog‘liq holda yuzaga kelgan. Shu onda yaratilgan g‘azallar esa ravon va ashulabop bo‘lgan. Katta ashulaning yuzaga kelishida g‘azalxonlik muhim o‘rin egallagan.

² M.Achildiyeva tarjimasini. R.Abdullayev “Katta ashula”//Muzika narodov Azii I Afriki. Vip. V, M. 1978 g

³ M.Achildiyeva tarjimasini. R.Abdullayev “Katta ashula”//Muzika narodov Azii I Afriki. Vip. V, M. 1978 g

Katta ashula odatda yig‘inlarda, sayillarda, to‘y- tomoshalarda aytilgan. Katta ashulaning obraz tuzilishi an‘anaviy she‘riyatning lirik falsafiy tarkibi bilan bog‘liq bo‘lgan. Uning o‘tmishdagi namunalarida lirik va nasihatombir g‘azallar bilan bir qatorda diniy tasavvuf yo‘nalishidagi she‘rlar ham kuylangan. Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Lutfiy, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g‘azallari katta ashula janridan alohida o‘rin egallagan. Katta ashulada lirika asosiy o‘rinni egallagan. Ularning mazmunida inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinch va iztiroblari lirik ifoda topgan. Xalq orasida Navoiyning “Do‘stlar”, Muqimiyning “Ko‘p erdi”, “Yolg‘iz”, “Adashganman”, Furqatning “Oh kim”, “Rahm aylamas”, Miskining “Bir kelsun”, “Ey dilbari janonim” kabi katta ashulalari keng tarqalgan.

Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charhiy, Sobir Abdulla, Akmal Po‘lat, Vosit Sa‘dulla, Nasimiy, Erkin Vohidov, O‘tkir Rashid va boshqa shoirlarining she‘rlari ham katta ashulada sevib ijro etilgan va hozir ham keng omma orasida mashhur bo‘lib kelmoqda. Katta ashula ijrochiligida badihago‘ylik uslubidan keng foydalanilgan. Bu esa undagi rechitativ va ohangdor tuzilmalar bir-biriga mukammal va uzviy bog‘lanishini ta‘minlangan, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitgan turli avjlar qo‘llanishiga olib kelgan. Katta ashula kuysiz aytilishi ya‘ni xanglar tufayli ijro vaqtida badihago‘ylik katta yordam bergan. Shuning uchun ham ashulaning kuy tuzilishi xarakteri, ritm va naqsh bezaklari tomonidan ajralib turgan.

Katta ashula ijrochisi avvalo an‘anaviy “ustoz – shogird” maktabini o‘tagan, she‘riyat qonunlari ijrochilik an‘analariga tayangan holda va keng diapozonli baland hamda tik ovozga, mahoratga ega bo‘lishi lozim. Bu esa ijrochidan yuksak qobiliyatni, malaka va bilimdonlik qolaversa so‘zlarni tinglovchiga aniq yetkazishni talab qiladi. Bu xususida san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor, musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov yozadi. “Katta ashula xonaqodan tashqari ilohiy mavzulardagi ashulalarni mumtoz kuy yo‘llariga solib aytish, ular xalq orasida “katta ashula” nomi bilan yuritiladi. Katta ashula erkin vaznda ijro etilishini taqazo etadi. Shu bilan birga, qat‘iy tartib va nizomli maqom yo‘lidan farqli o‘laroq, bu toifa ashulalar “Yovvoyi uslub” deb atalgan. Masalan: “Yovvoyi Ushshoq”, “Yovvoyi Chorgoh” kabi kuylar – katta ashulaning cholg‘u ko‘rinishidir. Bu an‘analar Farg‘ona-Toshkent vohasining mumtoz uslubi sifatida hanuzgacha davom

etib kelmoqda. Sho‘ro davrida katta ashulaning eski diniy so‘zlari olinib, zamonasoz yangi she‘rlar bilan aytish rasm bo‘lgan edi”⁴.

XULOSA

Xulosa qilib, musiqa voqelikni alohida, faqat unga xos shaklda aks ettiradi, jamiyat va zamonning asosiy g‘oyalarini, kishilar munosabatidagi eng muhim narsalarni ifodalaydi. Musiqa voqelikni falsafiy umumlashtirilgan asosda anglaydi. Har bir kompozitor ijodida u yashayotgan zamonning, davrning qandaydir xususiyati o‘z ifodasini topadi. Musiqaning kishilarga ta‘siri juda kuchlidir, chunki u kishilar his-tuyg‘ularini o‘ziga maftun etadigan, yuksak emotsional san’atdir. Musiqa kishiga ilgari uncha ma‘lum bo‘lmagan ajoyib yuksak tuyg‘ularni ochib beradi, u kishini o‘zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir.

Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafasat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma‘naviy ozuqa beradi. Shuningdek, musiqa insonni go‘zallikka yetaklovchi bir vosita bo‘lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun ham musiqani inson tabiatidagi barcha yaxshi hislatlarning ifodasi deb bekorga aytmaganlar. Musiqani sevgan kishi ruhan boyiydi, qalban noziklashadi, ma‘naviyati yuksaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. P.Абдуллаев. «Жанр катта ашула и его носители» (Монография), Ташкент.: 1988 г.
2. R.Abdullayev. O‘zbek mumtoz musiqasi. Toshkent.: 2007 y.
3. P.Абдуллаев. Катта ашула. (мақола). Ўзбекистон санъати. Тошкент 1989 й.
4. P.Абдуллаев. Шедевры культурного наследия. Мозийдан садо. 1(45) Тошкент.: 2010 й.
5. «Музыка народов Азии и Африки» выпуск V Москва.:1978 г.
6. “Шашмақом сабоқлари” II китоб, Тошкент.: 2005 й.
7. O.Матяқубов. “Мақомот” Тошкент.: 2004 й.

⁴ Matyoqubov O. “Maqomot” Toshkent 2004 yil.

8. О.Матёкубов. Оғзаки анъанадаги профессинол музика асосларига кириш. Тошкент:. 1983 й.
9. А.Зокиров “Ҳофизлар силсиласи”. (Магистрлик диссертацияси) Тошкент:. 2006 г.
10. С.Маннопов. “Сўнмас наволар” (оммабоп бадий рисола):. 2002 у.
11. Audio yozuv M.Tojiboyev bilan bo‘lgan suhbat. T:.. 2007 у.
12. Андижон санъати фидойилари. Тошкент:..2018 й.
13. А.Одилов. Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. Тошкент:..1995 й.
14. T.Ortiqov. Musiqa o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.2010 у. "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Special Issue 1 www.openscience.uz 128
15. Mannonov S. O‘zbek xalq musiqasi madaniyati. Monografiya.
16. H.Nurmatov, N.Yo‘ldosheva « O‘zbek xalq musiqasi ijadiyoti» o‘quv qo‘llanma. - T .:«G‘ofur G‘ulom» nashriyoti, 2007 у.
17. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. Science and Education, 1(Special Issue 4), 215-222.
18. G. Sharipova «Musiqa metodikasi». - T.« O‘zbekiston faylasuflar» nashriyoti, 2012 у
19. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. Academic research in educational sciences, (3).
20. Асадуллаева .М.А. “Халқ таълими” Ёшларни маънавий тарбиялашда кўшиқчилик санъатининг тутган ўрни. 2020-№3
21. Махкамова, Ш. Р. Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Science and Education, 1(Special Issue 4).
22. Халилова Махфуза “SAN’AT – MOJIZADIR” SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. SPECIAL ISSUE 4 169-176 .
23. M.Achildieva, N.Butabayeva, M Nasirova A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6 bet
24. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet “Tomaris” in the culture of Uzbek ballet plase and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)

25. Achildiyeva M. Ikromova F. “O‘zbek musiqa san’atida maqomning o‘rni” Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference . London 2020 90-93 bet
26. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. “Uyghur Folk Singing Genre” Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
27. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
28. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
29. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4) 460-463
30. Xojimamatov A. Nazarxodjayeva R. Korrupsiya – asr vabosi
31. Ikromova F. O‘ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO‘LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
32. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO‘LLARINING QO‘LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet
33. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet
34. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN:2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
35. Hojimamatov Azimjon CHANG CHOLG‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriental Renaissancye: Innovative, yeducational, natural and social sciycencies VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN

- 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947
Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
36. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissancye: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
37. Xojimamatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO‘LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.
38. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.
39. Achildiyeva M, Ikromova F “The third renaissance towards ascending” EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open access, peer reviewed multidisciplinary journal” (Spain 2021 sentyabr) ISSN (E): 2660-5562 17-20 bet
40. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683 54-56 bet
41. Hojimamatov A Ikromova F A Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of S.I.Taneev Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683 87-89 bet

Qisqichbaqasimonlar va ularning xilma xilligi

Jo‘raxonova Dildora Ismoiljon Qizi

Ne‘matjonova Mohigul Muhammad Ali qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya
yo‘nalishi 1-bosqich 103- guruh talabalari

Annotasiya : Qisqichbaqasimonlar, qisqichbaqalar — bo‘g‘imoyoqlilar tipining sinfi. 30000 ga yaqin turi bor. Yashash muhiti va tarqalishi. Qisqichbaqasimonlar birlamchi suv hayvonlari hisoblanadi. Asosiy ko‘pchilik turlari suvda yashaydi.

Kalit so‘zlar : qisqichbaqasimonlar , siklop , dafniya , bo‘g‘imoyoqlilar , birlamchi suv hayvonlari, omar , krab , langust.

Qisqichbaqasimonlar, qisqichbaqalar — bo‘g‘imoyoqlilar tipining sinfi. 30000 ga yaqin turi bor. Uzunligi mm ning bir bo‘lagidan 80 sm, ba‘zi gurlari (mas, yapon krabi) oyoqlari yoyilganida tanasining kengligi 3 m ga yetadi. Tanasi bo‘g‘imlarga bo‘lingan, odatda, 3 bo‘lim: bosh, ko‘krak va qorin farq qilinadi; xitin sovut bilan qoplangan. Bir xil qisqichbaqasimonlarning yaxlit bosh kapsulasi (sinsefalon) antennalarga ega bo‘lgan bosh o‘simtasi va 4 bosh bo‘g‘imidan iborat. Bosh bo‘g‘imlarida antennalar, bir juft yuqori jag‘, 2 juft pastki jag‘ joylashgan. Boshqa qisqichbaqasimonlarning akron va antennal bo‘g‘imdan iborat birlamchi boshi (prototsefalon) jag‘ bo‘g‘imlari (gnatotsefalon) bilan harakatchan qo‘shilgan. Odatda, qisqichbaqasimonlar ko‘kraging bir necha bo‘g‘imlari bosh bilan qo‘shilib, boshko‘krakni hosil qiladi, ularning o‘simtalari esa oziqni maydalovchi va og‘izga suruvchi oyoq jag‘larga aylanadi. Ko‘pchilik qisqichbaqasimonlar boshining keyingi qismi va ko‘krak bo‘limi yon va ustki tomondan qalqonsimon, ikki tavaqali yoki yarim silindr shaklidagi xitinlashgan sovut bilan qoplangan. Ayrim qisqichbaqasimonlar (mas, shoxdor mo‘ylovdilar boshi cho‘ziq pastga egilgan tumshuq — rostrumga aylangan. Qisqichbaqasimonlarning turli guruhlarida ko‘krak va qorin bo‘g‘imlari soni va oyoqlarining tuzilishi har xil. Tuban qisqichbaqasimonlar ko‘rkak oyoqlari harakatlanish, nafas olish va oziqni og‘izga surish vazifasini bajaradi. Birmuncha yuksak tuzilgan qisqichbaqasimonlarda bu vazifalarni har xil oyoqlar bajaradi. Faqat yuksak qisqichbaqasimonlar uchun xos bo‘lgan qorinoyoqlar nafas olish, urug‘lantirish, tuxumlarni olib yurish. ba‘zan



harakatlanish vazifasini bajaradi. Oxirgi qorinoyoqlar (uropodlar) ko‘pincha anal bo‘lagi bilan birga dum suzgich — telsonni hosil qiladi. Ko‘pchilik qisqichbaqasimonlar telsonida ayrim o‘simta bo‘ladi.

Qisqichbaqasimonlar nerv sistemasi bosh miya va qorin nerv zanjiridan iborat. Ko‘rish organi, odatda, fasetkali ko‘z; ko‘pincha oddiy naupleus ko‘z ham saqlanib qoladi. Ba‘zi qisqichbaqasimonlarning ko‘zi bo‘lmaydi. Oshqozoni chaynovchi, jigari o‘rta ichakka ochiladi. Qisqichbaqasimonlar jabra, ba‘zi mayda turlari tana yuzasi orqali nafas oladi. Qon aylanish sistemasi ochiq, yuragi orqasida; ba‘zan bo‘lmaydi. Ayirish organlari — maksillar va antennal bezlar.

Qisqichbaqasimonlar sefalokaridlar, jabraoyoqlilar, chig‘anoqlilar, eshkakoyoqlilar, karpoxo‘rlar, mo‘ylovoyoqlilar, o‘noyoklilar kenja sinflariga bo‘linadi. Asosan, dengizlar, chuchuk suvlarda, ayrim turlari quruqlikda yashaydi yoki parazit hayot kechiradi. Bir hujayrali organizmlar, detrit, organik moddalar, o‘simlik va hayvonlar, o‘laksalar bilan oziklanadi.

Ko‘pchilik qisqichbaqasimonlar ayrim jinsli, bir qancha turlari partenogenez yo‘li bilan ko‘payadi. Tuxumlarini ko‘pincha urg‘ochilari olib yuradi yoki maxsus chiqarish kamerasida rivojlanadi. Qisqichbaqasimonlar metamorfoz orqali rivojlanadi. Tuxumdan chiqqan naupleus lichinkasi rivojlanib metanaupleus davriga o‘tadi. Ba‘zan lichinkasining dastlabki davrlari tuxum ichida kechadi va tuxumdan keyingi davriga o‘tgan lichinka (mas, krablarda zoyea) rivojlanib suvga chiqadi. Qisqichbaqa, ayniqsa, zooplanktonni tashkil etuvchi turlari suv havzalaridagi oziq zanjirining asosini tashkil etadi. Bir qancha qisqichbaqasimonlar (krevetkalar, krablar, langustlar, omarlar va boshqalar) iste‘mol qilinadi va ko‘plab ovlanadi.

.1. Qisqichbaqasimonlar (Crustacea) sinfi

Yashash muhiti va tarqalishi. Qisqichbaqasimonlar birlamchi suv hayvonlari hisoblanadi. Asosiy ko‘pchilik turlari suvda yashaydi. Ayniqsa dengizlarda keng tarqalgan. Zaxkashlar, ayrim krablar quruqlikda hayot kechiradi Kalanus, diaptomus, dafniya va sikloplar planktonning 90 foizidan ko‘proq qismini tashkil etadi. Daryo qisqichbaqasi, omar, krab, langustlar suv tubida o‘rmlab hayot kechiradigan bentos hayvonlari hisoblanadi. Moylovoyoqli qisqichbaqasimonlar esa o‘troq hayot kechiradigan bentos hayvonlarga kiradi. Ular orasida parazit hayot kechiradigan turlari ham bor. Qisqichbaqasimolar ko‘pchilik dengiz hayvonlarining asosiy ozig‘i hisoblanadi. Yer yuzida eng yirik hayvon tishsiz kitlar ham plankton qisqichbaqalar bilan oziqlanadi. Krevetkalar, krablar, omarlar, daryo qisqichbaqalari va boshqalar oziq uchun ishlatiladi.

Qisqichbaqasimonlar sinfiga mikroskopik kattalikdan bir necha metrgacha har xil tuzilgan 30 mingga yaqin bo‘g‘imoyoqlilar turi kiradi.

Tashqi tuzilishi. Qisqichbaqasimonlar tanasi ko‘p sonli bo‘g‘imlardan iborat. Eng tuban tuzilgan Qisqichbaqasimonlar tanasi ko‘p sonli bo‘g‘imlardan iborat. Eng tuban tuzilgan vakillarida bo‘g‘imlar bir xil - gomonom tuzilgan; bosh, ko‘krak va qorin bo‘limlarini ajratib bo‘lmaydi. Har bir bo‘g‘imda bir juftdan ikki shoxli o‘simtalar bo‘ladi. O‘simtalar kelib chiqishiga ko‘ra parapodiylarga mos keladi. Ko‘pincha o‘simtalarning faqat bir shoxi rivojlangan. Ikki shoxli o‘simtalarning bo‘lishi ularni boshqa bo‘g‘imoyoqlilar orasida eng tuban tuzilganligini ko‘rsatadi. Ko‘pchilik turlarida bosh bilan ko‘krak qo‘shilib, yaxlit boshko‘krakni hosil qiladi. Boshi halqali chuvalchaglarning prostomumiga mos keladigan akronidan va to‘rtta tana bo‘g‘imidan tashkil topgan bo‘lib, 5 juft o‘simtalarga ega. Ularning birinchi jufti bir shoxli, ba‘zan ikki shoxli kalta mo‘ylovlar - antennular halqali chuvalchaglarning palpalariga mos keladi. Ikkinchi juft moylovlar - antennalar halqalilarning birinchi tana bo‘g‘imi parapodiylaridan hosil bo‘ladi. Antennalar bir shoxli, ba‘zan ikki shoxli bo‘lib, sezgi yoki harakatlanish (dafniya) funksiyasini bajaradi. Boshning 2, 3 va 4- bo‘g‘imlari o‘simtalari halqali chuvalchaglarning parapodiylaridan kelib chiqqan bo‘lib, bir juft yuqori jag‘lar - mandibulalar, ikki juft pastki jag‘lar - birinchi va ikkinchi juft maksillalardan iborat. Mandibulalar oziqni maydalash uchun xizmat qiladi. Maxsillalar odatda yupqa va noziq bargchalarga o‘xshash o‘simtalardan iborat. Ularning shoxchalari yo‘qolib ketgan, protopodit bo‘g‘imlarida chaynash o‘simtalari bo‘ladi.

Ko‘krak bo‘g‘imlarining o‘simtalari har xil tuzilgan, ko‘pincha ikki shoxli, bir qancha turlarida (masalan, daryo qisqichbaqasida) ekzopodit shoxchasi yo‘qolib ko‘krak o‘simtalari tuzilishiga ko‘ra har xil vazifani bajarishga ixtisoslashgan. Aksariyat hollarda ular haqiqiy harakat organlari bo‘lib, suzish va o‘rmlash uchun xizmat qiladi. Ko‘pincha oldingi 13 juft ko‘krak oyoqlari oziqni tutib turish va maydalash vazifasini bajaradi. Ular jag‘oyoqlar deb ataladi.

Qisqichbaqasimonlar ko‘krak va qorin bo‘g‘imlari soni va shakli har xil bo‘ladi. Yuksak qisqichbaqasimonlar ko‘kragi 8, qorin bo‘limi 6 bo‘g‘imdan, butun tanasi akronidan tashqari 18 bo‘g‘imdan iborat. Qorin bo‘limining oxirgi bo‘g‘imi anal plastinka- telsonni hosil qiladi. Tuban qisqichbaqasimonlar telsonida furka deb atalgan bir juft ayrisi bor. Tuban qisqichbaqasimonlarning tana bo‘g‘imlari erkin, bir-biridan yaxshi ajralib turadi. Oliy qisqichbaqasimonlarda esa bo‘g‘imlar turli darajada qo‘shilib ketadi. Ko‘pincha boshning oxirgi bo‘g‘imi kengayib,

boshqalqon- karapaksni hosil qiladi. Daryo qichqichbaqasi va boshqa oily qisqichbaqasimonlar boshko'krak qalqoni ko'krak bilan birikib ketgan. Boshko'krak qalqoni sirtidagi ko'ndalang chuqurchasi bosh bilan ko'krak o'rtasidagi chegarako'rsatadi. Dafniya kabi chig'anoqli qisqichbaqasimonlar tanasi yon tomondan siqilgan, boshko'krak qalqoni tanasini ikki yondan o'rab oladi.

Qisqichbaqasimonlarning tana o'simtali soni tana bo'g'imlari sonidan kamroq bo'ladi. Yuksak qisqichbaqalarning telsonida o'simtalar rivojlanmagan bo'lib, 18 tana bo'g'imiga 17 juft oyoqlar to'g'ri keladi. Tuban qisqichbaqasimonlar qorin bo'g'imlarida o'simtalar bo'lmaydi. O'simtalar halqali chuvalchaglarning parapodiylaridan kelib chiqqan, evolyutsiya davomida har xil vazifani bajarishga moslanishi tufayli shakli va tuzilishi o'zgargan. Odatda qisqichbaqasimonlarning ikki shoxli oyoqlari bir necha xil vazifani bajarishga moslashgan. Masalan, nauplius lichinkalarining oyoqlari harakatlanish bilan birga sezish va chaynash funksiyasini ham bajaradi. Oyoqlari asosida chaynovchi plastinkasi bo'ladi.

Qisqichbasimonlar ikki shoxli oyoqlari ko'ptuklilar parapodiylari gomologi bo'lib, ular yaxlit asosiy bo'g'im protopodit, u bilan tutashgan ikkita shoxcha ichki endopodit va tashqi ekzopoditdan iborat. Protopoditda nafas olish organi - jabralar funksiyasini o'taydigan qilchalar - epipoditlar joylashgan.

Ko'krak bo'g'imlarining o'simtali har xil tuzilgan, ko'pincha ikki shoxli, bir qancha turlarida (masalan, daryo qisqichbaqasida) ekzopodit shoxchasi yo'q qolib ketgan. Ko'krak o'simtali har xil vazifani bajarishga ixtisoslashgan. Aksariyat hollarda ular haqiqiy harakat organlari bo'lib, suzish va o'rmalash uchun xizmat qiladi. Ko'pincha oldingi 1—3 juft ko'krak oyoqlari oziqni tutib turish va maydalash vazifasini bajaradi. Ular jag'oyoqlar deb ataladi.

Tuban qisqichbaqasimonlarning qorin oyoqlari rivojlanmagan, Yuksak qisqichbaqalarda ular ikki shoxli bo'lib, nafas olish va tashqi jinsiy organlar (masalan, urg'o-chilarida tuxumlarini olib yurish, erkaklarida kuyikish) vazifasini bajaradi. O'noyoqli qisqichbaqasimonlarda esa eng oxirgi qorin bo'g'imi o'simtali yirik yassi plastinkaga aylangan bo'lib, qorin bo'limining uchidagi telson o'simtasi bilan birga dumsuzgichni hosil qiladi. Qisqichbaqalar ana shu suzgichni qorin tomoniga tez-tez bukib, orqasi bilan oldinga suzib ketadi.

Tana devori kutikula va uning ostidagi gipoderma epiteliysi hamda bazal membrana qavatlaridan iborat. Kutikula sirti ohak shimdirilgan, qattiq va mustahkam bo'ladi. Uning ichki qavati esa yumshoq va elastik xitin moddasidan tuzilgan. Qisqichbaqasimonlar kutikulasi hasharotlar va o'rgimchaksimonlardan suv

bug‘lantirmaydigan sirtqi epikutikula qavatining bo‘lmasligi bilan farq qiladi. Shu sababdan ular faqat suvda yoki o‘ta nam joylarda yashashi mumkin. Qisqichbaqasimonlar va hamma bo‘g‘imoyoqlilarda ko‘ndalang-targ‘il muskullar to‘p-to‘p bo‘lib joylashgan.

Qisqichbaqasimonlar jabraoyoqlilar, sefalokaridlar, jag‘oyoqlilar, yuksak qisqichbaqasimonlar, chig‘anoqli qisqichbaqasimonlar kenja sinfariga bo‘linadi.

Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlar (Branchiapoda) kenja sinfi. Jabraoyoqlilar - tuban tuzilgan qisqichbaqasimonlar. Tana bo‘g‘imlari deyarli gomonom tuzilgan. Boshi ko‘krak bilan qo‘shilmagan; tanasidagi bo‘g‘imlar soni doimiy emas. Bargga o‘xshash ko‘krak oyoqlari harakatlanish, nafas olish va oziqni og‘izga haydash vazifasini bajaradi. Qon aylanish, jinsiy sistemasi boshqa qisqichbaqalarga nisbatan birmuncha sodda tuzilgan. Ko‘pchilik turlari chuchuk suvda, ayrim turlari dengizlarda erkin hayot kechiradi. Sinf jabraoyoqlilar va bargoyoqlilar turkumlariga bo‘linadi.

Jabraoyoqlilar (Anostraca) turkumi. Jabraoyoqlilar - tana bo‘g‘imlari gomonom bo‘lgan eng tuban tuzilgan qisqichbaqalar. Tanasi bosh, ko‘krak va qorin bo‘limlariga bo‘linadi. Boshining oldingi qismida antennulalar, antennalar, yagona nauplius ko‘zi va bir juft fasetkali ko‘zlari; keyingi qismida ikki juft erkin joylashgan jag‘lari bo‘ladi. Bosh qalqoni rivojlanmagan. Ko‘kragi 11-19 bo‘g‘imdan iborat. Har bir bo‘g‘imida bir juftdan ikki shoxli bargsimon oyoqlari joylashgan. Ko‘krak oyoqlari bir xil tuzilgan. Oyoqlar tashqi tomonida 1-2 ta nafas olish, bitta suzish va ichki tomonida suvni og‘izga yo‘naltiradigan 6 ta o‘simtasi bor. Ko‘krak oyoqlari navbat bilan oldindan orqaga silkinib, qisqichbaqani oldinga suradi. Oyoqlar qorin tomonga egilganida esa suv oqimi og‘izga yo‘naladi. Suvdagi mayda organizmlar va chirindi moddalar og‘izda tutib qolinib, ichakka o‘tkaziladi.

Jabraoyoqlilar urug‘langan tuxumlarni suvga qoyadi. Tuxumlari tashqi muhit ta‘siriga juda chidamli, qurib qolgan suv havzalarida ham 3—4 yilgacha o‘z hayotchanligini yo‘qotmaydi. Jabraoyoqlilarning 180 ga yaqin turi bor. Ko‘pchilik turlari chuchuk suv havzalarida yashaydi. Tanasi uzunligi 2 sm dan oshmaydi. Yomg‘irdan yoki erigan qordan keyin hosil bo‘ladigan ko‘lmak suvlarda chalqanchasiga suzib yurgan branxipus (Branchipus)ni uchratish mumkin.

Sho‘r suvli ko‘llarda artemiya *Artemia salina* keng tarqalgan. Uning ko‘payishi va hayoti boshqa jabraoyoqlilardan farq qiladi. Artemiyalar ko‘pincha urug‘lanmasdan partenogenetik yoki nauplius lichinkasi tug‘ib ko‘payishi mumkin. Suvning sho‘rlanish darajasi artemiyaning tashqi tuzilishiga ta‘sir qiladi. Nisbatan

kam sho‘rlangan suvlarda artemiya qorin bo‘limining uchki qismida furka - ayrisi va uni qoplab turuvchi qillar juda yaxshi rivojlangan. O‘ta sho‘rlangan suvlarda esa furka va uning qillari rivojlanmaydi. Artemiyalar hayvonot dunyosida juda kam uchraydigan poliploidlik xususiyatiga ega. Ularning individlari orasida -di, -tri, -tetra, -penta va hatto oktoploid shakllari ham bo‘ladi. Artemiya qulay sharoit bo‘lganida juda tez ko‘payib, bir m³ suvda 13,6 g gacha biomassa hosil qilishi mumkin. Ular osyotrsimon baliqlarning asosiy oziqasi hisoblanadi. Baliq urchitiladigan xo‘jaliklarda artemiyalar maxsus hovuzlarda ko‘paytiriladi. Tuxumlari suv tanqisligiga juda chidamli bo‘lganidan ularni qopchalarga joylab pochta orqali ham jo‘natish mumkin.

Bargoyoqli qisqichbaqasimonlar (Phyllopoda) turkumi. Bargoyoqlilarning ko‘krak oyoqlari bargsimon, asosan chuchuk suvlarda yashaydi. Bargoyoqlilar qalqondorlar, chig‘anoqlilar va shoxdor moylovlilar kenja turkumlariga bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonov O., Xurramov Sh., Norboev Z. oliy o‘quv yurtlari biologiya ixtisosligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma T.,1998y.
2. S. Dadayev, S. To‘ychiev, P.Haydarova “Umurtqalilar zoologiyasi” o‘quv qo‘llanma T.:2006y.
Xo‘sh bu muammolarning yechimi qanday? Hozirgi zamonda barcha muammolarni bartaraf etsa bo‘ladi. Buning uchun faqatgina xohish va mehnat qilish kerak. Endi yuqoridagi muammolarni bosqichma – bosqich bartaraf etishni ko‘rib chiqaylik.

Chet tilida o‘rgangan so‘z va grammatik qoidalarni tezda unutish.

Bu ko‘pgina o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan eng ko‘p ko‘zga tashlanadigan muammodir. Barcha yangi lug‘atlarni eslab qolish qiyin. Boshqacha qilib aytganda, yangi so‘zlar “o‘rganiladi, yodlanadi” va ular yana tez fursatda unutiladi.

Yangi so‘zlarni yanada yaxshiroq va tezroq yodlashga va eslab qolish uchun avvalam bor qanday lug‘atlardan foydalanishga kata e‘tibor qaratish-o‘rganilayotgan tilning izohli lug‘atlaridan foydalanish; o‘rganilayotgan yangi so‘zlarni eskisi bilan birlashtirgan holatda o‘rganish, masalan car – mashina so‘zini yodlamoqchi bo‘lsak u bilan birga oldin yotlangan bironta sifatni qo‘shib yodlaymiz new car- yangi mashina kabi; rasmlar, turli xil rasmlardan foydalanishimiz mumkin-buning uchun rasm va kartochkaga o‘rganilayotgan so‘zni yozib ko‘zimiz ko‘p tushadigan joyga yopishtirishimiz va kun davomida takrorlash; kun davomida o‘rgangan yangi so‘zimizni har 10 daqiqada nutq faoliyatida ishlatib gap tuzishga harakat qilsak yangi so‘z xotiramizda biz bilan abadiy qoladi; tilni tezda o‘rganish uchun asosiy qilinishi kerak bo‘lgan vazifalardan biri bu o‘rganilayotgan tilni hayotimiz bilan birlashtirib o‘rganishdir, har qaysi uyda bajarilayotgan va ish jarayonidagi faoliyat turida: ovqat qilguncha, uyni tartibga keltirishda, dars qilguncha, kitob o‘qishda, telefon yoki kompyuterlasrimizdan foydalanguncha tildan samarali foydalanishni o‘rganish kerak; biz kuniga 10 ta yoki 20 ta so‘zni yodlashimiz mumkin lekin uni doimiy ravishda takrorlab turmasak 1 yoki 2 kundan so‘ng o‘rgangan so‘zimiz bilan xayrlashishimizga to‘g‘ri keladi. Biz yodlagan so‘zimizni unutmasligimiz uchun doimiy takrorlab turishimiz kerak. Bu jarayonda bizga telefonimiz yordam berishi mumkin: takrorlamoqchi bo‘lgan so‘zni telefonimizga ovozimizni yozib olamiz va har qaysi vaqtda uni eshitib birga takrorlasak bo‘ladi. Bu bilan biz nafaqat yangi so‘zni samarali yodlaymiz, balki to‘g‘ri talaffuz qilishni ham o‘rganamiz.

Vazifalarni bajarish uchun noto‘g‘ri usullardan foydalanish. Hamma ham faoliyatidan kelib chiqib vazifalarni bajaradi., lekin buning uchun vazifa bajarishdan oldin o‘ylab ko‘rishi : “ Men vazifalarimni qaysi usulda bajarsam,



manfaatliroq bo‘ladi”, - deb fikr yuritishi kerak. Shundagina faoliyatini o‘zini usulida tez va samarali tashkil etish mumkin.

Faoliyat jarayonida ona tili qonun – qoidalari bilan o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi tafovutlar orasidagi chalkashliliklar. Yangi tilni o‘rganish jarayonida ona tilimizdagi qonun- qoidalar ko‘pincha yordam beradi, lekin fikrlash jarayonida ikki tildagi tushunchalarni farqlashda bir qancha ikkilanishlar yuzaga kelishi mumkin: Avvalo, tilni o‘rganishga maqsad qo‘yildimi o‘zimizni tilimizda fikrlashni to‘xtatishimiz kerak. Chunki chet tilida shunday so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari borki uni o‘zimizning ona tilimoizda ayni bir xil ekvivalenti mavjud emas, yoki aksi, bizning tildagi so‘z boyligimiz o‘rganilayotgan tilga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, masalan: “Wie geht es Ihnen?”- gapini o‘zbek tiliga so‘zma - so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak- “qanday ketyapsiz?”, – deb tarjima qilinadi. Vaholanki bu gapning tarjimasi –“ Ahvollaringiz qanday?”- bo‘ladi.

Chet tiliga oid tushunchalarni tushunishda qiyinchilik va nutq jarayonida qo‘llay olmaslik. Bu eng keng tarqalgan til o‘rganish muammolaridan biridir. Ko‘pgina o‘quvchilar chet tilini tinglash orqali bir oz narsani tushunishlarini aytishadi. Ammo faol foydalanish, ayniqsa gapirish, ular uchun muammo hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa “klassisches Vokabelpauken” nemis tilida bu birikma o‘z ona tilingizdan hech qachon ajralmaganlikni bildiradi. Bu degani faoliyat jarayonida aytilgan gapni ona tilimizga tarjima qilishga harakat qilamiz, natijada vaqtni ham, aytmoqchi bo‘lgan fikrlarimizni ham yo‘qotamiz. Bu yaxshi fikr emas, chunki biz chet tilidagi jumla tuzilishi haqida shunday fikrlaymiz. Biroq, chet tili deyarli boshqa jumla tartibiga amal qiladi. Agar biror so‘z xayolingizga kelmasa, asabiylashasiz va miyangiz darrov stress gormonlarini chiqara boshlaydi. Bular o‘z navbatida fikrlashni yanada qiyinlashtiradi va bu chet tilida gapirishni qiziqarli qilishdagi eng katta to‘siq hisoblanadi.

O‘zidagi qobiliyatga bo‘lgan ishonchning pastligi va tez orada taslim bo‘lib o‘rganish jarayonini to‘xtatish. Til o‘rganishning bu muammosi ortida bir qancha sabablar ham bor. Shunday qilib, sizning til sarguzashtingiz tez va keskin yakunlanishiga olib keladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir: “O‘qishga vaqtim yo‘q”, “Men tezda til o‘rganishga qiziqishimni yo‘qotaman” kabi asossis bahonalar orqali o‘zini ishontirishdan iborat.

Bu muammolarning yechimi esa asossis vaqt sarflashni bas qilib, dars qilish uchun qulay bo‘lgan vaqt asosida reja tuzib o‘rganishdir. Albatta, mavjud vaqtdan qanday foydalanish kerak, degan savol tug‘iladi:

- Tushlikdan keyin 15 daqiqalik tilga oid ma'ruza.
- TransREAL tarjimalarim uchun shanba kuni ertalab (tarjima faoliyati chet tilida ham o'qish faolkiyatini, ham o'rganilayotgan tildagi insonlar kabi fikrlashni o'rgatadi).
- Yangiliklarni chet tilida tomosha qiling.

Bular o'rganishni faoliyat bilan mazmunli bog'lashning uchta misolidir. Til o'rganayotgan shaxs o'zidan kelib chiqib reja tuzishi mumkin. Agar shu tuzgan kun tartibi asosida shug'ullanib til o'rgansa, tez orada juda katta samara va natijalarga erishiladi.

Hech kim xo'jayin yoki o'qituvchi uchun o'rganishni yoqtirmaydi. Shuningdek, o'quv rejangizga kichik muvaffaqiyat hikoyalarini kiriting. Bular uzoq muddatda motivatsiyani saqlab qolishga katta yordam beradi. Bu sizning maqsadlaringizni qanday qilib to'g'ri belgilashni tasvirlaydi.

Har qanday o'rganish strategiyasining muhim qismi bu yaxshi til kursidir. Yaponlar “Yaxshi ustoz bu sendagi yarim bilimdir” – deb bekorga aytishmaydi. O'quchining qobilyatini yuzaga chiqorib bera oladigan, unga to'g'ri yo'nalish bera oladigan va maqsadi yo'lida sobit qadam bilan ketishiga ko'maklashadigan inson bu – ustozdir. Ustoz o'rgatgan narsa faqatgina o'quv faoliyatidagina qolib ketmasligi kerak, uni iloji boricha nutq jarayonida samarali qo'llash kerak bo'ladi. Bu 99 % maqsadga erishish usulidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak til o'rganish jarayoni hammada har xil kechadi. Kimdadir oson, kim uchundir qiyint. Ammo qiyint ekan deb aslo voz kechmaslik, harakatdan aslo to'xtamasdan, oldindagi maqsad sari ildam qadam tashlash kerak. Bugungi o'rganish jarayonidagi to'siqlar, uni bartaraf etgandan keyin juda soddaday tuyuladi. Har bir muammoning yechimi bor! Yangi tilda gapirish - yakuniy maqsad. Va muammoni hal qiluvchilar sizning maqsadingizga tez va muvaffaqiyatli erishishingiz uchun yo'lida sizga hamroh bo'lishlari mumkin.

Muammoning aniq nima ekanligini ko'rishingiz kerak. Shaxsiy vaziyatingizni tahlil qiling va yechimni o'zingizga moslang. Har kim har xil o'rganadi va shuning uchun echimlar boshqacha ko'rinadi. Buning sababi ko'pincha ko'rinadiganidan biroz chuqurroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alyamkina E.A. Qobiliyat, mayl va iste‘dodning o‘zaro bog‘liqligi va ularning universitet o‘quv jarayonida rivojlanishi / Alyamkina E.A.// Psixolog. – 2015. № 2.
2. Galskova N.D. Chet tillarni o‘qitish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodologiya / N.D.Galskova. – M.: Академия, 2008.
4. Jerlygina A.V. Ona va chet tillarida erkin og‘zaki birlashmalardagi farqlar / A.V.Jerlygina // Psixologiya i Psixotexnika. – 2010. – № 9.



Kimyoviy bog'lanish nazariyasi va borliqning u bilan bog'liqligi

Inatova Maxsuda Sag'dullayevna - dotsent

Murodova Dilafuz - dotsent

Xamrayeva Mavjuda Abdusattorovna - 2- bosqich talabasi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada moddalarning o'zaro hosil bo'lishi, valent elektronlari, kimyoviy birikmalarning turli tumanligi sabablarini, ularning hosil bo'lish mexanizmini umuman modda hosil bo'lishida kimyoviy bog'lanish nazariyasini o'rganish muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: elektrmanfiylik, valent bog'lanish, donor, Van –der –Vaals kuchlari, orbital, dispersion, induksion.


Аннотация: В данной статье обсуждается важность изучения теории химических связей при образовании веществ.

Ключевые слова: электроотрицательность, валентная связь, донор, силы Ван-дер-Ваальса, орбиталь, дисперсия, индукция.

Abstract: In this article, the importance of studying the theory of chemical bonds in the formation of substances is discussed.

Key words: electronegativity, valence bond, donor, Van der Waals forces, orbital, dispersion, induction.

XIX asrning boshlarida molekulani hosil bo'lishi kimyoviy bog'lanish tabiatini o'rganish olimlar oldida turgan asosiy muammolardan biri edi. 1807 yili ingliz fizigi G.Devi atomlarni o'zaro birikib molekulani hosil qilishida elektrokimyo nazariyasini yaratdi. Keyinchalik bu nazariya 1812-1818 yillarda I.YA.Berselius tomonidan rivojlantiriladi. Ular quyidagicha tushuntirishadi. Hamma atomlarda 2 ta qutb bor (+) va (-) qutb. Ba'zi atomlarda (+) qutb kuchliroq bo'lsa, ba'zi atomlarda (-) qutb kuchliroq bo'ladi. Shu qutblarning o'zaro tortishishi evaziga birikadi deb qaraydi.



Atomlarning o'zaro ta'sirlanishi natijasida molekulalar, ionlar, radikallar va kristallarning o'zaro bog'lanishi kimyoviy bog' deb ataladi. Hozirgi davrda kimyoviy bog'lanishning o'zaro bog'lanish tabiatiga qarab 1) kovalent, 2) ion, 3) metall, 4) vodorod va 5) Van-der-Vaals kuchlari asosidagi bog'lanishlarga bo'linadi. Kimyoviy bog'lanishlarning dastlabki uch turi (1,2,3) eng kuchli bog'lanishlar hisoblanadi. So'ngi ikki turi esa (4,5) kuchsiz bog'lanishdir. Kimyoviy bog'lanish xususiyati atomlarning tabiatiga, ya'ni ularning tuzilishi va xossalariga bog'liq bo'ladi. Kimyoviy bog'lanishning xususiyatlari ko'p jihatdan elektrmanfiylik deb ataluvchi atomlarning xossalariga bog'liq bo'ladi. Kimyoviy element atomi o'zining sirtqi qavatini tugallash uchun boshqa atomlardan elektronlar tortib olish xossasi elektrmanfiylik deb ataladi. Elementlar elektrmanfiyligi ularning davriy jadvaldagi o'rinlariga bog'liq bo'ladi. Kimyoviy elementning atomi sirtqi elektronlarini qancha puxta ushlab tursa va boshqa atomlardan elektronni qanchalik kuchli tortsa, bu element shuncha ko'proq elektrmanfiy bo'ladi. Ammo bizga ma'lumki, davrlarda element tartib raqamining ortib borishi asosiy gruppachalarda element tartib raqamining kamayishi bilan atomlardan elektronlar tortib olish tobora qiyinlashadi, qo'shimcha elektronlar biriktirib olish esa tobora osonlashadi. Kimyoviy elementlar bir-biri bilan birikishida elektronlar shu qatorda chaproqda turgan element atomidan o'ngroqda turgan element atomiga tomon siljiydi. Kimyoviy bog'lanishlarni turlicha ifodalash qabul



qilingan: 1) elementning kimyoviy belgisiga qo‘yilgan nuqtalar ko‘rinishidagi elektronlar yordamida. 2) kvant katakchalar (orbitallar) yordamida, bunda qarama-qarshi spinli ikkita elektronning bitta molekular kvant katakchada joylashuvi sifatida ko‘rsatiladi: yoki kimyoviy bog‘lanish har qaysi atomning juftlashmagan elektroni hisobiga hosil bo‘ladi. Juftlashmagan elektronlar bog‘lanib, umumiy elektronlar juftini hosil qiladi, u taqsimlangan juft ham deyiladi. Kimyoviy bog‘lanish xususiyati o‘zaro birikuvchi atomlarning nisbiy elektrmanfiyliklari ayirmasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar ikki elementning nisbiy elektrmanfiyliklari orasidagi ayirmaning miqdori (1,5 dan to 3,3 gacha) bo‘lsa, bu atomlar orasida ion bog‘lanish hosil bo‘ladi. Agar bu ayirma (1,5 ga yaqin) qutbli bog‘lanish , agar juda kichik bo‘lsa kovalent (qutbsiz) bog‘lanish yuzaga keladi. Lyuis va Kossel nazariyasiga ko‘ra ,ion bog‘lanish atomlarning o‘zaro ta‘sirlashishi natijasida yuzaga keladigan elektrostatik , ya‘ni kulon kuchlari ta‘sirida hosil bo‘ladi .[2 ; 101 –b.]

Kovalent bog‘lanish. Elektron juftlar tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanish kovalent bog‘lanish deyiladi. Kovalent bog‘lar: 1) qo‘zg‘almagan atomdagi juftlashmagan elektronlar; 2) qo‘zgalgan atomdagi elektronlar juftining yakkalanishi; 3) donor-akseptor usulida hosil bo‘lishi mumkin. Bu ikki elektronli va ikki markazli (ikkita yadroni tutib turadi) bog‘lanishdir. Kovalent bog‘lanishli birikmalar gomeopolar yoki atom birikmalari deyiladi. 1916 yili Lyuis yaratgan kovalent nazariyasiga ko‘ra har qaysi ikki atom o‘zaro kimyoviy bog‘langanda , shu ikkala atomdan bittadan elektron ishtirok etishi natijasida hosil bo‘lgan elektron juft ikkala atomga tegishli bo‘lib qoladi. Bu nazariya tashqi elektron qavatida sakkizta elektron bo‘lgan atomlarning barqaror bo‘lishiga asoslangan. Lengmyur nazariyasiga muvofiq birikuvchi atomlar orasida hosil bo‘ladigan elektron juftlar soni element valentligini ko‘rsatadi. Lyuis va Lengmyurning kovalent bog‘lanish haqidagi elektron nazariyasi murakkab bo‘lmagan moddalardagi kimyoviy bog‘lanish tabiatini izohlab berdi.Lekin murakkab moddalardagi bog‘lanishning tabiatini tushuntirib bera olmadi. Faqat kvant nazariyasi yaratilgandan keyingina kimyoviy bog‘lanishni to‘liq izohlash imkoniyati tug‘ildi. Hozirgi vaqtda kvant nazariyasi asosida kimyoviy bog‘lanish tabiatini tushuntirish uchun ikkita usuldan foydalaniladi:

- 1.Atom orbitallar yoki valent bog‘lanishlar usuli.
- 2.Molekulyar orbitallar usuli.

Atom orbitallar usuli.Atom orbitallar usuli bilan kimyoviy bog‘lanishning hosil bo‘lishini tushuntirish nazariyasi 1927 yilda Geytler va London taklif qilgan

va L. Poling rivojlantirgan. Bu nazariyaga muvofiq molekulada elektronlar atom orbitallarida joylashgan bo'ladi. Kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishida elektronlar buluti bir-birini qoplashi natijasida ularning zichligi ortadi, atomlararo masofa esa kamayadi. Murakkab moddalarning hosil bo'lishini shunga asoslab tushuntirish mumkin.

Valent bog'lanishlar usuli, elektron orbitallarning gibridlanish usuli bilan uyg'unlashgan holda turli-tuman moddalarning tuzilishi, molekuladagi valent bog'larning yo'nalishi, molekulalarning geometriyasini juda ko'p moddalar uchun to'g'ri tushuntiradi. Valent bog'lanishlar usuli quyidagi kamchiliklarga ega:

— ba'zi moddalarda elektron juftlar yordamisiz bog'lanish yuzaga kelib chiqadi. Masalan, XIX asrning oxirida Tomson molekular vodorod ionini vodorod (H_2^+) molekulasini elektronlar bilan bombardimon qilib oldi. Bunga asoslanib 2 yadro bir-biri bilan birgina elektron yordamida bog'lana oladi degan xulosa kelib chiqadi.

— benzolga o'xshash aromatik uglevodorodlarning tuzilishini valent bog'lanishlar tushuntirib bera olmaydi.

Molekulyar orbitallar usuli. Molekula hosil bo'lishida toq elektronlarning rolini ko'rsatadigan nazariya 1932-yilda Xund va Malliken tomonidan yaratilgan bo'lib, bu nazariya molekular orbitallar nazariyasi nomini oldi. Molekular orbitallar nazariyasini yaratishda atom orbitallarning tuzilishi haqidagi kvant-mexanik tasavvurlarni molekula tuzilishi uchun qo'llash mumkin deb hisoblandi. Farqi shundaki, atom bir markazli (bir yadroli) sistema bo'lsa, molekula ko'p markazli sistemadir. Bu nazariyaga ko'ra, har qaysi elektron molekuladagi barcha yadro va ko'p markazli orbitallar ta'sirida bo'lishi e'tiborga olinadi. Molekular orbitallar usulining bir necha turlari bor. Atom orbitallarining chiziqli kombinatsiya usuli eng ko'p qo'llaniladi. Molekular orbitallarning elektronlar bilan to'lib borishi ham xuddi atom orbitallardagi kabi Pauli prinsipiga va Xund qoidasiga bo'ysunadi. MO usulida bog'lovchi orbitallardagi elektronlar soni bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar sonidan ko'p bo'lsa, kimyoviy bog' hosil bo'ladi. Kimyoviy bog'lar tartibi (BT) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$BT = \frac{n_{bog'lovchi} - n_{bo'shashtiruvchi}}{2}$$

bunda: $n_{bog'lovchi}$ — bog'lovchi orbitallardagi elektronlar soni;


$n_{bo'shashtiruvchi}$ — bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar soni.

$\gamma = 0$, bo'lgan holat uchun 1s-atom orbitallardan elektronlari bog'lovchi molekular orbitallarga o'tishi kimyoviy bog'ni yuzaga keltiradi va jarayonda




energiya ajralishi sodir bo'ladi. Agar 1s atom orbitallardan elektron bo'shashtiruvchi molekular orbitallarga o'tganida esa eneigiya sarflanishi kerak bo'ladi. Shu sababli ham $\sigma_{bog'}$, 1sga joylanishi kam energiya talab qiladi.

1.Vodorod molekulasining hosil bo'lishini molekular orbitallar usulida quyidagicha tushuntirish mumkin: ikkita vodorod atomining har biri 1s elektronga ega va bittadan elektron orbital mavjud. Molekular orbitallarda ham bitta bo'shashtiruvchi va ikkinchisi bog'lovchi orbitalga ega bo'lib, ikkala elektron ham bog'lovchi orbitalga joylashadi: Vodorod molekulasidagi bog'lovchi orbital [(1s) va (1s)]dan paydo bo'lgan faqat bitta kimyoviy bog'lanishga muvofiq kelib, bog'lanish tartibi birga teng bo'ladi:



$$N = \frac{n_{bog'} - n_{bo'sh}}{2} = \frac{2-0}{2} = 1$$



$$BT = \frac{2-0}{2} = 1$$

Vodorod molekulasining hosil bo'lishi.

Molekular orbitallarning afzalliklari. Valent bog'lanishlar usulidan molekular orbitallar usuli bir qancha afzalliklarga ega:


- bu usul har qanday yadrolar sistemasi va elektronlar barqarorligini tushuntira oladi;
- molekular orbitallar usuli molekularlarning va kompleks birikmalarning magnit va optik xossalarini to'g'ri tushunturadi;
- molekuladagi har bir elektronning holatini baholash imkoniyatini beradi. [1 ; 211- 212 b]

Kovalent bog'lanish ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: **qutbsiz va qutbli bog'lanish.**



Qutbsiz kovalent bog‘lanish. Elektrmanfiyliklari bir xil bo‘lgan atomlar o‘zaro ta’sirlashganida kovalent qutbsiz bog‘lanishli molekularlar hosil bo‘ladi. Bunday bog‘lanish H_2 , F_2 , Cl_2 , O_2 , N_2 kabi oddiy moddalarning molekularlarida bo‘ladi. Bu gazlarda kimyoviy bog‘lanishlar umumiy elektron juftlar vositasida, ya’ni muvofiq elektron bulutlarning o‘zaro qoplanishi tufayli hosil bo‘ladi; bu jarayon atomlar bir-biriga yaqinlashganida yadro bilan elektron orasidagi tortishuv natijasida amalga oshadi.

Qutbli kovalent bog‘lanish. Elektrmanfiyliklari jihatidan bir-biridan u qadar keskin farq qilmaydigan elementlarning atomlari o‘zaro ta’sirlashganida umumiy elektron juft elektrmanfiylik kattaroq bo‘lgan atom tomon siljiydi. Buning natijasida kovalent qutbli bog‘lanish hosil bo‘ladi. Kimyoviy bog‘lanishning bu ko‘rinishi anorganik va organik birikmalarda eng ko‘p uchraydi. Qutbli bog‘lanishli molekularlar qatoriga : H_2O , NH_3 , HCl , HF , HBr , HJ , H_2S , H_2SO_4 larni kiritish mumkin.



Donor akseptor boglanish hisobiga yuzaga keladigan bog'lanish. Kovalent bog‘lanishni hosil qiluvchi elektronlarning biri dastlab bir atomda ,ikkinchisi esa atomda bo‘lishi shart emas.Elektronlar o‘zaro birikuvchi atomlarning birida bo‘lib, ikkinchi atomda bo‘sh orbitallar mavjud bo‘lsa,natijada bog‘lanish hosil bo‘lishi uchun o‘zining elektron juftini beradigan atom yoki ion- **donor** , elektron juftni o‘zining bo‘sh orbitaliga qabul qiladigan atom yoki ion – **akseptor** deb ataladi.





Donor-aktseptor taʼsir moddalarning bir agregat holatidan ikkinchi holatiga oʻtishga olib keladi. NH_3 va HCl gaz moddalar, lekin ularning oʻzaro taʼsir mahsuloti NH_4Cl kristall.

Ana shunday donor – akseptor bogʻlar barcha kompleks kation va anionlarda yuzaga kelib, kompleks ionlarni hosil qiladi. Donor –akseptor bogʻlar nitrat kislota va uning tuzlarida, ammoniyli tuzlarda, barcha kompleks tuzlarda uchraydi. Tibbiyotda ishlatiladigan kompleks birikmalarning davolovchi xususiyatga ega ekanligi ularning organizmda qayta kompleks hosil qilishidir. Bu jarayon metall va ligand raqobati asosida boradi. Turli saraton kasalliklarini davolashda belomitsits (BLM) antibiotigining misli ($\text{Cu}(\text{II})$ - BLM) kompleksidan foydalaniladi.[4 ; 183- b]

Donor - akseptor bogʻlanish

Bir elementning *xususiy elektron jufti* hamda ikkinchi elementning *boʻsh orbitali* hisobiga vujudga kelgan bogʻlanish.

Donor — 5,6,7 –
bosh guruhcha
elementlari

Akseptor — 1,2,3
– bosh guruhcha
elementlari va “d”
elementlar

**Ham donor, ham
akseptor** — 4 –
bosh guruhcha
elementlari


CO , N_2O_5 , PH_4Cl , H_3O^+ , DNK, RNK,
 N_2O , $\text{N}_2\text{H}_5\text{Cl}$,
Kompleks birikmalar,
kristallogidratlar,
 NH_4^+ ioni va uning tuzlari, HNO_3 va
uning tuzlari

Metall bog'lanish. Nisbatan erkin elektronlarning metall ionlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida hosil bo‘ladigan bog‘lanish metall bog‘lanish deyiladi . Bog‘lanishning ana shunday turi metallarda uchraydi. Metall bog‘lanishning hosil bo‘lish mohiyati quyidagilardan iborat: metall atomlari o‘zlarining valent elektronlaridan osongina ajralib, musbat zaryadli ionlarga aylanadi. Atomlardan ajralib chiqqan, nisbatan erkin elektronlar musbat zaryadli metall ionlar orasiga tarqaladi. Ionlar bilan elektronlar orasida metall bog‘lanish yuzaga keladi. **K**ovalent bog‘lanishdan farq qilib bunda erkin elektronlar hamma metall ionlari uchun umumiy ya’ni “ elektron gaz” holida bo‘ladi. Metall bog‘lanishli moddalar uchun quyidagi xossalar o‘rinli:


- Metallardagi erkin elektronlar hisobiga ular issiqlik va elektr tokini yaxshi o‘tkazadi.
- Asosiy guruh metallari uchun past ,o‘tish, metallar uchun yuqori suyuqlanish va qaynash temperaturasi o‘rinli.
- Metallar yuqori qayishqoqlikka ega.
- Metallar metall yaltiroqligiga ega.

Metall bog‘lanish barcha 88 ta metallda mavjud.

Металлическая связь



Vodorod bog‘lanish. Biror molekulaning vodorod atomi bilan boshqa molekulaning kuchli elektrmanfiy element (O, F, N) atomi orasida yuzaga chiqadigan bog‘lanish vodorod bog‘lanish deb ataladi. Vodorod bog‘lanish tushunchasini 1880 yil M.A. Il‘inskiy va Beketovlar fanga kiritishgan. Nima sababdan faqat vodorod atomi ana shunday alohida kimyoviy bog‘lanish hosil qiladi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Buning sababi, vodorod atomining radiusi nihoyatda kichik ekanligida, deb javob bersa bo‘ladi. Undan tashqari, vodorod atomi o‘zigina elektronni siljitsa yoki batamom yo‘qotsa, u nisbatan yuqori musbat zaryadga ega bo‘ladi; biror molekulaning vodorod atomi ana shu musbat zaryad hisobiga, qisman manfiy zaryadga ega bo‘lgan va boshqa molekula (HF, H₂O, NH₃) lar tarkibiga kirgan elektrmanfiy element atomi bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Ba’zi bir misollarni ko‘zdan kechiramiz. Biz, odatda, suv tarkibini kimyoviy formula H₂O bilan tasvirlaymiz. Lekin bunday ifodalashimiz u qadar to‘liq emas. Suvning tarkibini (H₂O)_n formula bilan ko‘rsatsak, to‘g‘ri ish qilgan bo‘lar edik (bu yerda, n = 2,3,4 va hokazo). Buning to‘g‘ri ekanligining sababi shundaki, suvda ayrim molekularlar bir-biri bilan vodorod bog‘lanishlar orqali birikkan bo‘ladi. Vodorod bog‘lanishni nuqtalar shaklida tasvirlash qabul qilingan. Bu bog‘lanish ion va kovalent bog‘lanishlarga qaraganda anchagina bo‘sh, lekin oddiy molekulararo o‘zaro ta’sirga qaraganda ancha mustahkam bog‘lanish hisoblanadi. Temperatura pasayganda suv hajmining kattalashishi vodorod bog‘lanish mavjudligi bilan tushuntiriladi. Buning sababi shundaki, temperatura pasayganda suv molekulari assotsilanadi. Natijada molekular „uyumlar“ ning zichligi kamayadi.



Vodorod bog‘lanish 2 ga bo‘linadi:


1. Molekulararo vodorod bog‘lanish

2. Ichki molekulyar vodorod bog'lanish.

Molekulararo vodorod bog'lanish H_2O , HF , N_2H_4 , NH_2OH_4 , spirtlar, aminlar, va karbon kislotalar o'rtasida hosil bo'ladi.

Ichki molekulyar vodorod bog'lanish bitta molekulaning o'zidagi elektromanfiy element va vodorod orasida hosil bo'ladi. Bunday moddalarga DNK va oqsil kiradi. Vodorod bog'lanishning energiyasi kovalent bog'lanish energiyasiga qaraganda 5 – 20 marta kuchsiz. Shunga qaramay vodorod bog'lanish moddaning fizik – kimyoviy xossalriga kuchli ta'sir qiladi.

Ion bog'lanish. Elektrmanfiyliklari jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi atomlar o'zaro ta'sirlashganidan ion bog'lanish kelib chiqadi. Masalan, tipik metallar litiy Li, natriy Na, kaliy K, kalsiy Ca, stronsiy Sr, bariy Ba lar tipik metallmaslar, asosan, galogenlar bilan ion bog'lanish hosil qiladi. Lekin shuni ham nazarda tutish kerakki, ishqoriy metallar hatto kislorod va oltingugurt kabi elektrmanfiy elementlar bilan o'zaro ta'sirlashganida ham to'la ion bog'lanish hosil bo'lmaydi. Ion bog'lanish ishqoriy metallarning galogenidlaridan tashqari ishqor va tuzlar kabi birikmalarda ham mavjud bo'la oladi. Masalan, natriy gidroksid $NaOH$ va natriy sulfat Na_2SO_4 da ion bog'lanishlar faqat natriy va kislorod atomlari orasidagina mavjud (boshqa bog'lanishlarning hammasi kovalent qutbli bog'lanishlardan iborat) bo'ladi. Shuning uchun ham ishqor va tuzlar suvdagi eritmalarda quyidagicha dissotsilanadi:





Kimyoviy bog'lanish turlari orasiga keskin chegara qo'yish qiyin. Ko'pgina birikmalarda kimyoviy bog'lanish oraliq vaziyatni egallaydi; masalan, kuchli qutbli kimyoviy bog'lanish ion bog'lanishga yaqin bo'ladi. Ayni kimyoviy bog'lanish o'z xususiyati bilan ion bog'lanishga yaqinroq bo'lsa, uni ion bog'lanish deb, kovalent bog'lanishga yaqinroq bo'lsa, kovalent bog'lanish deb qaraladi. [5 ; 43- b.]

Kovalent bog'lanish xossalari. Kovalent kimyoviy bog'lanishning mustahkamligi, yadrolararo elektron bulutning zichligiga bog'liq bo'ladi. Yadrolararo elektron bulut qancha katta zichlikka ega bo'lsa, bog'lanish shuncha mustahkam bo'ladi. Binobarin, kimyoviy bog'lanishning mustahkamligi asosan: 1. Elektron bulutlarning qoplanishidan qanday (d-bog', p) bog'lanish hosil bo'lishiga. 2. Elektron bulutlar kovalentligining to'liq-to'liqmasligiga. 3. Qanday ko'rinishdagi qutbsiz yoki qutbli bog'lanish hosil bo'lishiga bog'liq. Kimyoviy bog' xarakteristikasiga bog' energiyasi, uzunligi, qutbliligi, qutblanuvchanligi, to'yinuvchanligi, va fazoda yo'naluvchanligi, bog'lar orasidagi burchak (valent burchaklar) bog'lanish energiyasi va bog'lanish tartibi kabi kattaliklar kiradi.

Kimyoviy bog'lanishning eng muhim tavsiflaridan biri **bog'lanish energiyasidir**. Bu energiya kimyoviy bog'lanishni barqarorligini belgilaydi. Kimyoviy bog'ni uzish uchun zarur bulgan eng kam energiya miqdoriga bog'lanish energiyasi deyiladi. E bilan belgilanib, kJ/mol, kkal/mol da o'lchanadi. Har bir bog' uchun to'g'ri keladigan bog'lanish energiyasi qiymati 200 – 1000 kJ/mol oralig'ida bo'ladi. Masalan, CH₂F da C–F bog'lanish energiyasi 487 kJ/molga teng. 2-atomli molekullar uchun bog'lanish energiyasi, shu molekullarni atomlarga




disotsialash energiyasiga teng bo‘ladi: Masalan: $H_2 = 2H E = 435 \text{ kJ/mol}$ $F_2 = 2F E = 151 \text{ kJ/mol}$ $N_2 = 2N E = 940 \text{ kJ/mol}$. Molekulada bir xil bog'lardan bir nechta bog' bo'lsa, (masalan, metanda 4 ta C – H bog' mavjud), bitta bog' energiyasini topish uchun molekulaning hosil bo'lish energiyasini yoki parchalanish energiyasini bog'lar soniga bo'lish zarur. Bog' hosil qilib turgan atomlarning elektromanfiyliklari bir-biridan qancha katta farq qilsa, bog' energiyasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Qo'sh bog' energiyasi oddiy bog', uch bog' energiyasi esa qo'sh bog' energiyasidan katta bo'ladi. Qo'sh bog' energiyasi ikkita oddiy bog' energiyasidan kichik. Bog'lanish energiyasi qancha katta bo'lsa bog' shuncha mutsahkamdir. Agar oddiy, qo'sh bog' va uch bog' solishtirilsa ularning ichida eng bog'lanish energiyasi yuqorisi va mutsahkami uch bog' hisoblanadi. Masalan, C-C, C=C, C≡C qatorida 486,2 kJ/moldan 945,3 kJ/molgacha o'zgaradi.

Oddiy bog'lar energiyasi (Kkal/mol)

X – X		H – X		C – X		O – X	
H – H	104,2	H – F	134,6	C – F	116	O – H	110,6
C – C	82,6	H – O	110,6	C – H	98,7	O – P	145
Cl – Cl	58	H-Cl	103,2	C-O	85,5	O-Si	88,2
Cl – Cl	54	H-C	98,7	C-Cl	81	O-C	85,5
S-S	46,1	H-N	93,4	C-N	72,8	O-N	53
Br-Br	39	H-Br	87,5	C-Br	68	O-Cl	52
N-N	36,6	H-S	83	C-S	65	O-F	45
F-F	36,1	H-J	71,4	C-J	51	O-S	128
J-J	35	H-Na	48,2				

Bog'ning uzunligi. Kimyoviy bog'ning uzunligi r - harfi bilan belgilanib OA, nm da o'lchanadi. Bog'ning uzunligi deb, kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etgan atomlar yadrolari o'rtasidagi masofaga aytiladi. Vodород molekulasidagi H-H bogning uzunligi $r = H-H = 0,74 \text{ nm}$. Molekula hosil qilgan atomlarning markazlararo masofasi angestremlar (A_0) bilan o'lchanadi.





Atomlarning orasidagi bog'lanishlar soni **bog'ning karraligidir**. Bunday bog'lanishlar bir bog', ikki bog'(qo'sh bog') yoki uch bog' bo'lishi mumkin. Bog'lanish karraligining ortishi bog'ning qisqarishiga va uning bog'lanish energiyasining ortishiga olib keladi. Oddiy bog'dan ko'ra qo'sh bog', undan ko'ra uch bog'ning uzulishi qiyin. Shuning uchun ham azot molekulasi kimyoviy reaksiyalarga qiyin kirishadi. Uni uzish ancha mushkul hisoblanadi.


Kovalent bog'lanishning to'yinuvchanligi. Ayni atom hosil qilinishi mumkin bo'lgan kovalent bog'larning soni chegaralangan. Bu son valent orbitallarning umumiy soni bilan belgilanadi. Kvant mexanik hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, bunday orbitallar qatoriga tashqi elektronlarning qavati s- va p-orbitallari hamda tashqaridan oldingi d-orbitallar kiradi. Atomlarning chegarlangan sondagi kovalent bog'larni hosil qilishda qatnasha olish xususiyati kovalent bog'lanishning to'yinuvchanligi deb nomlanadi. Molekuladagi bog'lanish to'yinuvchanlik xossasini namoyon qilganligi uchun ham molekula aniq tarkibga ega bo'lib, ma'lum strukturali diskret zarracha holida mavjud bo'ladi. Masalan: vodorod molekulasi-H₂, u yana vodorod atomini biriktirib H₃ holida mavjud bo'la olmaydi, yoki suv molekulasi faqat H₂O holida, metan molekulasi CH₄ holida bo'la oladi. Bu hodisa kovalent bog'lanishning to'yinuvchanlik hodisasi bo'lib, ion bog'lanishdan farq qiladi.

Kovalent bog'lanish yo'naluvchanligi. Kovalent bog'- elektron bulutlarning ma'lum yo'nalishida yuzaga keladi. Bu hodisa kovalent bog'lanishni yo'naluvchanligi deyiladi. Kovalent bog'lanishning hosil bo'lishi o'zaro ta'sir etuvchi atomlarning valent elektron bulutlarining bir-birini qoplashi natijasidir. Bunday qoplash faqat elektron bulutlarning o'zaro ma'lum yo'nalishidagina yuz beradi, qoplash sohasi o'zaro ta'sir etuvchi atomlarga nisbatan ma'lum bir yo'nalishda joylashgan bo'ladi. Boshqacha aytganda kovalent bog'lanish yo'naluvchanlik xossasiga egadir. Ikki atom orasida kovalent bog'lanish hosil



bo‘lganda, o‘zaro birikuvchi atomlar elektronlar buluti bir-birini qoplaydi. Agar bog‘lanishda har ikkala atomdan s-elektronlar ishtirok etsa, hech qanday yo‘naluvchanlik namoyon bo‘lmaydi, chunki s-elektron buluti shar shaklida bo‘lganligi uchun bog‘lanish istalgan yo‘nalishda yuzaga keladi. p- va d -elektronlar uchun hamma yo‘nalish ham bir xil qiymatga ega emas, kimyoviy bog‘lanish p- yoki d- elektron bulutining ma‘lum yo‘nalishida yuzaga keladi . Masalan: s-px yo‘nalish px-px yo‘nalish pz-pz yo‘nalish. Demak, kovalent bog‘- elektron bulutlarning ma‘lum yo‘nalishida yuzaga keladi. Bu hodisa kovalent bog‘lanishni yo‘naluvchanligi deyiladi. Shunday qilib, kimyoviy bog‘lanishlarning yo‘naluvchanligi elektron bulutlarning fazoda joylanishiga bog‘liq ekan.

Valent burchak. Kimyoviy bog‘lanishlar orasidagi burchak valent burchagi deyiladi. Agar H₂O molekulasini olib qaralsa H – O bog‘i bir-biriga nisbatan 104,5 burchak ostida joylashadi va molekula burchaksimon tuzilishga ega bo‘ladi. Suv molekulasida valent burchagi 104,5 ; CH₄ molekulasida bog‘lar orasidagi burchak 109, 28; NH₃ molekulasidagi N - H bog‘lari orasidagi burchak esa 107,3 ga teng.



Boglanish tartibi. O‘zaro kimyoviy bog‘ hosil qilgan atomlar orasida hosil bo‘lgan bog‘lanishlar soni bo‘lib, birlamchi, ikkilamchi (qo‘sh bog‘), uchlamchi (uch bog‘) bog‘lanish mavjud bo‘ladi. Bog‘lanishlar tartibi ortishi bilan bog‘ning barqarorligi ortadi, uzunligi qisqaradi.

Molekulalararo kuchlar. Hozirgi vaqtda molekulari birikmalar ,qattiq, suyuq, va gazsimon moddalarning tuzilishini va hosil bo‘lishini kovalent , ion, va metall bog‘lanish nuqtai nazaridan tushuntirish murakkabligicha qolmoqda. Bunga misol tariqasida inert gazlarni ko‘rsatish mumkin. Bu elementlarning atomlari sferik simmetriyaga va barqaror elektron konfiguratsiyaga (ns², np⁶) ega bo‘lganligi uchun yuqorida aytilgan kimyoviy bog‘lanishlarni hosil qila olmaydi. Mutlaq nol temperatura atrofida inert gazlar suyuq va qattiq holatga o‘tkazilganda atomlarning bir-biriga ta’sir kuchlarini kuzatish mumkin .Moddalardagi bunday ta’sir Van- der-

Vaals kuchlari va vodorod bog'lanish hisobiga vujudga keladi. (Real gazlarni 1873 yil Van-der- Vaals kiritgan). Van-der-Vaals kuchlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) Van-der –Vaals kuchlari oddiy valent bog'lanishdan kuchsiz.
- b) Oddiy valent bog'lanishga o'xshab to'yinuvchanlik namoyon qila olmaydi.

Molekulalararo ta'sir kuchlari 3 xil bo'ladi: orientatsion, induksion va dispersion kuchlar. Molekulalar qancha kuchli qutblangan bo'lsa, ular bir –biriga shuncha kuchli tortiladi. Qutblangan molekulalarning bir –biriga bunday ta'siri orientatsion ta'sir kuchi deyiladi. Qutblangan va qutblanmagan molekulalararo ta'sirlanish natijasida qutblanmagan molekula qutblangan molekulaga o'tish – molekulalararo induksion ta'sir kuchi deyiladi. Qutblanmagan molekulalar orasida ham dispersion o'zaro ta'sir vujudga keladi. Bunday ta'sirning vujudga keltiruvchi kuch dispersion kuch deyiladi. Dispersion kuchlarning kelib chiqish sababi shundaki, molekula tarkibidagi atomlarning elektron bulutlari fluktatsiya hodisasi tufayli molekula bir lahzada o'zining yo'nalishini va kattaligini o'zgartirib turadi; shunga ko'ra molekulani mikrodipol qo'shni molekula mikrodipoli bilan o'zaro ta'sirlashib, tortilish kuchi namoyon qiladi. Bu 3 xil molekulalararo ta'sir etuvchi kuchlarga umumiy qilib Van -der –Vaals kuchlari degan nom berilgan. Molekulalararo elektrik o'zaro ta'sir kuchlarini o'rganish gaz, suyuq va qattiq moddalarning xossalarini va tuzilishini tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega. Van- der - Vaals kuchlari molekulalarning tortilishi va agregatsiyalanishida, gaz moddalarning suyuqlikka aylanishiga sababchi bo'ladi. [3 ;101- b]

Kimyoviy bog'lanishning ahamiyati nimada? Kimyoviy bog'lanishni keltirib chiqaradigan son-sanoqsiz oqibatlar uning tabiatdagi ulkan ahamiyatini ta'kidlaydi:

- Usiz, ranglar bo'lmaydi, chunki uning elektronlari elektromagnit nurlanishni yutmaydi. Atmosferada mavjud bo'lgan chang va muz zarralari yo'q bo'lib ketar edi va sababli osmonning ko'k rangi qorong'i bo'lib qoladi.

- Uglerod o'zining cheksiz zanjirlarini hosil qila olmaydi, ulardan milliardlab organik va biologik birikmalar olinadi.

- Oqsillarni ularning tarkibiga kiruvchi aminokislotalarda ham aniqlash mumkin emas edi. Shakar va yog'lar, shuningdek, tirik organizmdagi uglerod birikmalari yo'q bo'lib ketadi.

- Yer atmosferasiz qolar edi, chunki uning gazlarida kimyoviy bog'lanish bo'lmaganida, ularni ushlab turadigan kuch bo'lmaydi. Ular orasida eng kichik molekulalararo o'zaro ta'sir ham bo'lmaydi.

- Tog'lar yo'q bo'lib ketishi mumkin, chunki ularning toshlari va minerallari og'ir bo'lishiga qaramay, o'zlarining atomlarini o'zlarining kristall yoki amorf tuzilmalariga joylashtirolmagan.

- Dunyo qattiq yoki suyuq moddalar hosil qilishga qodir bo'lmagan yakka atomlardan iborat bo'lar edi. Bu, shuningdek, moddaning barcha transformatsiyalarining yo'qolishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganimizda, kimyoviy bog'lanishni yaxshi bilish dorivor moddalarning eritmalardagi ta'sir mexanizmini to'g'ri anglashda katta ahamiyatga ega. Kimyoning inson hayotidagi ahamiyatini ortiqcha baholash juda qiyin, chunki bu jarayonlar bizni hamma joyda o'rab oladi: elementar pishirishdan tanadagi biologik jarayonlargacha. Ushbu bilim sohasidagi yutuqlar insoniyatga katta zarar keltirdi (ommaviy qirg'in qurollarini yaratish) va o'limdan xalos bo'ldi (kasalliklarga qarshi dori darmonlarni ishlab chiqish va boshqalar). Bu fanga befarq bo'lib bo'lmaydi: bunchalik ko'p qarama - qarshi kashfiyotlar boshqa bilim sohasida sodir bo'lmagan. Kimyoni o'rganishni oldiga maqsad qilgan har bir o'quvchi, talaba kimyoviy bog'lanish nazariyasini chuqur o'rganishi, mohiyatini to'liq anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. H.R.To'xtayev, S.N.Aminov “ Anorganik kimyo” Toshkent – 2011 “ Noshir”
2. Q. Ahmerov, A.Jalilov, R. Sayfutdinov “Umumiy va anorganik kimyo” Toshkent – “O'zbekiston” – 2003.
3. Yu. T. Toshpulatov , N. G. Raxmatullayev “Anorganik kimyo” Toshkent - 2005.
4. " Tibbiy kimyo" S.Masharipov Toshkent - 2018.
5. S. Masharipov, I. Tirkashev “ Kimyo” Toshkent -2014 “O'qituvchi” ijodiy uyi



MUNDARIJA

1.	Sporalilar (sporozoa) tipi Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi	6-7
2.	ЎЗБЕК ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА МОМО ОБРАЗИНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ Нарзуллаева Дилфуза Саитовна	8-11
3.	О‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Karmakdoshlar oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida) Mahammadjonova Sevara Fayzulla qizi Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi	12-17
4.	SONLARGA DOIR TURLI MASALALAR Shermatova O‘g‘iljon	18-20
5.	“USTOZ MAQOMI TOG‘LARDAN ULUG‘” SHIORI OSTIDA TAYYORLAGAN PEDAGOGIK QOBILIYATI Umarqulova Nilufar	21-25
6.	“O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “Orol tabiiy geografik o‘lkasi” mavzusini o‘rganishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish. Atabayeva Mavjuda Rustamovna	26-30
7.	Al-Xorazmiy va Beruniyning didaktik g‘oyalari Atabayeva M, Shermetova O‘, Qilichev F	31-35
8.	Ta‘lim jarayonida o‘smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna	36-41
9.	“Sog‘lom turmush tarzi” – salomatlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan barcha holatlar asosi oiladir Sherjanova N	42-44
10.	“Bola va oila salomatligi” sog‘lom turmush tarzi garovi sifatida. Sherjanova N	45-47
11.	Sharq mutafakkirlari ta‘limotida kasb - hunar to‘g‘risida Sabirova K, Bekchanova K	48-51
12.	УЛКАН ВА МУРАККАБ ВЕНТРАЛ ЧУРРАЛАРДА ОПЕРАЦИЯДАН КЕЙИНГИ ЖАРОҲАТНИ САМАРАЛИ ДРЕНАЖЛАШ НАТИЖАЛАРИ Якубов Ф.Р., Аллаберганов К.Б., Маткурбонов Н.О.	52-55

13.	Kuzgi tunlam va unga qarshi kimyoviy pestidsitlarning samaradorligi. Botirov Sodiq Ahmad o‘g‘li Qulmurodov Baxtiyor Eraliyav Javohir Bahodir o‘g‘li	56-58
14.	Formation of art history and art studies as a science Makhmudova Aziza Azamatovna	59-64
15.	O‘ZBEK ADABIYOTIDA TARJIMASHUNOSLIKNING O‘RNI VA TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI TARJIMANING AHAMIYATI Sharipova Bahora Odiljonovna kafedrasi o‘qituvchisi Bahodirova Shahrizoda Bahtiyor qizi	65-68
16.	Piyozdoshlar oilasi Nabiyeva Dilnozaxon Ahadjon qizi Ergasheva Shahlo Olmasbek qizi	69-71
17.	ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ У ДЕТЕЙ ГОРОДА УРГЕНЧ. Турамуратова М.Б., Эгамова М.Б., Собиров Б.М.	72-75
18.	Manzarali o‘simliklar guruhlanishi Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi	76-79
19.	Tabiiy resurslarga, yer va atmosfera havosiga nisbatan mulk huquqi. Jo‘raqulova Hilola O‘ktam qizi	80-83
20.	Sinalgan Rizamat uzum navlarini parvarishidagi agrotexnologik tadbirlar E.I. Samandarov, M.Q. Karimova,	84-88
21.	Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan Mercedes uzum navi va boshqa uzum navlarini xomtok qilish E.I. Samandarov, Sh.Abdukarimova,	89-94
22.	Qo‘sh – membranali organoidlar - mitoxondriya va plastidaning vazifasi, farqi va ularga qisqacha ta'rif Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi	95-97
23.	Erkin Vohidov she‘riyati lingvopoetikasi Haydarova Rushana	98-100
24.	KIMYO DARSLARIDA TA‘LIM OLUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI NOSTANDART LABORATORIYA TAJRIBALAR BILAN RIVOJLANTIRISH Eshchanov Ruzumboy, Masharipov Vafa, Ataulayev Zokir	101-105

25.	O‘rgimchaklar haqida umumiy tushuncha va ularning hilma xilligi Nabiyeva Dilnozaxon Ahadjon qizi Ergasheva Shahlo Òlmasbek qizi	106-110
26.	Basketbolchilarning psixologik tayyorgarligi Turdixo‘jayeva Komilaxon To‘lqinboy qizi	111-115
27.	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ САМООЦЕНКИ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ Казимова Л.Т.	116-122
28.	Erkin Vohidov she‘riyatida folklor an‘analari Haydarova Rushana	123-125
29.	SHAHTA VA RUDNIKLARDAGI YER OSTI KON ISHLARI HOLATINI KO‘RISH UCHUN OLIY TA‘LIM DARGOHLARIDA VIRTUAL SAYOHAT AUDITORIYASINI TASHKIL QILISH O.Sh. Yormatov, U.T. Toshtemirov	126-128
30.	Qadimdan sug‘orilib kelingan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida sinalgan uzum navlari va uzum tok ostida qator oralariga ekilgan qovun navlarini hosildorligi. E.I.Samandarov, D.M.Mansurbekova	129-136
31.	ПРОБЛЕМНЫЕ СИТУАЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ И СОПОСТАВЛЕНИИ БЫТОВОЙ ЛЕКСИКИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ Насибaxon Тойчиева Суранбаевна	137-141
32.	Rahbarlarda emotsional toliqish muammosi Ismailov S.	142-145
33.	ПАРАФИНЛАР ВА ЦЕРЕЗИНЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ТАНЛОВЧИ АДСОРБЕНТЛАР ЁРДАМИДА ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИ МЕХАНИЗМИНИ ЎРГАНИШ Рахмонов О.К. Қаххоров У.Р. Атауллаев З.М.,	146-151
34.	English Grammar: Understanding, Learning, Developing Qurbonov Akobir, Dilrabokhon Akhmedjanova	152-153
35.	Ta‘lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi Mardonova Lobar Umaraliyevna Axmedova Dilbar Abdukarimovna	154-162
36.	BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI UCHUN INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI Pòlatova Dildora Erkinovna	



	Turdiyeva Dilorom Abdullayevna Jo'rayeva Maqsuda Orolovna	163-168
37.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Eshburiyeva Xurshida Urinovna G'affarova Nodira Xamraqul qizi Qorjovova Saltanat Urolovna	169-171
38.	ZIG'IRDOSHLAR VA PISTADOSHLAR OILASIGA MANSUB O'SIMLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI VA AHAMIYATI , TARQALGAN JOYLARI. Yigitaliyeva Gulhayoxon Murotali qizi	172-174
39.	COVID-19 билан касалланган оналардан туғилган чақалоқларда интерферон ҳолатининг хусусиятлари Саъдуллоева Ирода Курбановна Кароматова Фазолат Абдиқаххоровна	175-180
40.	Sinxron tarjimoni tashkil etish strategiyalari Jumayeva Muhabbat Mustaqimovna	181-189
41.	QANDLI DIABET KASALLIGINING MORFOLOGIK ASORATLARI Shakirov Shavkat O'ktamboevich,	190-192
42.	KORPORATIV MOLIYA VA UNING HUQUQIY ASOSLARI Nasimova Yulduz Baxriddin qizi	193-197
43.	Loladoshlar oilasi “Qizil” kitobga kirgan vakillari haqida Jo'raxonova Dildora Ismoiljon Qizi Ne'matjonova Mohigul Muhammad Ali qizi	198-201
44.	Zaxarli va dorivor o'simliklar Shokirova Mohizodabegim	202-207
45.	Ways to strengthen memory Isoqova Aziza Rahmatova E'zoza	208-210
46.	Suv havzalariga tashlanadigan oqova suvlarni matematik modellashtirish Qudratov Almardon Nurmamat o'g'li	211-214
47.	ODDIY VA MURAKKAB TO'PGULLAR Ravshanova Madina Fayzullo qizi va Fozilov Muhammad Amin Qudratjon o'g'li Ergasheva Gulshanoy Rustamjon qizi	215-224
48.		



	КРАТКАЯ ГЕОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕСТОРОЖДЕНИЯ “ХАНДИЗА” Носиров Нурзод Ихтиёрович Аширматова Ирода Мамасаид кизи, Сулхонов Диёрбек Ахрор угли	225-231
49.	OLMON TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR Djumaniyazova Gulnoza Shuxratovna	232-235
50.	Hashoratlarning kelib chiqishi va rivojlanishi Salohiddinova Muhayyo Hayrullo qizi	236-239
51.	Methods for solving simple text problems in elementary grades. (in 4th grade) Tashboeva Saidakhan Rakhmonberdievna Khodzhimatova Khilolakhan Umidjon qizi	240-244
52.	Mustaqillik yillarida tasviriy san’at faniga bo‘lgan e’tibor Mamitaliyev Axmadjon G'aniyevich	245-248
53.	ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ Хожимаматов Азимжон	249-253
54.	PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA Muyassarxon Achildiyeva	254-266
55.	Qisqichbaqasimonlar va ularning xilma xilligi Jo‘raxonova Dildora Ismoiljon Qizi Ne'matjonova Mohigul Muhammad Ali qizi	267-272
56.	Boshlig‘ichlilar haqida umumiy tushuncha va ularning xilma-xilligi Shokirova Mohizodabegim	273-276
57.	REALIYALARNING KLASSIFIKATSIYALARI Xolliyev Shaxzodbek, Jumaniyozov Xasanbek	277-280
58.	СИНТЕЗ И СТРУКТУРА 1-(4 МЕТИЛБЕНЗОЛСУЛЬФОНИЛ)-2-ГИДРОКСИМЕТИЛБЕНЗИМИДАЗОЛА К. Б. Абдиреймов, Р.М. Усманов, Д. Р. Матчанова, Р. Я. Окманов	281-283
59.	Метафора как из средств изображения в произведениях С.Есенина Машарипова Зухра Отабек кизи	284-291
60.	ANDROTSEY VA GINETSEYNING TUZILISHI Tohirov Muhammadjon Vaxrom o‘g‘li Yusupov Abdug‘ani Abdullabek o‘g‘li	292-299



61.	Za’faron o’simligining foydali xususiyatlari va uning tarqalishida o’ziga xos belgilar Maxmudjonova Mavluda Muhammadali qizi	300-302
62.	Zamburug’larning tabiatdagi ekologik ahamiyati va foydali xususiyatlari Ahmadjonova Mohlaroyim Ithomjon qizi Odilova Shaxnoza Omadjon qizi	303-306
63.	Развитие творческих способностей обучающихся начальных классов на уроках литературного чтения Курбанова Динора Сардорбековна	307-312
64.	АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ Асадова Камилла	313-317
65.	СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ ВЫЯВЛЕНИЯ ТУБЕРКУЛЕЗА В УЗБЕКИСТАН Асадова Камилла	318-322
66.	Chet tilini o’rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish chora tadbirlari Davlatova Dildora Dilshod qizi Imomova Umida Muzafarovna	323-327
67.	Kimyoviy bog’lanish nazariyasi va borliqning u bilan bog’liqligi Inatova Maxsuda Sag’dullayevna Murodova Dilafroz Xamrayeva Mavjuda Abdusattorovna	328-343
68.	MUNDARIJA	344-349

